

A.B. AKRAMOV

---

**XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA  
MOLIYAVIY HISOBOT TUZISH:  
HISOB VA TAHLIL USULLARINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

---



CK/2024

15

657

A40


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,  
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**A. B. AKRAMOV**

**XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA MOLIYAVIY  
HISOBOT TUZISH: HISOB VA TAHLIL USULLARINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**(Monografiya)**



№5

**TOSHKENT - 2023**

UO'K: 657.1:006.01(575.1)

KBK 65.053

A 58

**A.B. Akramov. Xalqaro standartlar asosida moliyaviy hisobot tuzish: hisob va tahlil usullarini takomillashtirish. (Monografiya). – T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2023, 160 b.**

Mazkur monografiyada xalqaro standartlar asosida moliyaviy hisobotni tuzish va uning tahlilini takomillashtirishning dolzarb masalalari tadqiq etilgan.

Tadqiqot ishida moliyaviy hisobot tuzilgan sanadan keyingi hodisalarni reversiv tarzda aks ettirish, xalqaro hisoblash tamoyili asosida moliyaviy hisobot tayyorlash, vertikal balans-netto shakli va konsolidatsiyalashgan hisobotning ishchi transformatsiya jadvalarini tadbiiq etish, moliyaviy hisobotning muhim elementlarining qadrsizlanishi bo'yicha rezerv tashkil qilish, sof aktivlar qiymatiga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda moliyaviy hisobot axborotlaridan foydalanish masalalari kabi sohalarda chuqur ilmiy izlanishlar olib borilgan.

\*\*\*

This monograph explores topical issues of improving the preparation of financial statements and their analysis based on international standards.

Deep scientific research has been carried out in the field of retroactive reflection of events after the date of preparation of financial statements, preparation of financial statements based on the principle of international accounting, implementation of vertical balance-net form and working transformation tables of consolidated statements, provision for impairment of important elements of financial statements, assessment of net assets analysis of hidden factors, issues of using financial reporting information in attracting foreign investments.

\*\*\*

В данной монографии исследованы актуальные вопросы подготовки финансовой отчетности и совершенствования ее анализа на основе международных стандартов.

В исследовательской работе проведены глубокие научные исследования в области реверсивного отражения событий после даты составления финансового отчета, составления финансового отчета на основе принципа международного расчета, реализации «вертикального баланса- чистая» форма, внедрение рабочих таблиц преобразования сводного отчета, амортизация важных элементов финансового отчета. организация резервов, анализ факторов, влияющих на стоимость чистых активов, использование информации финансовой отчетности при привлечении иностранных инвестиций.

UO'K: 657.1:006.01(575.1)

KBK 65.053

**Taqrizchilar:**

**N.SH. Xajimuratov – (TDIU) i.f.d., prof.;**

**A.I. Alikulov – (SamVMI) i.f.d., prof.;**

**I.N. Qo'ziyev – (TMI) i.f.d., prof.**

**M. P. Eshov – Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining akademik faoliyat bo'yicha prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professori tahriri ostida.**

**Monografiya Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Kengashining 2023-yil 4-iyuldagi 11-son qaroriga muvofiq nashr qilindi.**

**ISBN 978-9910-01-014-8**

© Akramov A.B., 2023;

© «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2023.

## KIRISH

Jahonda kechayotgan globallasuv jarayonlarining kuchayishi va xalqaro moliya bozorlariga integratsiyalashuvning chuqurlashuvi salohiyatli investor va mulkdorlarni ishonchli hamda shaffof axborotlar bilan ta'minlashda xalqaro standartlarga muvofiq moliyaviy hisobot tuzish va tahlil qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xalqaro standartlar asosida moliyaviy hisobot tuzish "Jahonning 109 mamlakatida, shu jumladan, 81 – listing va 28 – nolistig kompaniyalariga ruxsat berilgan yoki majburiy hisoblanadi. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlaridan foydalanish talab qilinadigan yoki foydalanishga ruxsat berilgan davlatlar, moliya institutlari va listing kompaniyalari salmog'i 2020-yil butun dunyo yalpi ichki mahsulotining 51 foizni"<sup>1</sup> tashkil etgan. Dunyo mamlakatlarining ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti darajasi, buxgalteriya hisobi tizimlari, moliyaviy hisobot tuzish maqsadi, taqdim etish va interpretatsiya qilish tamoyillarining turlicha ekanligi hisobotlarni taqqoslash zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Jahonda moliyaviy hisobotning konseptual asoslarini yoritib berish va uslubiy asoslarini xalqaro standartlarga transformatsiya qilishga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Moliyaviy hisobot tuzilgan sanadan keyingi hodisalarni reversiv tarzda aks ettirish, xalqaro hisoblash tamoyili asosida moliyaviy hisobot tayyorlash, vertikal balans-netto shakli va konsolidatsiyalashgan hisobotning ishchi transformatsiya jadvallarini tatbiq etish, moliyaviy hisobotning muhim elementlarining qadrsizlanishi bo'yicha rezerv tashkil qilish, sof aktivlar

---

<sup>1</sup> Who uses IFRS Accounting Standards? [www.ifrs.org](http://www.ifrs.org)

qiymatiga ta'sir etuvchi omillarning tahlili, xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda moliyaviy hisobot axborotlaridan foydalanish yo'nalishlari bilan bog'liq masalalar hanuzgacha o'zining ijobiy yechimini topmagan.

O'zbekistonning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi aksiyadorlik jamiyatlari va xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarining xalqaro birjalar listingiga kiritilishi, moliya institutlari, salohiyatli investorlar bilan hamkorlik qilishida xalqaro standartlar asosida moliyaviy hisobot tuzish va tahlil qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda. "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (MHXS) o'tishni jadallashtirish orqali xorijiy investorlarni zarur axborot muhiti bilan ta'minlash va xalqaro moliya bozorlariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, hisob va audit sohalari mutaxassislarini xalqaro standartlar bo'yicha tayyorlash tizimini takomillashtirish"<sup>2</sup> ustuvor vazifa sifatida belgilab berilgan. Mazkur vazifa ijrosini ta'minlashda Yangi O'zbekistonda moliyaviy hisobotni xalqaro standartlar va ilg'or xorijiy tajribalar asosida tadqiq etish hamda ularni mamlakatimiz iqtisodiyotining xususiyatlarini inobatga olgan holda joriy etish, korxonalar aktivlari, ularni moliyalashtirish manbalari va majburiyatlar, daromadlar va xarajatlar, pul oqimlarining harakati kabi muhim elementlarini xalqaro tamoyillar va qoidalarga binoan shakllantirish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi (2016 y.) qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'ri-

---

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-son «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 23.08.2021 y., 06/21/6280/0811-son. [www.lex.uz/docs/4746047](http://www.lex.uz/docs/4746047)

sida”gi Farmoni, 2022-yil 10-oktabrdagi PQ-388-son “Kimyo va gaz-kimyo sanoatini strategik rivojlantirishning maqsadli dasturini tasdiqlash to’g’risida”gi, 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-son “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o’tish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi, 2021-yil 13-fevraldagi PQ-4992-son “Kimyo sanoati korxonalarini yanada isloh qilish va moliyaviy sog’lomashtirish, yuqori qo’shilgan qiymatli kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 24-avgustdagi 507-son «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va unga tushuntirishlar matnini tan olish tartibi to’g’risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi qarori va boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar ijrosini amalga oshirishda mazkur monografik tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Xalqaro standartlar asosida moliyaviy hisobotni tuzish va uni tahlil qilishning nazariy-uslubiy jihatlari xorijlik iqtisodchi olimlar: P. Aynsvort, K. Larson, R. Libbi, R. Hermanson, R. Entoni, J. Spiselend, D. Aleksander, V. Astaxov, V. Kachalin, M. Kuter, V. Paliy, Ya. Sokolov, V. Getman, T. Drujilovskayalarning ilmiy izlanishlarida uchraydi<sup>3</sup>.

---

<sup>3</sup> Ainsworth, Penne. Introduction to Accounting: An integrated Approach / «Irwin», Printed in USA, 2005. 425 p.; Larson, Kermit D. Financial Accounting / 6th ed. «Irwin», 2005. 686 p.; Libby, Robert. Financial accounting / «Irwin», Printed in USA, 1996. 848 p.; Hermanson, Roger H. Accounting: a business perspective / 6th ed., «Irwin», Printed in the USA, 2004. 926 p.; Anthony, Robert Newton. Accounting principles / D.B.A. - 7th edition, «Irwin», 2006. 686 p.; Spiceland J. David. Intermediate accounting. / 7th ed. 2013; Alexander D. International Financial Reporting and Analysis, 4- Edition. 2009. 39-59-p; Астахов В.П. Теория бухгалтерского учета. Издательский центр «МарТ», 2000.–416 с.; Качалин В.В. Финансовый учет и отчетность в соответствии со стандартами GAAP.–М.: «Дело», 1998. –432 с.; Кутер М.И. Теория и принципы бухгалтерского учета: Учеб. пособие. –М.: «Финансы и статистика», Экспертное бюро, 2000. –544 с.; Палий В.Ф. Международные стандарты финансовый отчетности. –М.: «ИНФРА-М», 2003–456 с.; Соколов Я.В. Очерки по истории бухгалтерского учета. –М.: «Финансы и статистика», 1991 – 400 с.; Гетьман В.Г. О концептуальной основе международных стандартов финансовой отчетности // «Международный бухгалтерский учет»,

Mahalliy iqtisodchi olimlar: A. Ibragimov, I. Ismanov, B. Isroilov, A. Karimov, M. Tulaxo'jaeva, B. Xasanov, M. Pardayev, A. Pardayev, K. Urazov, S. Mehmonov, K. Axmedjanov, R. Dusmuratov, I. Qo'ziyev, N. Rizaev, S. Tashnazarov, M. Raximov, Z. Sagdillaeva, I. Ibragimovalarning ilmiy ishlarida xalqaro standartlar asosida moliyaviy hisobotni tuzish va tahlil qilish bevosita va bilvosita tadqiq qilingan<sup>4</sup>.

Ushbu mavzu doirasida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlari va olib borilgan ilmiy-nazariy izlanishlarda, aynan xalqaro standartlar asosida moliyaviy hisobotni tuzish hamda uning tahlilini takomillashtirish masalalari kompleks va tizimli tarzda to'liq o'rganilmagan. Mazkur holat monografiyada tadqiq qilingan

---

2007, № 12; Дружиловская Т.Ю. Гармонизация финансовой отчетности: теория и российская практика. Автореферат докторской диссертации по экономике Научная библиотека диссертаций и авторефератов. –М.: «РНБ Русский фонд», 2003, -28с.

<sup>4</sup> Ibrohimov A.K., Karimov A.A. Xorij sarmoyalari buxgalteriya hisobi. –T., «O'zbekiston», 1999. 143 b., Ismanov I.N. Uzoq muddatli aktivlar buxgalteriya hisobining metodologik asoslari. Monografiya. –T.: «Fan», 2006. – 172 b.; Pardayev M.K., Abdulkarimov I.T., Isroilov J.I., Isroilov B.I. Korxonalarda moliyaviy hisobotlar tahlili. O'quv qo'llanma. –T.: «Soliq Akademiyasi», 2009.- 76 b.; Tulaxodjayeva M.M., Tuxsanov X.A. Finansoviy uch. uch. pos. – T.: APBDU, 2001; Xasanov B.A. Temir yo'l transporti korxonalarida asosiy faoliyat xarajatlari hisobini takomillashtirish : Monografiya. –T.: «Iqtisodiyot», 2012. –128 b., Pardayev A.X., Pardayeva Z.A. Boshqaruv hisobi. – Toshkent, 2014. – 318 b. Urazov K.B. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida buxgalteriya hisobining konseptual masalalari. Monografiya. – T.: «Fan», 2005. -236 b. Mehmonov S.U. Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va ichki audit metodologiyasini takomillashtirish. Iqt. fan. dokt. dis.avtoref. –T.: O'zR BMA, 2018.; Axmedjanov K.B. Xo'jalik yurituvchi subyektlarda ichki audit metodologiyasini takomillashtirish. Iqt.fan.dokt.diss.avtoref. – T.: O'zR BMA, 2016. – 76 b; Dusmuratov R.D., Djurayev B.M. Qishloq xo'jalik korxonalarida hisob siyosati: uslubiy va tashkiliy-texnik jihatlari. Monografiya. – T.: 2016. – 156 b.; Qo'ziyev I.N. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida auditorlik hisobotini tuzish va umumlashtirish metodologiyasini takomillashtirish: Iqt.fanl.dokt.diss.avtoreferati. Toshkent-2017. -70 b; Rizayev N.K. Intellektual mulk obyektlari hisobi va tahlilini tashkil etish metodologiyasi. Iqt.fanl.dokt.(DSc) diss.avtoreferati, 2019; Tashnazarov S.N. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida moliyaviy hisobot: muammo va yechimlar. Monografiya. –T.: «Navro'z» nashriyoti, 2016 y.-296 b.; Raximov M.Yu. Iqtisodiyot subyektlari moliyaviy holatining tahlili. –T.: «Iqtisod-moliya», 2013, 392 b.; Sagdillaeva Z., Yuldasheva U., Alimov B. Finansoviy analiz.—T.: «Fan va texnologiya», 2019, 444 str.; Ibragimova I.R. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini aksiyadorlik jamiyatlarida amaliyotiga joriy etishni takomillashtirish. Iqt. fan.fals. dokt.(PhD) disser.avtoref. –T.: TDIU. 2022. – 58 b.



ilmiy-amaliy muammolar va ularni bartaraf etish yuzasidan ishlab chiqilgan taklif hamda tavsiyalarning dolzarblik darajasini belgilab beradi.

Tadqiqotning maqsadi, xalqaro standartlar asosida moliyaviy hisobotni tuzish va uning tahlilini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish hisoblanadi.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash sharoitida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari mohiyatini ochib berish va uning zaruriyatini ilmiy va amaliy jihatdan tadqiq etish;

moliyaviy hisob va hisobotning me'yoriy-huquqiy asoslarini tahlil qilish va ularning uslubiy asoslarini takomillashtirish bo'yicha tegishli xulosalar berish;

moliyaviy hisobotning tarkibiy qismlari va asosiy elementlarini takomillashtirish bo'yicha tadqiqotlar olib borish;

moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotning mohiyati, taqdim qilinishi va uni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tavsiyalar ishlab chiqish;

foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotni tuzish usullarini takomillashtirish maqsadida tahliliy izlanishlar olib borish;

xalqaro standartlar asosida moliyaviy hisobotlar tahlilini takomillashtirishga qaratilgan amaliy takliflar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida «O'z kimyosanoat» aksiyadorlik jamiyati tizimidagi xo'jalik yurituvchi subyektlar hisob siyosati tanlangan.

Tadqiqotning predmeti xalqaro standartlar bo'yicha moliyaviy hisobotlarni tuzish va tahlil qilish jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar majmui hisoblanadi.

Monografiyada guruhlash, qiyosiy va iqtisodiy tahlil, induksiya va deduksiya, iqtisodiy-statistik usullar, ekspert

baholash, iqtisodiy-matematik modellashtirish va prognozlashtirish usullaridan keng foydalanilgan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati izlanish natijasida olingan ilmiy xulosalar, ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy hisobotlarini xalqaro standartlar asosida tuzish va tahlilini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy izlanishlarga asos bo'lib xizmat qilishi, shu sohaga oid uslubiy ko'rsatmalarni ishlab chiqish, o'quv adabiyotlarini yaratishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalarni xalqaro standartlar asosida moliyaviy hisobotni tuzish va tahlil qilish amaliyotini takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqishda hamda iqtisodiyot yo'nalishidagi oliy o'quv yurtlarida «Buxgalteriya hisobi», «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari» va «Moliyaviy hisobot tahlili» kabi fanlarni o'qitishda qo'llanma sifatida foydalanish mumkin.

# **I BOB. XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA MOLIYAVIY HISOBOT TUZISH VA UNI TAHLIL QILISHNING NAZARIY-USLUBIY HAMDA TASHKILY ASOSLARI**

## **1.1. O'zbekistonda moliyaviy hisobotning milliy tizimini xalqaro standartlarga transformatsiya qilishning zarurati, xorijiy tajribasi va istiqbollari**

Mamlakatimiz iqtisodiyotini jahonning rivojlangan davlatlari amaliyotida keng qo'llanilayotgan moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (MHXS) o'tishini jadallashtirish orqali xorijiy investorlarni zarur axborot muhiti bilan ta'minlash, investitsion jozibadorlikni oshirish va xalqaro moliya bozorlariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, hisob va audit sohalari mutaxassislarini xalqaro standartlar bo'yicha tayyorlash tizimini takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan muhim qaror qabul qilindi<sup>5</sup>.

Mazkur qarorga binoan aksiyadorlik jamiyatlari, tijorat banklari, sug'urta tashkilotlari va yirik soliq to'lovchilar toifasiga kiritilgan yuridik shaxslar 2021-yil 1-yanvardan boshlab, MHXS asosida buxgalteriya hisobi yuritilishini tashkil etishlari belgilab qo'yilgan. Buning uchun 2021-yil yakuniga qadar buxgalterlarni xalqaro sertifikatlash doirasida «MHXS bo'yicha moliyaviy hisobot» fanini muvaffaqiyatli topshirganligi to'g'risida hujjatga yoxud «Sertifikatlangan xalqaro professional buxgalter (CIPA)», «Sertifikatlangan diplomli buxgalter (ACCA)», «Sertifikatlangan jamoatchi buxgalter (SRA)» va «Xalqaro moliyaviy hisobot bo'yicha diplom (DipIFR)» sertifikatlaridan biriga ega kamida uch

---

<sup>5</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. PQ-4611-son 24.02.2020. [www.lex.uz/docs/4746047](http://www.lex.uz/docs/4746047)

nafar mutaxassis mavjud bo'lgan buxgalteriya xizmati xodimlari bilan ta'minlashlari talab qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi 2020-yildan boshlab, davlat ulushi bo'lgan xo'jalik jamiyatlari va davlat korxonalarining MHXS asosida buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotni tayyorlashga o'tish jadvali har yili tasdiqlanishi va 1-iyunga qadar rasmiy veb-saytida e'lon qilinishini ta'minlashlari belgilab qo'yilgan.

Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari uchun imtiyozlar yaratilgan bo'lib, agar ular moliyaviy hisobning xalqaro standartlari bo'yicha hisobot taqdim etganlarida, ular buxgalteriya hisobining milliy standartlari bo'yicha hisobot tuzishdan ozod qilinadilar.

Shuni ta'kidlash lozimki, yuqoridagi vazifalarning ijrosi o'z navbatida kadrlarni tayyorlash va sertifikatlashga borib taqaladi. Hozirgi paytda faoliyat yuritayotgan o'quv markazlari respublikamizdagi buxgalteriya hisobi xodimlarini sertifikatlash uchun yetarli salohiyatga va litsenziyaga ega emas. Bu muammoning yechimi sifatida Moliya vazirligi, Buxgalterlarning jamoat tashkilotlari 2020-yil davomida xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda Buxgalterlarni o'qitish markazlarida sertifikatsiyalash jarayonlarining Dasturi, Yo'l xaritasi va amalga oshirish mexanizmlarini ishlab chiqishlari hamda o'quv markazlarini akkreditatsiyadan o'tkazishlari zarur.

MHXSga o'tish jarayoni mamlakatimiz iqtisodiyotida qo'llanilayotgan buxgalteriya hisobining milliy standartlari (BHMS)ni chorak asrlik tajribasidan qay yo'sinda foydalanishi masalasini kun tartibiga qo'ymoqda. Bizning fikrimizcha, O'zbekiston Respublikasi BHMSni mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun davlat ichki standartlari ko'rinishida saqlab qolish va uning xos

raqamlari va nomlarini xalqaro standartlarga moslashtirish maqsadga muvofiqdir.

Yuqoridagi qarorning muhim jihatlaridan biri 2020-yil 1-oktabrga qadar soliq hisobotining shakllari qayta ko'rib chiqilishi va ularning moliyaviy hisobotning MHXSga moslashtirilgan shakli ishlab chiqilishi ta'kidlangan. Bu juda dolzarb muammo bo'lganligi sababli, unga qo'shimcha sifatida statistik hisobot shakllarini ham xalqaro standartlarga moslashtirish zarurligini e'tirof etamiz. Bunga sabab, masalan, statistik hisobotning "Tashkilot xarajatlari to'g'risida" (3-Moliya shakli)gi mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi va davr xarajatlari aralashib ketganligi sababli, bu holat tannarx va baho o'rtasidagi mutanosiblikka ta'sir ko'rsatib, sof foydaning sun'iy ravishda kamaytirib ko'rsatilishiga olib kelmoqda. Bu esa aksiyadorlarning manfaatlarini cheklashga, dividend siyosati talablarining bajarilmasligiga sabab bo'lmoqda.

Rossiyalik iqtisodchi olim O.YU.Shuligina, MHXSga muvofiq moliyaviy hisobotlarni tayyorlashning ikkita asosiy usuli mavjudligini e'tirof etadi: Rossiya hisobotini tuzatish (transformatsiya) va parallel ravishda buxgalteriya hisobini yuritish (konversiya)<sup>6</sup>.

Biz yuqoridagi muallifning fikrlariga qo'shilgan holda bu ikkita usulning umumiy va xususiy jihatlariga to'xtalib o'tamiz. O'zbekistonda ham buxgalteriya hisobining milliy standartlari asosida tuzilgan moliyaviy hisobotni xalqaro standartlarga o'tkazish (transformatsiya qilish) zarur. Buning uchun transformatsiya jadvallarini shakllantirish, transformatsiya qilish bo'yicha schyolar aloqalarini, taxminiy va yakuniy buxgalteriya balansini tuzish kabi bosqichlarni bosib o'tish zarur.

---

<sup>6</sup> Шулыгина О.Ю. Методы подготовки финансовой отчетности в формате МСФО. Международный бухгалтерский учет. 24 (174) – 2011. с.16-19

Mazkur muammolarni tadqiq etgan olim S.Djumanov yozadi: "Moliyaviy hisobotni xalqaro standartlar asosida transformatsiya qilishda buxgalteriya balansini tuzish moduli muhim sanalanadi. Chunki korxonaning mulkiy holati, aktivlar va majburiyatlarni qoplash muddati to'g'risidagi axborot uning to'lov qobiliyati va likvidligini baholashda foydalidir"<sup>7</sup>.

Ushbu fikrlarni tasdiqlagan holda shuni ta'kidlamoq-chimizki, amaldagi "Buxgalteriya balansi" (1-shakl)ni MHXSga moslagan holda "Korxonaning moliyaviy holati to'g'risidagi hisobot" deb nomlashni taklif etamiz.

Parallel hisob yuritishda, ya'ni konversiya jarayonida moliyaviy hisobot ikkita tizim bo'yicha taqdim etiladi. Birinchidan, moliyaviy hisobot mazkur davlatning valyutasida va uning qonunchiligi asosida tuziladi. Keyingi bosqichda bu hisobot xalqaro standartlar tamoyillari va talablari asosida transformatsiya qilinadi. Shunday qilib, xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy hisoboti bir vaqtning o'zida ham milliy, ham xalqaro standartlar asosida tuziladi va taqdim etiladi.

Parallel hisob usuli (konversiya jarayoni) ikkita moliyaviy hisobot tizimida buxgalteriya hisobi axborotlarini qayta ishlash yoki raqamli iqtisodiyot sharoitida dasturiy ta'minotning konfiguratsiyasini talab qiladi.

Bu, albatta, mehnattalab va ko'p xarajatli usul bo'lib, amaliyotda to'la xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi subyektlar va qo'shma korxonalarda bu usuldan foydalanilmoqda.

Ma'lumki, hozirgi vaqtda xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan Moliyaviy hisobotning "Asosiy vositalar harakati to'g'risidagi hisobot" (3-shakl) O'zbekiston Respublikasi Moliya

---

<sup>7</sup> Djumanov S.A. Moliyaviy hisobot axborotlarini xalqaro standartlar asosida kompilyatsiya qilish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. T.:2019

vazirining 2002-yil 27-dekabrda 140-sonli buyrug'i bilan kiritilgan edi. Keyinchalik bu hisobot shakli bekor qilindi. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta jihozlash sharoitida uzoq muddatli aktivlarning eskirishi, yangilanishi va yaroqlilik koeffitsiyentini hisoblash juda muhim sanaladi. Shu munosabat bilan biz xalqaro standartlar bo'yicha jahonda qo'llanilayotgan "Asosiy vositalar harakati haqidagi hisobot" shaklini kiritish uchun prof. S.Tashnazarovning fikrlarini qo'llab-quvvatlaymiz.

Tadqiqotlar natijasidan xulosa qilganimizda, O'zbekistonda moliyaviy hisobotni xalqaro standartlar asosida tuzish va taqdim etish masalasiga davlatimiz darajasida katta e'tibor qaratilmoqda. Bu sohada iqtisodchi olimlarimiz tomonidan dolzarb mavzularda ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda.

Shunga qaramasdan, moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlar asosida tuzishning quyidagi kechiktirib bo'lmaydigan masalalarini sanab o'tmoqchimiz:

1. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Iqtisodiyot va Moliya vazirligi huzuridagi Soliq qo'mitasi va O'z.Res. Prezidenti huzuridagi agentligi Statistika agentligi Iqtisodiyot va bazasida mazkur muammolar yuzasidan metodologik kengash tashkil etish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

2. Amaldagi buxgalteriya hisobining milliy standartlarini takomillashtirib, uni moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga moslashtirib, Moliyaviy hisobotning davlat ichki standartlari (MHDIS) deb nomlashni taklif etamiz.

3. Moliyaviy hisobotni transformatsiya qilish bo'yicha yagona hisob siyosatini o'rnatishni, uning shakllari, usullari va vositalarining namunaviy Nizom shaklida ishlab chiqilishi va tavsiya etilishini maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

MHXSga o'tishning zarurati muayyan milliy hisob tizimining

zamonaviy ekanligi yoki boshqalarning undan ortda qolganligida emas, balki xalqaro iqtisodiy munosabatlarning globallashuvi sharoitida xo'jalik aloqalarining mohiyatini haqqoniy ifodalovchi yagona biznes tilida so'zlashishga obyektiv ehtiyoj tug'ilganligi bilan izohlanadi. Amaliyotning guvohlik berishicha, hozirgi paytda bunday muloqot vositasini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari bekamu ko'st bajarmoqda. Shuni unutmash zarurki, MHXS - bu qotib qolgan tizim emas, chunki ular doimo rivojlanib va takomillashtirilib boriladi. Jumladan, 2005-yil 1-yanvardan boshlab MHXSning yangi tahriri kuchga kiradi. MHXSga o'tish milliy standartlardan butunlay voz kechishni anglatmaydi, balki amaldagi milliy hisob tizimini MHXSga uyg'unlashtirish zarurligini bildiradi.

AQSH o'zining buxgalteriya hisobining milliy standartlarini xalqaro darajada qo'llab kelmoqda. Shu bilan birga, Rossiyaning aksariyat yirik korxonalarini, shu jumladan, banklar US GAAP amal qiladigan AQSH fond birjalarida ro'yxatda turishni ma'qul ko'rishadi. Biz MHXSga o'tishda shoshilmadikmi, chunki hatto Yevropa Ittifoqi davlatlari ham ushbu standartlarga faqat 2005-yil 1-yanvardan o'tmoqchi<sup>8</sup>.

Mamlakatimizda moliyaviy hisobot tuzish va uni taqdim etishning xalqaro standartlariga asoslangan milliy modeli yaratilgan bo'lib, u chorak asr mobaynida xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida keng qo'llanilib kelinmoqda, globallashuv va xalqaro integratsiyaning kuchayishi, O'zbekistonning jahon bozoriga integratsiyalashuvi bu jarayonga yangicha nuqtai nazar bilan yondashishni talab qilmoqda. Xususan, xorijiy investitsiyalarni jalb etishda mulkchilik shakllari ichida davlat ulushining

---

<sup>8</sup> Шеремет А.Д. Глобализация нуждается в едином языке. <https://bosfera.ru/bo/globalizaciya-nuzhdaetsya-v-edinom-yazyke?amp>



yuqoriligi to'g'ridan-to'g'ri investitsilarni jalb etishning kafolatlarini to'liq ta'minlay olmayapti. Shu boisdan, hozirgi iqtisodiy siyosatning asosini davlat ishtirokidagi korxonalarni xususiy-lashtirish yo'li bilan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berishdan iboratdir. Bunda, albatta, davlat o'zining strategik obyektlari va davlat budjeti manfaatlaridan kelib chiqib, makroiqtisodiy parametrlarni o'rnatadi.

O'zbekistonda moliyaviy hisobning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha 2020-yil 24-fevralda davlat rahbari tomonidan qaror imzolandi. Bu qarorning maqsadi – xorijiy investorlarni zarur axborot muhiti bilan ta'minlash va xalqaro moliya bozorlariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, hisob va audit sohalari mutaxassislarini xalqaro standartlar bo'yicha tayyorlash tizimini takomillashtirishdir<sup>9</sup>.

Aksiyadorlik jamiyatlari, tijorat banklari, sug'urta tashkilotlari va yirik soliq to'lovchilar toifasiga kiritilgan yuridik shaxslar 2021-yil 1-yanvardan boshlab, MHXS asosida buxgalteriya hisobi yuritilishini tashkil etishlari va 2021-yil yakunlaridan boshlab moliyaviy hisobotni MHXS asosida tayyorlashlari mazkur qarorda belgilab qo'yilgan.

2021-yil yakuniga qadar buxgalterlarni xalqaro sertifikatlash doirasida «MHXS bo'yicha moliyaviy hisobot» fanini muvaffaqiyatli topshirganligi to'g'risida hujjatga yoki «Sertifikatlangan xalqaro professional buxgalter (CIPA)», «Sertifikatlangan diplomli buxgalter (ACCA)», «Sertifikatlangan jamoatchi buxgalter (SRA)» va «Xalqaro moliyaviy hisobot bo'yicha diplom (DipIFR)» sertifikatlaridan ya'ni xalqaro buxgalter sertifikatidan biriga ega kamida uch nafar mutaxassis miqdorida MHXSni sifatli

---

<sup>9</sup> Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. 2020-yil 24-fevral № 4611. [www.president.uz](http://www.president.uz)

qo'llash uchun yetarli bo'lgan buxgalteriya xizmati xodimlari bilan ta'minlaydi.

1-jadval


**2022-yil 1-yanvar holatiga amal qilayotgan xalqaro standart (IAS va IFRS)larni taqqoslash<sup>10</sup>**

<b>Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) – International Financial Reporting Standards (IFRS)</b>	
Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari (BHXS) – International Accounting Standards (IAS) – 2001-yilning aprel oyigacha	Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) – International Financial Reporting Standards (IFRS) – 2001-yilning aprel oyidan boshlab
IAS 1 Moliyaviy hisobotni taqdim etish (Presentation of Financial Statements)	IFRS 1 Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini birinchi marta qo'llash (First-time Adoption of International Financial Reporting Standards)
IAS 2 Zaxiralar (Inventories)	IFRS 2 Aksiyaga asoslangan to'lov (Share-based Payment)
IAS 7 Pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobot (Statement of Cash Flows)	IFRS 3 Biznes birlashuvlari (Business Combinations)
IAS 8 Hisob siyosati, hisob baholaridagi o'zgarishlar va xatolar (Accounting Policies, Changes in Accounting prices and fallacy)	IFRS 4 Sug'urta shartnomalari (Insurance Contracts) <i>(s 1 yanvarya 2021 goda perestaet deystvovat, v svyazi s vixodom IFRS 17)</i>
IAS 10 Hisobot davridan keyingi hodisalar (Events after the Reporting Period)	IFRS 5 Sotish uchun mo'ljallangan uzoq muddatli aktivlar va tugatilgan faoliyat (Non-current Assets Held for Sale and Discontinued Operations)
IAS 12 Foyda soliqlari (Income Taxes)	IFRS 6 Foydali qazilmalarni geologik qidirish va baholash (Exploration for and

<sup>10</sup> [https://www.mf.uz/uz/?option=com\\_content&view=article&id=970](https://www.mf.uz/uz/?option=com_content&view=article&id=970) asosida muallif ishlanmasi.

## 1-jadvalning davomi

	YEvaluation of Mineral Resources)
IAS 16 Asosiy vositalar (Property, Plant and YEquipment)	IFRS 7 Moliyaviy instrumentlar: ma'lumotlarni yoritib berish (Financial Instruments: Disclosures)
IAS 19 Xodimlarning daromadlari (Employee Benefits)	IFRS 8 Operatsion segmentlar (Operating Segments)
IAS 20 Davlat grantlari hisobi va davlat yordami to'g'risidagi ma'lumotlarni yoritib berish (Accounting for Government Grants and Disclosure of Government Assistance)	IFRS 9 Moliyaviy instrumentlar (Financial Instruments)
IAS 21 Valyuta kurslaridagi o'zgarishlarning ta'sirlari (The YEffects of Changes in Foreign YExchange Rates)	IFRS 10 Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot (Consolidated Financial Statements)
IAS 23 Qarzlarni bo'yicha xarajatlar (Borrowing Costs)	IFRS 11 Birgalikdagi faoliyat bo'yicha kelishuvlar (Joint Arrangements)
IAS 24 Bog'liq tomonlar to'g'risidagi ma'lumotlarni yoritib berish (Related Party Disclosures)	IFRS 12 Boshqa tashkilotlardagi ulushlarni yoritib berish (Disclosure of Interests in Other YEntities)
IAS 26 Pensiya dasturlari bo'yicha buxgalteriya hisobi va hisoboti (Accounting and Reporting by Retirement Benefit Plans)	IFRS 13 Adolatli qiymat bo'yicha baholash (Fair Valuye Measurement)
IAS 27 Alohida moliyaviy hisobot (Separate Financial Statements)	IFRS 14 Kechiktirilgan tarif farqlari schyotlari (Regulatory Deferral Accounts)
IAS 28 Ta'sir ostidagi tashkilotlarga va qo'shma korxonalariga investitsiyalar (Investments in Associates and Joint Ventures)	IFRS 15 Xaridorlar bilan shartnomalar bo'yicha tushum (Revenue from Contracts with Customers)
IAS 29 Giperinflyatsiyali iqtisodiyotda moliyaviy hisobot (Financial Reporting in Hyperinflationary YEconomies)	IFRS 16 Ijara (Leases) <i>(deystvuyet s 1 yanvarya 2019 goda)</i>



## 1-jadvalning davomi

IAS 32 Moliyaviy instrumentlar: taqdim etish (Financial Instruments: Presentation)	
IAS 33 Bir aksiyaga to'g'ri keladigan foyda (YEarnings per Share)	
IAS 34 Oraliq moliyaviy hisobot (Interim Financial Reporting)	
IAS 36 Aktivlarning qadsizlanishi (Impairment of Assets)	
IAS 37 Baholangan majburiyatlar, shartli majburiyatlar va shartli aktivlar (Provisions, Contingent Liabilities and Contingent Assets)	
IAS 38 Nomoddiy aktivlar (Intangible Assets)	
IAS 39 Moliyaviy instrumentlar: tan olish va baholash (Financial Instruments: to admit and valuation) <i>(2018-yil 1-yanvardan boshlab, 9-IFRS chiqarilishi munosabati bilan, alohida holatlarni inobatga olmaganda o'z kuchini yo'qotadi)</i>	
IAS 40 Investitsiya ko'chmas mulki (Investment Property)	
IAS 41 Qishloq xo'jaligi (Agriculture)	

Hozirgi paytda respublikamizda faoliyat yuritayotgan sertifikatlangan buxgalterlarning soni, malakasi, ularning axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish darajasi xalqaro talablar darajasiga to'liq mos keladi, deb bo'lmaydi. Aynan shu masalada respublikamizda faoliyat yuritayotgan buxgalterlarning malakasini oshirish va qayta tayyorlash bilan shug'ullanayotgan o'quv markazlarining soni jami xalqaro sertifikatga talabgorlarning soniga nisbatan 3 foizga ham yetmasligi muammo bo'lib turibdi. Yuqorida qayd etilgan Prezidentimiz Qarorining ijrosini ta'minlash uchun, avvalambor, mazkur o'quv markazlari xalqaro darajadagi ruxsatnomalarga ega bo'lishlari shart. Bu borada davlat tilida zarur o'quv-uslubiy

qo'llanmalarning ishlab chiqilmaganligi, amaldagi davlat tilida ishlab chiqilgan kompyuter dasturlarining mukammal emasligi masalaning dolzarbligini yana bir bor ta'kidlaydi. Buning ustiga respublikamiz mintaqalari va viloyatlarida internet tezligi pastligi hamda qamrovining torligi, bank, soliq, budjet, bandlikka ko'maklashish va ijtimoiy ta'minot organlarida qo'llanilayotgan kompyuter dasturlarining xilma-xilligi yagona konsolidatsiyalashgan axborot bazasini yaratishga to'sqinlik qiladi.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tishdagi yana bir muhim masala kadrlar tayyorlashdagi muammodir. Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimida buxgalter va auditorlar tayyorlashning bakalvriat yo'nalishi va magistratura mutaxassisliklari deyarli bir xil qolipda, namunaviy dastur va o'quv rejaga muvofiq mutaxassis tayyorlaydi. Respublikamizda iqtisodiyot tarmoqlari va sohalari kesimida oliy o'quv yurtlari mavjud bo'lishiga qaramasdan, ularning dasturlari va o'quv rejalari aynan tarmoqning xususiyatlarini ochib bera olmaydi, iste'molchining extiyojlarini ifoda qilmaydi. Fikrimizcha, mazkur oliy o'quv yurtlari va kasb-hunar kollejlari o'z yo'nalishlarini klaster tizimi asosida o'zlari mavjud bo'lgan makonda va zamonda, ya'ni real sektor tarmoqlari va sohalari, birlashmalari va korxonalari talabidan kelib chiqib, mutaxassis tayyorlasalar maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Masalaning yana bir muhim jihati, masalan, "Buxgalteriya hisobi va audit" bakalvriatura yo'nalishida o'qitiladigan fanlarning 10%i ham xalqaro ACCA, CIPA, CPA, DipIFR talablariga mos kelmaydi, buning natijasida bakalvriaturani to'rt yil davomida o'qib tamomlagan va diplomga ega bo'lgan yo'nalish sohibi qo'shimcha to'lov-shartnoma asosida tag'in 2-3 yil o'qishiga to'g'ri keladi. Bu esa bakalavr tayyorlashning nufuzini tushirib yuboradi va uning zarurligiga shubha tug'diradi. Bundan

ham achinarlisi, Prezidentimiz qarorida xalqaro buxgalter sertifikatiga ega bo'lgan talabgorlar oliy ta'lim muassasalari magistraturasining «Buxgalteriya hisobi» va «Audit» mutaxassisliklariga kirish imtihonlarini topshirmasdan to'lov-kontrakt asosida kirish huquqiga ega, deb belgilangan. Xo'sh, to'rt yil oliy ta'limning bakalavriaturasida ta'lim olgan talaba qanday qilib ACCAning 12 ta imtihonini qo'shimcha kontrakt asosida to'lashga va o'qishga ulguradi? Bizning taklifimizcha, oliy o'quv yurtlari va kasb-hunar kollejlarning o'quv dasturlari va o'quv rejalariga xalqaro dasturlardagi fanlarni kiritish orqali talabalarning o'quv davrini va o'qitish xarajatlarini ikki baravargacha qisqartirish imkoniyati mavjud. Bu bilan, bir tomondan, ta'limning xalqaro standartlar asosida amalga oshirilishi ta'minlansa, ikkinchi tomondan, moddiy, mehnat va moliyaviy mablag'larning tejalishiga erishiladi, ularning samaradorligi ortadi.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish chora-tadbirlarida belgilanganidek, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi 2020-yildan boshlab, davlat ulushi bo'lgan xo'jalik jamiyatlari va davlat korxonalarining MHXS asosida buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotni tayyorlashga o'tish jadvalini har yili tasdiqlashi belgilab qo'yildi. Shuningdek, 2020-yilning 1-iyuniga qadar uning rasmiy veb-saytida mazkur jadvalni e'lon qilinishini ta'minlash vazifasi qo'yilgan.

Mazkur hujjatga muvofiq, moliyaviy hisobotni ixtiyoriy ravishda MHXSga muvofiq tayyorlaydigan tadbirkorlik subyektlari buxgalteriya hisobining milliy standartlari bo'yicha moliyaviy hisobot taqdim etishdan ozod etiladi<sup>11</sup>. Shuni ta'kidlash joizki, ushbu bandeda keltirilgan vazifa amaldagi Buxgalteriya hisobining milliy standartlarini qanday tartibda moliyaviy hisobotning

---

<sup>11</sup> O'sha joyda.

xalqaro standartlari tamoyillari, usullari va mexanizmlariga moslashtirish zarur, degan masalani hal etishni talab qiladi.

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, AQSH, Yevropaning rivojlangan davlatlari va MDHda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tishda asosan uchta usuldan foydalaniladi:

1. Kompilyatsiya
2. Transformatsiya
3. Konsolidatsiya

Iqtisodchi olim S. Djumanov yuqoridagi masalalarni mushtarak va yagona holda talqin etadi va quyidagi ta'rifni keltiradi: "Moliyaviy axborot kompilyatsiyasi – moliyaviy axborotlarni to'plash, qayta ishlash va umumlashtirish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlariga binoan tuzilgan moliyaviy (buxgalteriya) hisobotini xalqaro standartlarga transformatsiya va konsolidatsiya qilish hamda ko'rsatiladigan qo'shimcha autsorsing xizmatlaridir. MHXSlar asosida moliyaviy hisobotni konsolidatsiya va transformatsiya qilish kompiyatsiyaning tarkibiy qismlari hisoblanadi"<sup>12</sup>

Xorijlik iqtisodiy manbalarda e'tirof etilishicha: "Moliyaviy hisobot kompiyatsiyasi – bu auditorlarga buxgalteriya hisobi va hisoboti sohasida ishonchli va haqqoniy aks ettirish bo'yicha xulosalarga kelish hamda moliyaviy hisobotni IAS, MHXS va AQSH GAAPlariga muvofiq ravishda tuzish va tayyorlashda taqdim etiladigan tajribalardir"<sup>13</sup>

Ko'pchilik olimlar moliyaviy hisobotni kompilyatsiya qilishni moliyaviy axborotlarning ishonchliligini tekshirish yoki moliyaviy hisobotni tuzishda buxgalterga yordam berish jarayonidagi xizmat turlaridan biri deb tushunadilar.

---

<sup>12</sup> Djumanov S. Moliyaviy hisobot axborotlarini xalqaro standartlar asosida kompilyatsiya qilish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. -T.: 2019., 6. 13.

<sup>13</sup> Compilation of Financial Information// <https://www.grantthornton.com>.

Xalqaro tajribani tadqiq etish natijasida kompilyatsiyaning maqsadi – auditor uchun, audit sohasidagi ekspert bilimlaridan foydalanish emas, balki buxgalteriya hisobi sohasidagi ekspert bilimlaridan foydalanish hisoblanadi, degan xulosaga kelishimiz o‘rinlidir.

Kompilyatsiya jarayonining muhim bosqichi “Moliyaviy holat to‘g‘risidagi hisobot” (Buxgalteriya balansini)ni transformatsiya qilish hisoblanadi. Zero, xo‘jalik subyektining moliyaviy holati, moliyaviy barqarorligi, moliyaviy mustaqilligi, majburiyatlarni qoplash imkoniyati to‘g‘risidagi axborot uning to‘lov qobiliyati va likvidligini baholashda zarur hisoblanadi.

Shuni qayd etish lozimki, moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlarga transformatsiya qilishning yagona retsepti yoki yo‘riqnomasi hozirgacha ishlab chiqilmagan. Tajribalar umumlashtirilib, mantiqiy xulosa chiqarish usuli bilan transformatsiya jarayonlarini quyidagi uchta kompleks tadbirlar guruhiga bo‘lish mumkin:

1. Hisobot davri boshiga va oxiriga tuzilgan taxminiy balans;
2. Buxgalteriya hisobining milliy standartlari asosida tuzilgan sintetik schyotlar qaydnomasi va Bosh daftarga tuzatuvchi yozuvlar qilish (korrektirovka).
3. Amaldagi buxgalteriya hisobvaraqlarini xalqaro standartlar talablari asosida yangidan guruhlash va transformatsiya jadvallarini tuzish.
4. Hisobot davri boshiga va oxiriga buxgalteriya balansini qayta tuzish.
5. Hisobot davri boshiga va oxiriga moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari bo‘yicha tuzilgan taxminiy balans.
6. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari bo‘yicha



tuzilgan buxgalteriya balans<sup>14</sup>

Bizning fikrimizcha, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish jarayonida outsorsing xizmatlaridan keng foydalanish zarur. Bu xizmat turi majburiy audit emas, balki tashabbus tarzidagi turdosh, daromad keltiruvchi qo'shimcha xizmat turi bo'lib, uni yuqori malakali buxgalterlar, sohaning ekspertlari va albatta, auditorlar amalga oshiradilar. Shu maqsadda respublikamizda amal qilayotgan xalqaro standartlardan foydalanish, jumladan, turdosh xizmatlarning xalqaro standartlarini qo'llash doirasi va vakolatlarini belgilovchi "Sifat nazorati, audit, ko'rib chiqish, ishonch bildirish va turdosh xizmatlarning xalqaro standartlariga muqaddima", shuningdek, 4410 "Moliyaviy hisobotlar kompilyatsiyasi bo'yicha kelishuvlar" nomli standartlarni joriy etish maqsadga muvofiqdir.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligining rasmiy sayti ([www.mf.uz](http://www.mf.uz)) ma'lumotlariga ko'ra, respublikamizda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini davlat tiliga tarjima qilish sohasida muayyan ishlar olib borilmoqda.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXSlar) Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari Kengashi (BHXS) tomonidan chiqarilgan Standartlar va Sharhlar bo'lib, ular to'rtta bo'limdan iborat:

- moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari;
- buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari;
- MHXSlarni Sharhlash bo'yicha Qo'mita (MHXSSHQ) tomonidan chiqarilgan Sharhlar;
- sharhlash bo'yicha Doimiy Qo'mita (SHDQ) tomonidan chiqarilgan Sharhlar.

---

<sup>14</sup> Djumanov S. Moliyaviy hisobot axborotlarini xalqaro standartlar asosida kompilyatsiya qilish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. -T.: 2019., 6. 15.

Iqtisodchi olim prof. S.Tashnazarov mazkur masalaga ta'rif berib, shunday yozadi: "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari – bu moliyaviy buxgalteriya hisobi va hisoboti fanining alohida tarmog'i bo'lib, moliyaviy hisobotning konseptual asoslari, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarining zaruriyati, ishlab chiqilishi, ularning mazmuni, interpretatsiyasi va qo'llanilishining metodologik masalalarini o'rganuvchi qismidir"<sup>15</sup>.

2-jadval

**Buxgalteriya hisobining milliy va xalqaro standartlari asosida schyotlarning turkumlanishini, solishtirma jadvali<sup>16</sup>**

Schetlar shifri	Amaldagi 21-son BHMS "Xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy-xo'jalik faoliyatining buxgalteriya hisobi schyotlari rejasi" bo'yicha	Schyotlar shifri	MHXS bo'yicha moliyaviy hisobot tayyorlaydigan xo'jalik subyektlari uchun taklif etilayotgan buxgalteriya hisobining namunaviy schyotlar rejasi
I QISM.	UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR	I QISM.	AKTIVLAR
I bo'lim.	Asosiy vositalar, nomoddiy va boshqa uzoq muddatli aktivlar	1-bo'lim.	Uzoq muddatli aktivlar
II QISM.	JORIY AKTIVLAR	2-bo'lim.	Qisqa muddatli aktivlar
II bo'lim.	Tovar moddiy zaxiralari	II QISM.	MAJBURIYATLAR
III bo'lim.	Kelgusi davr xarajatlari va kechiktirilgan xarajatlar - joriy qismi	3-bo'lim.	Qisqa muddatli majburiyatlar
IV bo'lim.	Olinadigan schyotlar - joriy qismi	4-bo'lim.	Uzoq muddatli majburiyatlar
V bo'lim.	Pul mablag'lari, qisqa muddatli investitsiyalar va boshqa joriy aktivlar	III QISM.	XUSUSIY KAPITAL
III QISM.	MAJBURIYATLAR	5.1-bo'lim.	Xususiy kapital
VI bo'lim.	Joriy majburiyatlar	5.2-bo'lim.	Nazorat kuchiga ega bo'lmagan ulushlar
VII bo'lim.	Uzoq muddatli majburiyatlar	IV QISM.	MOLIYAVIY NATIJALARNING SHAKLLANISHI

<sup>15</sup> Tashnazarov S.N. Moliyaviy hisobotning nazariy va metodologik asoslarini takomillashtirish (MHXS va ilg'or tajribalar asosida). Monografiya. T.: «Turon», 2017 y. -170-bet

<sup>16</sup> Muallif ishanmasi. [https://www.mf.uz/media/file\\_uz/buh-uchet/formaFO/uzb\\_plan.pdf](https://www.mf.uz/media/file_uz/buh-uchet/formaFO/uzb_plan.pdf)

## 2-jadvalning davomi

IV QISM.	XUSUSIY KAPITAL	6-bo'lim.	Daromadlar
VIII bo'lim.	Kapital, taqsimlanmagan foyda va rezervlar	7-bo'lim.	Xarajatlar
V QISM.	MOLIYAVIY NATIJALARNING SHAKLLANISHI VA ISHLATILISHI	8-bo'lim.	Yakuniy moliyaviy natija
IX bo'lim.	Daromadlar va xarajatlar	V QISM.	BALANS DAN TASHQARI SCHYOTLAR
VI QISM.	BALANS DAN TASHQARI SCHYOTLAR	9-bo'lim.	Balansdan tashqari schyotlar

Mamlakatimizda yuritilayotgan buxgalteriya hisobi va hisobotini xalqaro standartlarga moslashtirish hamda transformatsiya qilish hozirgi kunning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

Quyida buxgalteriya hisobining milliy va xalqaro standartlari asosida schyotlarning turkumlanishini qiyosiy tahlil qilamiz (2-jadval).

Jadvalning ko'rsatishicha, buxgalteriya hisobining milliy va xalqaro standartlari asosida schyotlarning turkumlanishini solishtirma tahlil qilganimizda amaldagi 21-son BHMS "Xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy-xo'jalik faoliyatining buxgalteriya hisobi schyotlari rejasi" 6 qism va 9 bo'limdan iboratligini ko'ramiz.

MHXS bo'yicha moliyaviy hisobot tayyorlaydigan xo'jalik subyektlari uchun taklif etilayotgan buxgalteriya hisobining namunaviy schyotlar rejasi esa 5 qism va 9 bo'limni tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligining tadbirkorlik subyektlari tomonidan MHXSlarini qo'llash jarayonida ularni tashkiliy-uslubiy jihatdan qo'llab-quvvatlash maqsadida quyidagilarni tayyorlagan:

- buxgalteriya hisobining namunaviy schyotlar rejasi;
- MHXS asosidagi moliyaviy hisobot shakllari.

Buxgalteriya hisobining namunaviy schyotlar rejasi tavsiyaviy xarakterga ega bo'lib, u asosida tadbirkorlik subyektlari tomonidan o'z faoliyati xususiyatini inobatga olgan holda, subyektning ishchi schyotlar rejasi tayyorlanishi mumkin.

MHXS asosidagi moliyaviy hisobot shakllari tadbirkorlik subyektlari tomonidan vakolatli organlarga, shu jumladan, soliq organlariga taqdim etish uchun to'ldiriladi. Iqtisodiyot va Moliya vazirligining xatiga binoan tadbirkorlik subyektlari foydalanuvchilariga zarur axborotlarni taqdim etish jarayonida moliyaviy hisobot shakllarini qo'shimcha satrlar bilan to'ldirishga haqli ekanliklari belgilab qo'yilgan<sup>17</sup>.

Hozirgi paytda MHXS bo'yicha Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan tavsiya qilingan schyotlar rejasidagi "Aktivlar" nomli qismning 1-bo'limi "Uzoq muddatli aktivlar" ning tarkibiy tuzilishi quyidagi ko'rinishga ega:

1000	Asosiy vositalar
1100	Nomoddiy aktivlar
1200	Investitsiya ko'chmas mulki
1300	Uzoq muddatli investitsiyalar
1400	Uzoq muddatli debitorlik qarzi
1500	Uzoq muddatli moliyaviy aktivlar
1600	Uzoq muddatli biologik aktivlar
1700	Geologik qidiruv va baholanadigan aktivlar
1800	Kechiktirilgan soliq aktivlari
1900	Boshqa uzoq muddatli aktivlar

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, aktivlarning turkumlanishida ularning tarkibiga: uzoq muddatli moliyaviy aktivlar, uzoq muddatli biologik aktivlar, geologik qidiruv va

---

<sup>17</sup> [https://www.mf.uz//media/file\\_uz/inform\\_sms/1.pdf](https://www.mf.uz//media/file_uz/inform_sms/1.pdf)

baholanadigan aktivlar, kechiktirilgan soliq aktivlari kabi hisobning yangi obyektlari kiritilgan.

Diqqatga sazovor masala shundan iboratki, yangi schyotlar rejasining deyarli har bir bo'limida rezervlar yaratish masalasiga asosiy e'tibor qaratilgan. Masalan, 1030-“Asosiy vositalarning qadrsizlanishi bo'yicha rezerv”, 1080-“Asosiy vositalarga kapital qo'yilmalarning qadrsizlanishi bo'yicha rezerv”. Mazkur masalalar hozirda amaliyotga kiritilayotgan BHXS (IAS) 36 “Aktivlarning qadrsizlanishi (Impairment of Assets)” bilan tartibga solib boriladi.

Ushbu standartning maqsadi, xo'jalik subyekti aktivlarining balans qiymati ularning qoplanadigan qiymatidan oshib ketmasligini ta'minlashga qaratilgan qoidalarni belgilab berishdan iborat. Agar aktivning balans qiymati undan foydalanish yoki uni sotish orqali qoplanadigan summadan ortiq bo'lsa, aktiv o'zining qoplanadigan qiymatidan ortiq summada hisobga olingan hisoblanadi. Agar ushbu holat yuz bersa, aktiv qadrsizlangan deb hisoblanadi va mazkur standart tashkilotdan qadrsizlanishdan zararni tan olishni talab etadi. Shuningdek, mazkur standart qadrsizlanishdan zararni qaysi payt qayta tiklanishi lozimligini va tashkilot tomonidan yoritib berilishi lozim bo'lgan ma'lumotlarni belgilaydi<sup>18</sup>.

BHXS (IAS) 36 “Aktivlarning qadrsizlanishi (Impairment of Assets)” standartining ayrim holatlarda istisno qiluvchi bandlari ham mavjud bo'lib, ulardan biri MHXS (IFRS) 5 “Sotish uchun mo'ljallangan uzoq muddatli aktivlar va tugatilgan faoliyat” standarti hisoblanadi. Unga muvofiq sotish uchun mo'ljallangan aktiv sifatida tasniflangan uzoq muddatli aktivlar yoki hisobdan

---

<sup>18</sup> 36-son Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti «Aktivlarning qadrsizlanishi». [https://www.mf.uz/uz/?option=com\\_content&view=article&id=970](https://www.mf.uz/uz/?option=com_content&view=article&id=970)

chiqariladigan aktivlar guruhlari shu standart talablari asosida hisobga olib boriladi.

Namunaviy schyotlar rejasining "Qisqa muddatli aktivlar" nomli

2-bo'limining xususiyatli jihati shundan iboratki, unda sotib olingan, o'zida ishlab chiqarilgan, savdo-tijorat maqsadlari uchun mo'ljallangan hamda tugallanmagan ishlab chiqarish qoldig'i bir joyda to'planganligini mantiqan to'g'ri, deb hisoblaymiz.

Bu subschyotlar balansga nisbatan aktiv bo'lib, (Zaxiralar qadrsizlanishi bo'yicha rezerv schyoti kontraktiv) ular kompaniyaning iqtisodiy resurslarini aks ettiradi. Ular quyidagilardir: 2010-Xomashyo va materiallar (A), 2020-Tugallanmagan ishlab chiqarish (A), 2030-Tayyor mahsulotlar (A), 2040 Tovarlar (A), 2050 Zaxiralarni qaytarish huquqi bo'yicha aktiv (A), 2060 Boshqa zaxiralar (A), 2070 Zaxiralar qadrsizlanishi bo'yicha rezerv (KA).

Fikrimizcha, tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlarini ushbu bo'limdan namunaviy schyotlar rejasining "Xarajatlar" nomli 7-bo'limiga ko'chirish maqsadga muvofiqdir, chunki tugallanmagan ishlab chiqarish – bu mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflangan haqiqiy xarajatlarning majmui bo'lib, u texnik nazorat bo'limi tomonidan tan olinmagan, texnik talablar va standartlarga hali javob bermaydigan, tayyor mahsulot holiga keltirilmagan va omborga kirim qilinmagan mahsulotdir.

Shuningdek, Namunaviy schyotlar rejasida 5.1-bo'lim "Xususiy kapital", 5.2-bo'lim "Nazorat kuchiga ega bo'lmagan ulushlar", 6-bo'lim "Daromadlar", 7-bo'lim "Xarajatlar", 8-bo'lim "Yakuniy moliyaviy natija", 9-bo'lim "Balansdan tashqari schyotlar" ko'rinishida tasniflangan.

Nazarimizda, mazkur namunaviy schyotlar rejasidagi 6-bo'lim "Daromadlar" va 7-bo'lim "Xarajatlar"ning dislokatsiyasini

o'zgartirish lozim. Buning sababi, xalqaro standartlarda tan olingan xalqaro Nobel mukofoti laureati V.Leontyevning "Xarajatlar – mahsulot hajmi – foyda" (CVP – cost – volume – profit) modeliga asosan, avval xarajatlar shakllantiriladi, keyin esa moliyaviy natijalar aniqlanadi. Shuningdek, schyotlar tizimidagi korrespondensiyalarni monitoring qilganimizda amaliyotda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonida aktivlar va kapital avanslanadi, majburiyatlar paydo bo'ladi, pirovardida, sotilgan mahsulot (ish va xizmatlar)dan daromadlar (turlari bo'yicha) kelib tushadi. Shundan so'ng xo'jalik subyektining yakuniy moliyaviy natijalari tranzit schyotlarda umumlashtirilib, taqsimlanmagan foyda yoki qoplanmagan zarar aniqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi tomonidan Namunaviy moliyaviy hisobot shakllari va "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida tayyorlanadigan moliyaviy hisobotning shakllarini to'ldirish bo'yicha ko'rsatma"ning ishlab chiqilganligi va muhokama uchun vazirlikning saytiga joylashtirilganligi mamlakatimizda MHXS bo'yicha hisobot tuzishda muhim qadam hisoblanadi.

Yuqoridagi me'yoriy hujjatga binoan moliyaviy hisobot quyidagi shakllarni o'z ichiga oladi:

Moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot;

Foyda yoki zarar va boshqa umumlashgan daromad to'g'risidagi hisobot;

Xususiy kapitaldagi o'zgarishlar to'g'risidagi hisobot;

Pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobot;

Moliyaviy hisobotga izohlar.

Mazkur ko'rsatmalarda moliyaviy hisobotda yoritib berilayotgan axborotlar milliy valyutada ko'rsatilishi belgilab qo'yilgan. Moliyaviy hisobotda netto-ko'rsatkichlar qiymati ming. so'mda o'ndan bir kasr bilan keltiriladi.

Har bir moliyaviy hisobot shakllari, shu jumladan, unga izohlar ushbu shakllar to'ldirilgan sana ko'rsatilgan holda tashkilot rahbari va buxgalteriya hisobi xizmati rahbari (bosh buxgalter)ning elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlanadi<sup>19</sup>.

## **1.2. Moliyaviy hisobotlarni taqdim etishning konseptual asosi, yangilangan standart(IAS, IFRS)larning ta'rifi va tavsifi**

Ma'lumki, hozirgi davrgacha jahondagi barcha davlatlar moliyaviy hisobot tuzish amaliyotida o'z hisob tizimi va hisob siyosatidan foydalanib kelinar edi. Masalan, Kanada GAAP, AQSH GAAP, O'zbekiston BHMS kabilar. Mazkur davlatlar o'z milliy hisob standartlari yoki MHXS asosida moliyaviy hisobot tayyorlash bo'yicha tajriba to'plagan.

Biroq jahon iqtisodiyotida kechayotgan globallashtirish jarayonlari xalqaro integratsiyalashuv va xalqaro hamkorlik qilish zaruratini keltirib chiqardi. Bu esa kompaniyalarning moliyaviy hisobot tuzish tamoyillari va qoidalarini ham uyg'unlashtirish va muvofiqlashtirishni kun tartibiga muhim masala qilib qo'yimoqda.

O'zbekistondagi aksiyadorlik jamiyatlari o'z aksiyalarini jahonning nufuzli birjalarida joylashtirishni istasa, u holda ham BHMS, ham MHXS bo'yicha hisobot tayyorlashga majbur bo'lar edi. Bu mehnat va xarajattalab jarayon bo'lib, takrorlashlar va tushunmovchiliklarga olib kelar edi.

Mazkur masalaning yechimi sifatida Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS)ni qo'llashga ehtiyoj paydo bo'ldi. Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari Kengashi(IASB) tomonidan ishlab chiqilayotgan va qo'llash uchun tavsiya

---

<sup>19</sup> [https://www.mf.uz/media/file\\_uz/buh-uchet/formaFO/uzb\\_msfo.docx](https://www.mf.uz/media/file_uz/buh-uchet/formaFO/uzb_msfo.docx)



etilayotgan ushbu standartlar jahonning 120 dan ortiq davlatlarida rasman qo'llanilishi qayd etilgan.

Shu munosabat bilan jahon mamlakatlari MHXS standartlarini to'lig'icha qabul qilish yoki o'z standartlarini mazkur MHXS standartlariga uyg'unlashtirish yo'lini tanlashlari lozim bo'ladi.

*Qabul qilish* – bu MHXS standartlarini to'lig'icha, yaxlit holda mazkur davlatning qonunchilik tizimiga kiritish demakdir. O'zbekistonda ham aksiyadorlik jamiyatlari, banklar va sug'urta kompaniyalari uchun MHXS larni qabul qilish jarayonlari boshlab yuborilgan. Hozirgi paytda MHXS standartlarini tarjima qilish va Adliya vazirligidan ro'yxatdan o'tkazish bosqichi amalga oshirilmoqda.

*Uyg'unlashtirish* – bu buxgalteriya hisobining milliy standartlarini saqlab qolgan holda ularni MHXS tamoyillari va qoidalariga moslashtirish hamda parallel ravishda rivojlantirish degan ma'noni anglatadi.

*Transformatsiya qilish* – bu buxgalteriya hisobining milliy standartlarini MHXSga to'liq yoki qisman o'tkazish (konversiya yo'li bilan parallel hisobot tayyorlash) jarayonlarini anglatadi.

Iqtisodiyot va Moliya vazirligining Buxgalteriya hisobi va audit uslubiyoti departamenti direktori Ibroxim Axmadxonovning ta'kidlashicha, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini qo'llash quyidagi afzalliklarga ega:

- moliyaviy hisobotlarni global taqqoslash imkonini beradi;
- transmilliy kompaniyalar uchun konsolidatsiyalash jarayonini yengillashtiradi;
- xaqlaro moliyalashtirish manbalariga chiqish imkonini beradi;

- xarajatlar tejaladi, IT tizimlarini qo'llash osonlashadi, ta'lim berish va kadrlarni qayta tayyorlash rivojlanadi<sup>20</sup>.

MHXSning tarkibiy tuzilishiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, u asosan uchta qismdan: Moliyaviy hisobot uchun Konseptual asos, Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (IAS yoki IFRS), Standartlarga tushuntirishlar va sharhlar (SIC yoki IFRIC)dan iborat.

"Moliyaviy hisobotlarni taqdim etishning konseptual asosi" Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari Kengashi tomonidan 2010-yil sentabrda e'lon qilingan. U 2018-yil mart oyida qayta ko'rib chiqilgan va qabul qilingan.

Amaldagi mazkur konseptual asos kirish va quyidagi boblardan tashkil topgan:

- konseptual asosning maqomi va maqsadi;
- umumiy tayinlangan moliyaviy hisobotlarni taqdim etishning maqsadi;
- foydali moliyaviy axborotning sifat tavsiflari;
- moliyaviy hisobot va hisobot beruvchi tashkilot;
- moliyaviy hisobot elementlari;
- tan olish va tan olishni bekor qilish;
- baholash;
- ma'lumotni taqdim etish va yoritib berish;
- kapital va kapitalni qo'llab-quvvatlash konsepsiyalari.

"Moliyaviy hisobotlarni taqdim etishning konseptual asosi" (Konseptual asos) umumiy maqsaddagi moliyaviy hisobotlarni taqdim etish maqsadi va tamoyillarini tavsiflaydi. Konseptual asosning maqsadi quyidagilardan iborat:

---

<sup>20</sup> I.Axmadxonov. Soliq maslahatchilari palatasi. Bir kunda MHXS. Taqdimot materiallari. T.:12.02.2021

-izchil tamoyillarga asoslangan MHXS standartlarini (Standartlar) ishlab chiqishda Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari Kengashiga (Kengash) ko'mak berish;

-muayyan operatsiya yoki boshqa hodisaga nisbatan qo'llanadigan standart mavjud bo'lmaganda yoki muayyan standartda hisob siyosatini tanlashga ruxsat berilganda, moliyaviy hisobot tayyorlovchilarga ko'mak berish;

-standartlarni tushunish va talqin qilishda barcha taraflarga ko'mak berish<sup>21</sup>.

Umumiy maqsaddagi moliyaviy hisobotlarni taqdim etish maqsadiga erishish uchun Kengash ba'zan Konseptual asosda bayon etilgan tamoyillarning ba'zi jihatlarini chetlab o'tadigan aniq talablarni belgilashi mumkin. Ushbu holatda Kengash bunday chetlab o'tish bo'yicha tegishli standartning xulosa qismida yoki Sharhlarda tushuntirish beradi.

3-jadval

**Moliyaviy hisobotlarni taqdim etishning konseptual asoslarida qayd etilgan moliyaviy hisobotning muhim elementlari<sup>22</sup>**

1-bobda ko'rib chiqilgan tushunchalar	Element	Ta'rif yoki tavsif
Iqtisodiy resurs	Aktiv	Avvalgi hodisalar natijasida tashkilot tomonidan nazorat qilinadigan mavjud iqtisodiy resurs. Iqtisodiy resurs bu iqtisodiy naf keltirish salohiyatiga ega bo'lgan mulk hisoblanadi.
Talab qilish huquqi	Majburiyat	Tashkilotning avvalgi hodisalar natijasida yuzaga kelgan iqtisodiy resursni o'tkazish bo'yicha mavjud javobgarligi.

<sup>21</sup> Moliyaviy hisobotlarni taqdim etishning konseptual asosi.

[https://www.mf.uz/ru/?option=com\\_content &view=article&id=279.](https://www.mf.uz/ru/?option=com_content&view=article&id=279)

<sup>22</sup> Moliyaviy hisobotlarni taqdim etishning konseptual asosi.

[https://www.mf.uz/ru/?option=com\\_content&view=article&id=279.](https://www.mf.uz/ru/?option=com_content&view=article&id=279)

3-jadvalning davomi

1-bobda ko'rib chiqilgan tushunchalar	Element	Ta'rif yoki tavsif
	Xususiy kapital	Tashkilotning barcha majburiyatlari chegirilgandan keyin uning aktivlaridagi qoldiq ulushi.
Faoliyatning moliyaviy natijalarini aks ettiradigan iqtisodiy resurslar va talab qilish huquqlaridagi o'zgarishlar	Daromadlar	Aktivlarning ko'payishi yoki majburiyatlarning kamayishi natijasida korxonaning o'z mablag'larini talab qiluvchilarning hissalariga bog'liq bo'lmagan o'z kapitalining ko'payishiga olib keladi.
	Xarajatlar	Xususiy kapitaliga nisbatan talab qilish huquqlari egalariga taqsimlashlar bilan bog'liq bo'lmagan xususiy kapitalning kamayishiga olib keladigan aktivlarning kamayishi yoki majburiyatlarning oshishi.
Iqtisodiy resurslar va talab qilish huquqlaridagi boshqa o'zgarishlar	-	Tashkilotning xususiy kapitaliga nisbatan talab qilish huquqlari egalarining badallari va ularga taqsimlashlar.
	-	Xususiy kapitalning oshishi yoki kamayishiga olib kelmaydigan aktivlar yoki majburiyatlarni ayriboshlash.

Konseptual asos Kengashning tajribasini inobatga olgan holda vaqti-vaqti bilan qayta ko'rib chiqilib, takomillashtirib boriladi. Konseptual asosning qayta ko'rib chiqilishi standartlarni butunlay o'zgartiradi degan ma'noni anglatmaydi.

Konseptual asos MHXS jamg'armasi va uning tarkibidagi Kengashning faoliyat yuritishiga xizmat qiladi. Mazkur faoliyatni amalga oshirishdan ko'zlangan maqsad, jahon moliya bozorlarining shaffofligi, hisobdorligi va samaradorligini ta'minlaydigan standartlarni ishlab chiqishdan iborat. Kengash faoliyati global iqtisodiyot yuritish sharoitida ishonch, iqtisodiy o'sish va uzoq muddatli moliyaviy barqarorlikni rag'batlantirish orqali jamiyat manfaatlarining qondirilishini ta'minlaydi.

Tadbirkorlik subyekti buxgalteriya hisobining hisoblash usulidan foydalanganida moliyaviy hisobot moddalarini aktivlar, majburiyatlar, kapital, daromadlar va xarajatlar (moliyaviy hisobotlar elementlari) sifatida tan oladi, qachonki ular

Konseptual asosda keltirilgan ushbu elementlarning ta'riflariga va tan olish mezonlariga mos kelsa<sup>23</sup>.

Konseptual asosda axborotni taqdim etish va yoritib berishning maqsadlari va tamoyillari sifatida quyidagilar keltirilgan:

1. Moliyaviy hisobot orqali samarali aloqaga ko'maklashish maqsadida standartlardagi axborotlarni taqdim etish va yoritib berishga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqishda quyidagilar o'rtasida muvozanatga rioya qilish zarur:

- tashkilotlarga o'zining aktivlari, majburiyatlari, xususiy kapitali, daromadlari va xarajatlarini ro'yi-rost taqdim etuvchi o'rinli axborotni tanlashda taqdim etilgan erkinlik;

- ham bitta tashkilot doirasida turli davrlarda, ham bir davrda, biroq turli tashkilotlar o'rtasida qiyosiy hisoblanadigan axborotni taqdim etish talabi.

2. Axborotni taqdim etish va yoritib berish maqsadlarini standartlarga kiritish moliyaviy hisobot orqali samarali aloqaga ko'maklashadi, chunki bunday maqsadlar tashkilotlarga foydali axborotning ishonchliligini ta'minlash va aloqaning eng samarali usulini tanlashga yordam beradi.

3. Moliyaviy hisobot orqali samarali aloqa quyidagi tamoyillarni qo'llash hisobiga ham ta'minlanadi:


- tashkilot uchun xos bo'lgan axborot ba'zan "namuna" deb nomlanadigan standart ta'riflarga qaraganda ancha foydali hisoblanadi;

- axborotni moliyaviy hisobotning turli qismlarida takrorlash odatda, talab etilmaydi va moliyaviy hisobotning kamroq tushunarli bo'lishiga olib kelishi mumkin.

---

<sup>23</sup> «Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish» nomli 1-sonli Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti [https://www.mf.uz/ru/?option=com\\_content&view=article&id=279](https://www.mf.uz/ru/?option=com_content&view=article&id=279)

Buxgalteriya hisobining milliy standartlaridan MHXSni qo'llashga o'tishda ilk bora MHXSga asosan moliyaviy hisobotlar tuzilishi lozim.



1-rasm. Moliyaviy hisobot shakllarini mazmuni va tarkibiy qismlari bo'yicha tasniflash.

Bu hisobot keyingi hisobot davrlari uchun tuziladigan hisobotlardan biroz farq qiladi.

MHXS (IFRS) 1 "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini birinchi marta qo'llash" nomli standartga binoan birinchi marta moliyaviy hisobotlar tuziladi.

MHXS bo'yicha birinchi moliyaviy hisobotni tayyorlashdan avval quyidagi bosqichlarni amalga oshirish zarur:

MHXS bo'yicha mukammal va to'liq bilimga ega bo'lish;

MHXS bo'yicha korxonaning hisob siyosatini shakllantirish lozim;

BHMS va MHXS o'rtasidagi umumiy va xususiy jihatlarni aniq belgilash;

MHXS (IFRS) 1 "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini birinchi marta qo'llash" standarti haqida batafsil axborotga ega bo'lish va uni qo'llash bo'yicha uslubiy ko'rsatma tayyorlash (transformatsiya jadvallari, hisob registrlari, dasturiy ta'minot va h.k.).

MHXS (IFRS) 1 "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini birinchi marta qo'llash" standartining asosiy xususiyati shundan iboratki, birinchi moliyaviy hisobotlarni tuzishda barcha MHXSlardan retrospektiv (orqaga qaytish) usuli asosida foydalaniladi. Misol uchun, MHXS bo'yicha birinchi moliyaviy hisobotni 2021-yilning 31-dekabr holatiga tuzganimizda, moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotni uchta sanaga taqsimlab taqdim etish maqsadga muvofiq. Bular: o'tish sanasi – 2020-yil 1-yanvar; qiyosiy davrning oxiri – 2020-yil 31-dekabr; birinchi hisobot davrining oxiri – 2021-yil 31-dekabr.

MHXSlardan retrospektiv usulda foydalanish deganda ularni doimiy, odatdagidek holatda qo'llash tushuniladi. Yuqoridagi rasmda keltirilganidek, 01.01.2020 sanasidagi moliyaviy hisobot ko'rsatkichlari korxonada tashkil etilgandan boshlab, MHXS qo'llanilgan sanagacha qanday ko'rinishda aks ettiriladi, degan masalani hal qilish retrospektiv usulni qo'llashning maqsadi hisoblanadi (2-rasm).

<b>O'tish sanasi</b>	<b>Qiyosiy davrning oxiri</b>	<b>Birinchi hisobot davrining oxiri</b>
• 01.01.2020	• 31.12.2020	• 31.12.2021

**2-rasm. MHXS 1 asosida birinchi marta moliyaviy hisobotlarni tuzishda barcha MHXSlardan retrospektiv (orqaga qaytish) usuli asosida foydalanish.**

Shuni ta'kidlash lozimki, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini amaliyotga tatbiq etish jarayonida barcha standartlar bo'yicha retrospektiv usulni qo'llashning imkoniyati mavjud emasligi sababli, MHXS 1 standarti bu sohada ba'zi bir istisno va imtiyozlarni taqdim etadi.

Investitsiya ko'chmas mulki - bu quyidagi maqsadlarni istisno qilgan holda, ijara to'lovlarini olish yoki kapital qiymatining oshishi yoki har ikki maqsad uchun mo'ljallangan (ko'chmas mulk egasi tomonidan yoki foydalanish huquqidagi aktiv sifatida ijarachi tomonidan tutib turiladigan) ko'chmas mulkdir (yer yoki bino (yoki binoning bir qismi), yoki har ikkalasi):

(a) ishlab chiqarish yoki tovarlar yetkazib berish yoki xizmatlar ko'rsatishda yoki ma'muriy maqsadlarda foydalaniladigan; yoki

(b) odatdagi faoliyat doirasida sotish uchun mo'ljallangan.

Egasi foydalanadigan ko'chmas mulk - bu (ko'chmas mulk egasi yoki foydalanish huquqidagi aktiv sifatida ijarachi tomonidan) ishlab chiqarish yoki tovarlar yetkazib berish yoki xizmatlar ko'rsatishda yoki ma'muriy maqsadlarda foydalanish uchun mo'ljallangan ko'chmas mulkdir<sup>24</sup>.

<sup>24</sup> 40-son BHXS «Investitsiya ko'chmas mulki». [https://www.mf.uz/uz/?option=com\\_content&view=article&id=970](https://www.mf.uz/uz/?option=com_content&view=article&id=970)



Ushbu standartda 16-son BHXS “Asosiy vositalar” o‘z mulkida bo‘lgan egasi foydalanadigan ko‘chmas mulkka nisbatan qo‘llanadi, 16-son MHXS “Ijara” esa foydalanish huquqidagi aktiv sifatida ijarachi tomonidan tutib turiladigan egasi foydalanadigan ko‘chmas mulkka nisbatan qo‘llanadi.

Amaliyotda mulkka nisbatan 3 xil huquq mavjud:

1. Egalik huquqi 16-son BHXS “Asosiy vositalar”.
2. Tasarruf etish huquqi 16-son BHXS “Asosiy vositalar”.
3. Foydalanish huquqi (16-MHXS “Ijara”).

Xulosa qilganimizda, mamlakatimizda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bevosita uning konseptual asoslari, tamoyillari, tushunchalari va elementlarini chuqur mushohada qilishni, uni milliy iqtisodiyotimiz xususiyatlari va talablaridan kelib chiqqan holda amaliyotga joriy etishni o‘z ichiga qamrab olgandagina iqtisodiy samaraga erishish imkoniyati mavjud bo‘ladi.

### **1.3. Moliyaviy hisobot tahlilining hozirgi holati va uni rivojlantirish yo‘nalishlari**

Mazkur paragrafda davlat ishtirokidagi korxonalarining moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini baholashda moliyaviy tahlilning usullaridan samarali foydalanish masalalari tadqiq etilgan. Bu korxonalarining moliyaviy holati tahlilini o‘tkazishning amaliyoti qiyosiy tahlil qilinib, mavjud ayrim koeffitsiyentlarning sun‘iy bankrotlikka olib kelishi ehtimoli aniqlanib, uni takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan. Xususan, rivojlangan mamlakatlardagi iqtisodiy nochorlikni baholash va bankrotlikdan chiqarish modellari solishtirilib, respublikamiz iqtisodiyoti uchun maqbul modelni tanlash bo‘yicha ilmiy takliflar berilgan.

Davlatimiz rahbari tomonidan davlat ulushiga ega 3 mingga yaqin korxonani inventarizatsiya qilish zarurligini, xususiy sektor va raqobat rivojlanib borayotgan sohalarda davlatning ishtirokini keskin kamaytirish borasida aniq vazifalar belgilab berilgan edi. Bu muhim vazifalarni ijro etish maqsadida respublikamizdagi 2965 ta davlat ishtirokidagi korxonalar faoliyati tanqidiy o'rganilib, davlat mulkini boshqarishni takomillashtirish bo'yicha takliflar shakllantirildi. Jumladan, agentlik tomonidan davlat aktivlarini samarali boshqarish, iqtisodiyotda davlat ishtirokini keskin kamaytirish, korporativ boshqaruvning zamonaviy usullarini joriy etishga qaratilgan 9 ta normativ-huquqiy hujjat loyihasi ishlab chiqilgan va umumxalq muhokamasiga qo'yilgan. Bu hujjatlar bilan 2020-2025-yillarda O'zbekiston Respublikasi-ning Davlat ishtirokidagi korxonalarga egalik qilish, ularni boshqarish va isloh qilish strategiyasini tasdiqlash nazarda tutilmoqda. Iqtisodiyotdagi davlat ishtirokining aniq mezonlari belgilanmoqda. Natijada mamlakat tarixidagi yirik xususiylashtirish dasturi tasdiqlanishi kutilmoqda. Mazkur dasturga binoan 1115 ta davlat ulushi mavjud bo'lgan korxonalar xususiy sektorga sotilishi rejalashtirilgan<sup>25</sup>.

Yuqoridagi dolzarb va muhim vazifalarni amalga oshirish O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasida ta'kidlanganidek, yirik sanoat korxonalarida yangi investitsion loyihalarni amalga oshirish bilan birga, ushbu korxonalarni xalqaro moliya bozorining to'laqonli ishtirokchisiga aylantirish vazifasi qo'yilgan<sup>26</sup>.

---

<sup>25</sup> Respublikamizda 1115 korxonalar va tashkilotlar davlat ulushlari to'liq sotiladi (Infografika). 2020-yil 13-mart. [www.xs.uz/uzkr/post/respublikamizda-1115-korxonalar-va-tashkilotlar-davlat-ulushlari-toliq-sotiladi-infografika](http://www.xs.uz/uzkr/post/respublikamizda-1115-korxonalar-va-tashkilotlar-davlat-ulushlari-toliq-sotiladi-infografika).

<sup>26</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. 2020 yil 24 yanvar. [www.president.uz/uz/lists/view/3324](http://www.president.uz/uz/lists/view/3324).

Buning uchun 2020-yilda xalqaro standartlar asosida moliyaviy hisobotlarni tuzish, zaxiralarni qayta hisoblash, korporativ oshkoralik tamoyillarini tatbiq etish kabi ishlarni yakunlash zarurligi belgilab qo'yilgan.

Mamlakatimizda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish chora-tadbirlarida belgilanganidek, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi 2020-yildan boshlab, davlat ulushi bo'lgan xo'jalik jamiyatlari va davlat korxonalarining MHXS asosida buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotni tayyorlashga o'tish jadvalini har yili tasdiqlashi belgilab qo'yildi. Shuningdek, 2020-yilning 1-iyuniga qadar uning rasmiy veb-saytida mazkur jadvalning e'lon qilinishini ta'minlash vazifasi qo'yilgan<sup>27</sup>.

Prof. Pardayev M.Q.ning fikricha, moliyaviy barqarorlik koeffitsiyentlari guruhi kompaniya egalari va kreditorlar o'rtasidagi tavakkalchilikning qanday taqsimlanganligini ko'rsatadi. Unda moliyaviy qaramlik va moliyaviy mustaqillik, aktivlarning qaramlik koeffitsiyenti, foizni qoplash koeffitsiyenti kabi koeffitsiyentlardan foydalanish taklif qilingan<sup>28</sup>.

Iqtisodchi olim B.J.Xakimov korxonalarining jami aktivlari tarkibida pul mablag'lari eng muhim moliyaviy aktiv sifatida tan olinishini e'tirof etadi. Demak, korxonaning tezkor likvidligi, ya'ni joriy aktivlari bilan joriy majburiyatlarini qoplash koeffitsiyenti aynan pul mablag'lariga bog'liq bo'lgan muhim iqtisodiy ko'rsatkichdir<sup>29</sup>.

---

<sup>27</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida». 2020-yil 24-fevral. [www.uza.uz/oz/documents/moliyaviy-isobotning-khal-aro-standardlariga-tish-b-yicha-sh-25-02-2020](http://www.uza.uz/oz/documents/moliyaviy-isobotning-khal-aro-standardlariga-tish-b-yicha-sh-25-02-2020)

<sup>28</sup> Paradaev M.Q., Isroilov J.I., Isroilov B.I. Iqtisodiy tahlil. O'quv qo'llanma. – T, 2017. b. 279

<sup>29</sup> Xakimov B., Xolmirzayev U. Pul mablag'lari hisobi va tahlilini xalqaro tajribalar asosida takomillashtirish. «Xalqaro moliya va hisob» ilmiy elektron jurnali. № 1, fevral, 2020-yil., [www.interfinance.uz/en/](http://www.interfinance.uz/en/)

Shuni ta'kidlash lozimki, korxonalarda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini joriy etish, ularni bankrotlikdan chiqarish va moliyaviy sog'lomlashtirish modelining tanlab olinishiga bevosita bog'liqdir. Xalqaro tajribani tadqiq etish natijalarining guvohlik berishicha, hozirgi kunda iqtisodiy nochor korxonalarni sog'lomlashtirishni me'yoriy-huquqiy tartibga solish bo'yicha jahonda 2 ta yo'nalish amal qilmoqda: birinchi yo'nalishning mohiyati shundan iboratki (AQSH, Fransiya va boshqa davlatlarda), bankrotlikka oid huquq normalarida nochor ahvolga tushgan korxonani imkon qadar saqlab qolib, uni moliyaviy sog'lomlashtirishga ko'proq e'tibor beriladi. Bunday tajriba respublikamiz iqtisodiyotida qo'llanilgan bo'lib, iqtisodiy nochor korxonalar tijorat banklarining balansiga o'tkazilib, ularni moliyaviy sog'lomlashtirish chora-tadbirlari ko'rilgan.

Qonunchilikdagi ikkinchi yo'nalish bo'yicha (Angliya, Germaniya va boshqa davlatlarda) bankrotlikka oid qonunchilikning mohiyati asosan nochor ahvolga tushgan korxonani tezroq tugatib (bankrot qilib), uning kreditorlari qarzini qaytarishga qaratilgan bo'ladi<sup>30</sup>.

Mazkur tajribadan iqtisodiyotimizning hozirgi rivojlanish davrida foydalanish mo'ljallanmoqda. Bunda korxonalarni qayta tashkil qilish, ularning mulk shaklini o'zgartirish, xususan xorijiy investitsiyalarni jalb etish bo'yicha strategik rejalar tuzilmoqda.

Moliyaviy ahvoli nochor bo'lgan va moliyaviy sog'lomlashtirilishi talab etiladigan korxonalarining moliyaviy holatini tahlil qilish uchun hukumatimizning amaldagi qaroriga binoan quyidagi asosiy ko'rsatkichlar (mezonlar) qo'llaniladi<sup>31</sup>:

---

<sup>30</sup> Iqtisodiyot subyektlari moliyaviy holatining tahlili. O'quv qo'llanma Raximov M.Yu. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Toshkent Moliya instituti. - T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2013. b. 252-256

<sup>31</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. Davlat ishtirokidagi korxonalarni moliyaviy sog'lomlashtirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-

- to'lov qobiliyati yoki qoplash koeffitsiyenti;
- o'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanganlik koeffitsiyenti;
- aktivlar va xarajatlarning rentabellik koeffitsiyenti.

Shuningdek, quyidagi qo'shimcha ko'rsatkichlardan ham foydalanish tavsiya etilgan:

-o'z va qisqa muddatli qarz mablag'larining nisbat koeffitsiyenti;

- ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish koeffitsiyenti;
- asosiy vositalarning eskirish koeffitsiyenti.

Xalqaro amaliyotga nazar soladigan bo'lsak, indoneziyalik iqtisodchilar E.Endri, A.Sumarno, H.Saragilar kompaniyaning oziq-ovqat va ichimliklar tarmog'idagi moliyaviy ko'rsatkichlarini aniqlash maqsadida tadqiqot olib borishgan. Ushbu tadqiqotning yo'nalishi moliyaviy ko'rsatkichlar tahlili bo'lib, unda to'rtta turdagi moliyaviy koeffitsiyentlarni qo'llash tavsiya etilgan, xususan, likvidlik koeffitsiyentlari: sof aylanma kapital; joriy likvidlik koeffitsiyenti; tezkor likvidlik koeffitsiyenti va mutlaq likvidlik koeffitsiyenti, shuningdek, to'lov qobiliyati koeffitsiyentlari, rentabellik ko'rsatkichlari va bozor faolligi koeffitsiyentlari<sup>32</sup>.

To'lov qobiliyati (qoplash) koeffitsiyenti korxonaning baholanuvchi qisqa muddatli majburiyatlarini to'lash imkoniyatlariga egaligini ko'rsatadi. Koeffitsiyentning kamayishi korxonaga to'lov imkoniyatlarining pasayganligini ko'rsatadi.

Iqtisodchi olim M.Raximov, to'lov qobiliyati (qoplash) koeffitsiyentini joriy likvidlik darajasi koeffitsiyenti (Kl) deb

---

tadbirlari to'g'risida. 2018 yil 14 dekabr, 1013-son. 2-ilova. Davlat ishtirokidagi korxonalarining moliyaviy-iqtisodiy holati tahlilini o'tkazish reglamenti. [www.lex.uz/docs/4106617](http://www.lex.uz/docs/4106617)

<sup>32</sup> Analysis of Financial Performance: Evidence from Food and Beverage Companies in Indonesia. E.Endri, A.Sumarno, H.Saragi. International Journal of Advanced Science and Technology, Vol. 29, No. 5, (2020), pp. 4199 - 4208. [www.scopus.com](http://www.scopus.com)

nomlagan va uni aniqlash uchun oborot aktivlarni joriy majburiyatlarga bo'lishni taklif etgan. Bunda muallifning "joriy aktivlar likvidligi" atamasini qo'llaganligi iqtisodiy mohiyatiga ko'ra formulaning mazmunini o'zida to'liq aks ettirgan<sup>33</sup>.

Koeffitsiyent quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$T_{qk} = \frac{\text{Joriy (aylanma) aktivlar}}{\text{Joriy majburiyatlar - uzoq muddatli majburiyatlar}} = \frac{A_2}{P_2 - U_{mm}},$$

bunda:

$A_2$  — joriy (aylanma) aktivlar (ishlab chiqarish zaxiralari, tayyor mahsulot, pul mablag'lari, debitorlik qarzlari va boshqalar), balans aktivining II bo'lim, 390-satri;

$P_2$  — majburiyatlar, balans passivining II bo'lim, 770-satri;

$U_{mm}$  — uzoq muddatli majburiyatlar, balans passivining II bo'lim, 490-satri.

To'lov qobiliyati koeffitsiyentining eng past nuqtasi (mezoni) hisobot davri yakunida 1,25 koeffitsiyentdan kam bo'lsa, korxonaga to'lovga qodir emas, deb baholanadi.

Fikrimizcha, amaldagi nizom va reglament bo'yicha esa bu atamaning "to'lov qobiliyati" deb nomlanishi o'z mohiyatini to'liq ochib berolmaydi, deb o'ylaymiz. Buning boisi, to'lov qobiliyati nafaqat joriy, balki uzoq muddatli aktivlar bo'yicha ham to'lovlarni o'z ichiga qamrab olishi bilan izohlanadi.

Aktivlar va xarajatlarning rentabellik koeffitsiyenti korxonaning moliya-xo'jalik faoliyatining foydalilik (zararlilik) darajasini ko'rsatadi.

<sup>33</sup> Iqtisodiyot subyektlari moliyaviy holatining tahlili. O'quv qo'llanma. Raximov M.Yu. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Toshkent Moliya instituti. - T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2013. b. 252-256

Mamlakatimizda xalqaro amaliyotni inobatga olgan holda aktivlar rentabelligi koeffitsiyenti hisobot yili yakuniga ko'ra quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$A_{rk} = \frac{S_{rf}}{O'_b}, \text{ bunda:}$$

$S_{rf}$  – soliq to'lagunga qadar foyda;

$O'_b$  — balans aktivi yoki passivining jami summasi.

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, yuqoridagi formulani hisobot yilining sof foydasi (taqsimlanmagan foyda)ga nisbatan hisoblash bu koeffitsiyentning aniqligini oshirishini va korxonada ixtiyorida qoladigan qayta investitsiyalash yoki iste'mol jamg'armasini shaffof holda ko'rsatib beradi, chunki soliq to'laguncha bo'lgan foyda bu hali korxonaning rentabelligini to'laqonli o'zida mujassam eta olmaydi.

Agar hisobot davri uchun rentabellik koeffitsiyentlari noldan past (manfiy ko'rsatkich) chiqsa, korxonada zarar ko'rib ishlayotgan; 0,05 dan past chiqsa, korxonada past rentabelli (monopol korxonalaridan tashqari) hisoblanadi.

Prof. B.A.Xasanovning taklificha, aktivlar rentabelligini aniqlash bozor munosabatlari sharoitida juda muhimdir. Buning uchun qimmatli qog'ozlarning ikkilamchi bozorini rivojlantirish zarur, chunki rivojlangan mamlakatlarda kapital rentabelligi aksiyadorlik kapitalining rentabelligi bilan o'lchanadi. Uni hisoblash uchun muallif Dyupon formulasi va piramidasidan foydalanishni taklif qiladi. Bunga ikkita omil ta'sir qiladi. Birinchi omil kapitalning daromadliligi bo'lsa, ikkinchi omil kapitalning aylanuvchanlik koeffitsiyenti hisoblanadi<sup>34</sup>.

---

<sup>34</sup> Calculation of the invested capital profitability in the financial condition analysis process. Khasanov B.A., Mukumov Z.A., Alikulov A.I., Djumanova A.B., Eshboev U.T.,

Xo'jalik yurituvchi subyektlar rentabelligini hisoblashni uning mol-mulkiga va kapitaliga nisbatan hisoblashni prof.Akramov E.A., To'laxo'jayeva M.M., Li A.N. va boshqalar ham tavsiya qilishgan. Ushbu formula quyidagi ko'rinishga ega<sup>35</sup>:

$$\text{Korxonaga tegishli kapitlaning rentabellik koeffitsiyenti} = \frac{\text{Korxonaning sof foydasi}}{\text{Korxonaga tegishli kapitlaning o'rtacha qiymati}}$$

O'z va qisqa muddatli qarz mablag'larining nisbat koeffitsiyenti (joriy moliyaviy mustaqillik) qarz mablag'larini o'z mablag'lari manbalari bilan qoplash(qaytarish) darajasini belgilaydi.

Mazkur koeffitsiyent quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$O'_{qk} = \frac{P_1}{P_2 - U_{mm}}$$

$O'_{qk}$  - o'z va qisqa muddatli qarz mablag'larining nisbat koeffitsiyenti;

$P_1$  — o'z mablag'larining manbalari (ustav kapitali, zaxira kapitali, qo'shimcha kapital, taqsimlanmagan foyda va boshqalar) balans passivining I bo'lim, 480-satri;

$P_2$  — majburiyatlar, balans passivining II bo'lim, 770-satri;

$U_{mm}$  — uzoq muddatli majburiyatlar, balans passivining II bo'lim, 490-satri.

Ushbu koeffitsiyent hisobot davri yakunida 1 dan past qiymatga ega bo'lsa, bunda korxonaning moliyaviy ahvoli barqaror emasligi ma'lum bo'ladi. Shu o'rinda ta'kidlash zarurki, amaldagi buxgalteriya hisobining yuritilishi balansning passiv

Hasanova R.B. International Journal of Advanced Science and Technology, Vol. 28, No. 14, (2019), pp. 42-48. www.scopus.com

<sup>35</sup> Akramov E.A. Korxonalarining moliyaviy holati tahlili. O'quv q'llanma. – T., 2007. 6.97



tomonidagi I bo'limda aks ettirilgan "ustav kapitali"ning doimiy o'sib borishiga mos kelmaydi. Buning sababi, korxonaning ustav kapitali u tashkil etilgan vaqtda shakllantiriladi va keyingi davrlarda asosiy hamda aylanma kapitalning ko'payishiga yoki kamayishiga ta'sir ko'rsatmaydi. Bunda korxonaning joriy majburiyatlari doimiy sur'atda o'sib borish tendentsiyasiga ega bo'ladi, uning Ustav kapitali esa o'zgarmas bo'lib qolaveradi. Demak, Nizomda tavsiya qilingan mazkur ko'rsatkich belgilangan mezondan past chiqaveradi, o'z navbatida, korxonada sun'iy bankrot holatida bo'ladi va uni tugatishga (tarkibiy o'zgartirishga) sabab bo'ladi.

Xulosa qilganimizda, amaldagi "Davlat ishtirokidagi korxonalarining moliyaviy-iqtisodiy holati tahlilini o'tkazish reglamenti"da korxonada to'lov qobiliyatini hisoblashning faqat bitta usuli, ya'ni mutlaq to'lov qobiliyatini aniqlash usuli keltirilgan, ammo tezkor va joriy likvidlik koeffitsiyentlari inobatga olinmagan. Natijada korxonaning moliyaviy holati uning qiyin sotiladigan aylanma mablag'lari va undirilishi dargumon bo'lgan debitorlik qarzlarga bog'liq bo'lib qolmoqda, buning oqibatida korxonalar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar qarzdorlik zanjiriga aylanib ketmoqda. Shu munosabat bilan xalqaro ekspertlar tomonidan tavsiya qilingan mutlaq va joriy likvidlik koeffitsiyentlarini hisoblashni amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlarga kiritishni taklif etamiz.

2. Moliyaviy barqarorlik koeffitsiyentini aniqlashda hozirgi paytda amaliyotda qo'llanilayotgan soliq to'laguncha bo'lgan foydani xarajatlarning jamiga bo'lib topish usuli tavsiya qilingan. Biroq bu usul xarajatlarni boshqarishga qaratilgan bo'lib, u mulkdan samarali foydalanish borasidagi ko'rsatkichlarni o'zida aks ettirmaydi. Shuni inobatga olib, korxonalarda samaradorlikni hisoblashda asosiy va aylanma mablag'lar (kapital) rentabelligi

ko'rsatkichidan foydalanishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Moliyaviy hisobot tahlilining hozirgi holatini tadqiq etish natijasida uni rivojlantirish yo'nalishlarini quyidagi tarkibiy qismlarga ajratish lozimligini ta'kidlaymiz:

1. Moliyaviy holat tahlili.
2. Moliyaviy barqarorlik tahlili.
3. Moliyaviy natijalar tahlili.
4. Bankrotlikni bashoratlash va sanatsiya tahlili.
5. Moliyaviy hisobot axborotlari asosida strategik prognozlash va modellashtirish.

Moliyaviy hisobot tahlilining muhim jihatlariga tadqiqot ishining keyingi boblari va paragraflarida to'xtalib o'tamiz.

### **Birinchi bob bo'yicha xulosa**

Mazkur bob bo'yicha xulosa qilganimizda, xo'jalik yurituvchi subyektlarda moliyaviy hisobot tuzish va uni tahlil qilishning nazariy-uslubiy hamda tashkiliy asoslari sohasida chuqur ilmiy-tadqiqotlar olib borish zarur.

O'zbekistonda moliyaviy hisobotning milliy tizimini xalqaro standartlarga transformatsiya qilishning zarurati mamlakatimizning jahon bozoriga integratsiyalashuvi va iqtisodiyotning globalashuvi investorlar, mulkdorlar, davlat idoralari va moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilar uchun ishonchli va tezkor axborot bilan ta'minlashni talab qilishi orqali belgilanadi. Bu boradagi xorijiy tajriba va iqtisodchi olimlarning asarlarini tahlil qilish natijasida moliyaviy hisobot shakllarini xalqaro standartlarga transformatsiya qilishda konsolidatsiya va konversiya usullari, shuningdek, to'liq o'tish yoki uyg'unlashtirish (garmonizatsiya qilish) usullaridan foydalanishning afzalliklari va kamchiliklari qiyosiy tahlil etilgan.

Istiqbolda mamlakatimiz iqtisodiyotiga MHXSlarni to'liq joriy etish, shu maqsadda tadqiqot ishida namunaviy schyotlar rejasi va moliyaviy hisobot shakllari tavsiya etilgan.

Moliyaviy hisobotlarni taqdim etishning konseptual asosi tahlil etilib, yangilangan standart (IAS, IFRS)larning mazmun-mohiyati va qo'llanish doirasi, ularning ta'rifi va tavsifi rasmlar hamda jadvallar yordamida yoritilgan.

Tadqiqot ishida 2022-yil 1-yanvar holatiga amal qilayotgan xalqaro standart (IAS va IFRS)lar taqqoslangan, ularning qo'llanilish doirasi aniqlangan va xususiyatlari yoritib berilgan.

Xususan, MHXS (IFRS) 1 "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini birinchi marta qo'llash" standarti haqida batafsil axborotga ega bo'lish va uni qo'llash bo'yicha uslubiy ko'rsatma tayyorlash (transformatsiya jadvallari, hisob registrlari, dasturiy ta'minot va h.k.) muhimligini tan olib, MHXS bo'yicha birinchi moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotni uchta sanaga taqsimlab, ya'ni o'tish sanasi, qiyosiy davrning oxiri, birinchi hisobot davrining oxiri ko'rinishida taqdim etish maqsadga muvofiqligi asoslangan.

Moliyaviy hisobot tahlilining hozirgi holati shuni ko'rsatadiki, xo'jalik subyektlari faoliyatini kompleks joriy va istiqbolli tahlili amalga oshirilmayotganligi sababli samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishga imkoniyat yaratilmayapti. Vaholanki, xalqaro tajribada buxgalterlarning 86%i mehnat sarfi tahliliy jarayonlarga sarflanishini ko'rishimiz mumkin. Shuning uchun xo'jalik subyektlarida istiqbolli iqtisodiy tahlil bo'limlari va byurolari tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

O'tkazilgan tadqiqot natijalari amalda yuritilayotgan moliyaviy hisob va hisobotni xalqaro standartlarga o'tkazishga, uning nazariy hamda uslubiy jihatlarini takomillashtirishga imkoniyat yaratadi.

## **II BOB. MOLIVAVIY HISOBOTNING ASOSIY SHAKLLARI VA ELEMENTLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

### **2.1. Moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotni tuzish va taqdim etish usullarini takomillashtirish**

Mazkur paragrafda moliyaviy hisobot tuzish va taqdim etishning xalqaro jihatlari O'zbekistonning milliy standartlari bilan uyg'unlikda qiyoslangan. Unda jahon va respublikamizdagi mavjud amaliyotni tadqiq etish natijasida masalaning uslubiy, tashkiliy va amaliy jihatlari yoritish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Mamlakatimiz iqtisodiyotining globallasuvi va xalqaro bozorlarga kirib borishi, davlatimiz rahbari tomonidan olib borilayotgan ochiqlik siyosati va investitsiyaviy jozibadorlikni oshirishga qaratilgan "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasini" amaliyotga joriy etilishi xorijiy investorlarni shaffof, haqqoniy va tushunarli axborotlar bilan ta'minlashga xizmat qiladigan, xalqaro talablar doirasida tuzilgan va taqdim etilgan moliyaviy hisobotlarga katta ehtiyoj sezmoqda. Bu masala 1993-yildan buyon Birlashgan Millatlar tashkilotining xalqaro ekspertlari tomonidan joriy qilingan "O'zbekistonda buxgalteriya hisobini isloh qilish dasturi" bo'yicha bosqichma-bosqich amalga oshirib kelinmoqda. Ushbu islohotning mantiqiy davomi bo'lib O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev tomonidan tasdiqlangan "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4611-sonli qarori hisoblanadi<sup>36</sup>. Mazkur qarorning ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston

---

<sup>36</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-4611-sonli qarori. <https://lex.uz/docs/4746047>

Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va unga tushuntirishlar matnini tan olish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 507-sonli qarori qabul qilindi<sup>37</sup>.

Unda O‘zbekiston Respublikasi hududida qo‘llash uchun moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va unga tushuntirishlar (keyingi o‘rinlarda — MHXS hujjatlari) matniga MHXS fondi tomonidan qabul qilingan quyidagi hujjatlar kirishi ta’kidlangan:

moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari;

moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga tushuntirishlar;

MHXS hujjatlari matniga kiritiladigan o‘zgartirishlar;

MHXS hujjatlari matnining ajralmas qismi sifatida MHXS fondi tomonidan belgilangan boshqa hujjatlar.

O‘zbekiston Respublikasi hududida qo‘llash uchun MHXS hujjatlarini tan olish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi (keyingi o‘rinlarda — Moliya vazirligi) tomonidan MHXS fondi bilan MHXS hujjatlaridan foydalanish huquqini olish uchun shartnoma tuzish;

MHXS hujjatlarini MHXS fondidan rasmiy ravishda qabul qilish;

O‘zbekiston Respublikasi hududida qo‘llash uchun MHXS hujjatlarini ekspertizadan o‘tkazish;

Iqtisodiyot va Moliya vazirligining O‘zbekiston Respublikasi hududida qo‘llash uchun MHXS hujjatlarini tan olish to‘g‘risidagi buyrug‘ini qabul qilish;

---

<sup>37</sup> O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 24-avgustdagi «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va unga tushuntirishlar matnini tan olish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi 507-sonli qarori. <https://lex.uz/docs/4966554>

Iqtisodiyot va Moliya vazirligining MHXS hujjatlarini O'zbekiston Respublikasida tan olish to'g'risidagi buyrug'ini belgilangan tartibda Adliya vazirligida davlat ro'yxatidan o'tkazish;

Iqtisodiyot va Moliya vazirligining MHXS hujjatlarini O'zbekiston Respublikasi hududida qo'llash uchun tan olish to'g'risidagi buyrug'ini hamda MHXS hujjatlari matnini «O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami» va O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasida e'lon qilish;

Iqtisodiyot va Moliya vazirligining veb-saytida MHXS hujjatlarining davlat va boshqa tillardagi matnini e'lon qilish;

davlat tilidagi MHXS hujjatlari matnining doimiy ravishda yangilanib borilishini ta'minlash kabilar.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari uslubiyoti bo'yicha atroflicha va chuqur ilmiy-tadqiqotlar olib borgan iqtisodchi olim S.N.Tashnazarovning mualliflik ta'rifi diqqatga sazovordir: "Moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot – bu moliyaviy hisobotning asosiy komponenti bo'lib, hisobot davrining oxiridagi vaqt momentida kompaniyaning moliyaviy holati, ya'ni uning aktivlari, majburiyatlari va xususiy kapitalining tasniflangan tarkiblari bo'yicha holatini va hisobot davrida o'zgarishini tavsiflovchi hamda tizimli ravishda asosan tashqi va ichki axborot foydalanuvchilarga kompaniyaning moliyaviy holatini baholash va unga doir qarorlarni qabul qilish uchun taqdim qilinadigan axborotlarning standartlashgan tizimidir"<sup>38</sup>.

O'zbekiston Respublikasi BHMS 15 "Buxgalteriya balansi" standartida buxgalteriya balansi moliyaviy hisobotning tarkibiy

---

<sup>38</sup> S.N. Tashnazarov. Moliyaviy hisobotning nazariy va metodologik asoslarini takomillashtirish (MHXS va ilg'or tajribalar asosida). Monografiya. T.: «Turon», 2017 y. - 170-bet.

qismlaridan biri ekanligi, u xo'jalik subyekting mulkiy va moliyaviy holati to'g'risidagi axborotlarni umumlashtirib, foydalanuvchilarni ta'minlashi belgilab qo'yilgan.

Shuningdek, BHMS 1 "Hisob siyosati va moliyaviy hisobot" standartida buxgalteriya balansining maqsadi – xo'jalik subyekting buxgalteriya balansi uning aktivlari va passivlari tarkibini samarali boshqarish uchun hisobot davridagi haqiqiy moliyaviy holatni to'liq aks ettirishi zarur"<sup>39</sup>.

Moliyaviy hisobotlarga iqtisodchi olim M.Marpatov xalqaro standartlar nuqtai nazaridan yondashib, quyidagilarni e'tirof etadi: "moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot uzoq yillar davomida "buxgalteriya balansi" yoki "balans hisoboti" nomi bilan yuritilgan. Mazkur hisobot foydalanuvchilar uchun korxonaning moliyaviy holati va likvidligi to'g'risida muhim axborotlarni o'zida jamlagan. Balans bankning yoki boshqa biron bir xo'jalik subyekting moliyaviy ahvolini baholovchi eng yaxshi moliyaviy ma'lumotlar tizimidir"<sup>40</sup>.

Bu sohada izlanishlar olib borgan B.Nidlz va boshqa olimlar buxgalteriya balansiga mualliflik ta'riflarini keltirishgan: "Balans (balance sheet) – firmaning moliyaviy holatini ma'lum sanada, masalan, hisobot davrining oxirida aks ettiradi. Balans firmaning tutib turuvchi sifatida resurslari – aktivlarining qaysiki manbalari – passiv va xususiy kapitalga tengligini ko'rsatadi"<sup>41</sup>.

Xorijlik olimardan R.Hermanson balans ta'rifini quyidagicha e'tirof etgan: "Balans (balance sheet), ayrim hollarda moliyaviy holat hisoboti ham deb ataladi – bu vaqtning maxsus momentida

---

<sup>39</sup> O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobi milliy standartlari to'plami .-Toshkent: «NORMA», 2011.–360-bet.

<sup>40</sup> Marpatov M. Buxgalteriya balansi –moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot. //Bozor, pul va kredit J. –2016.–№3.–56-64-b.

<sup>41</sup> Нидлз Б. и др. Принципы бухгалтерского учета /Б. Нидлз, Х. Андерсон, Д. Колдуэлл: Пер. с англ./Под ред. Я.В. Соколова. – М.: Финансы и статистика, 2003.–496с.

kompaniyaning aktivlari (assets), majburiyatlari (liabilityes) va xususiy (aksiyadorlik) kapitalini (stockholders yequity) aks ettiruvchi jadvaldir. Vaqtning maxsus momenti bo'lib balans sanasida biznesning yopilishi sanaladi"<sup>42</sup>.

Tadqiqotda BHXS 10 - Hisobot davridan keyingi hodisalar (IAS 10 - Yevents after the Reporting Period) moliyaviy hisobot tuzilgan sanadan keyingi hodisalar ta'sirida buxgalteriya hisobida sodir bo'ladigan muomalalarni aks ettirish uchun schyotlar rejasiga 6610-«Oddiy aksiyalar bo'yicha to'lanadigan dividendlar», 6620-«Imtiyozli aksiyalar bo'yicha to'lanadigan dividendlar», 8540-«Imtiyozli aksiyalar bo'yicha to'lanadigan dividendlar rezervi» schyotlarini kiritish, ularga doir reversiv yozuvlar va tuzatishlarni qayd etishga mo'ljallangan «Kontirovka varaqasi» taklif etilgan.

MHXS talablariga muvofiq, moliyaviy hisobotlarni tayyorlashning eng keng tarqalgan usuli bu milliy buxgalteriya hisobi axborotlarini xalqaro standartlar asosida transformatsiya qilish hisoblanadi. MHXS maqsadlari uchun taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar) bo'yicha o'tgan davrlarda qilingan tuzatishlar haqida axborotlar mavjud bo'lmaganligi sababli, unga ta'sir qiluvchi barcha tuzatishlarni takrorlash (reversiv yozuv) orqali joriy davr ma'lumotlarini o'zgartirish zarurati tug'iladi. Reversiv yozuvlarni qo'llash va ularning hisobot elementlariga ta'sirini baholash transformatsiya jarayonini to'liq va haqqoniy aks ettirish, xatolarning oldini olish imkonini beradi.

*Kontirovka* - bu buxgalteriya ikkiyoqlama yozuvlarini hisob obyektida sodir bo'lgan xo'jalik muomalalarining o'zgarishi to'g'risidagi axborotlarni qog'oz yoki kompyuter vositalari yordamida qayd qilish usulidir. U odatda, xo'jalik muomalalarini

---

<sup>42</sup> Hermanson, Roger H. Accounting: a business perspective/Roger H. Hermanson, James Don Edwards, Michael W. Maher. 6th ed., Irwin, Printed in the USA, 1995. 926 p.



ro'yxatdan o'tkazish usuli hisoblanib, schyotlarning debetlanishi va kreditlanishi natijasida bir summani bir vaqtning o'zida ikkita schyotga yoki hisob registrlariga tarqatish uchun foydalaniladi. Shu maqsadda xalqaro standartlar bo'yicha transformatsiya usuli sifatida reversiv provodkalar qo'llaniladi.

### Kontirovka varaqasi №\_\_

«\_\_» \_\_\_\_\_ 2022-yil

<b>Korxonasi nomi: «Farg'onaazot» AJ</b>					
Debet		Kredit		Muomalalar mazmuni	Summa, mln. so'm
Subschiyot shifri	Analitik schiyot shifri	Subschiyot shifri	Analitik schiyot shifri		
8710	8711	6610	6611	Aksiyadorlarga oddiy aksiyalar bo'yicha dividendlar hisoblandi	500,0
<b>Buxgalter:</b>					

Fikrimizcha, 6610-“Oddiy aksiyalar bo'yicha to'lanadigan dividendlar”, 6620-“Imtiyozli aksiyalar bo'yicha to'lanadigan dividendlar” schyotlarini ochishdan maqsad 8310-“Oddiy aksiyalar”, 8320-“Imtiyozli aksiyalar” hamda 8610-“Sotib olingan xususiy aksiyalar – oddiy”, 8620-“Sotib olingan xususiy aksiyalar – imtiyozli” schyotlarning aloqalarini muvofiqlashtirish va o'zaro mantiqiy bog'liqligini ta'minlashdan iboratdir.

Ushbu taklifning amaliyotga tatbiq etilishi natijasida aksiyadorlarga bo'lgan qisqa muddatli qarzdorlik to'liq va davriy ravishda hisobga olib boriladi, ularga imtiyozli aksiyalar bo'yicha kafolatli dividend to'lashga imkoniyat yaratiladi va dividend to'lash muomalalari tartibga solinadi.

**Hisobot davridan keyingi hodisalarni buxgalteriya  
schyotlarida aks ettirish (reversiv provodkalar) bo'yicha  
mualliflik taklifi**

T/ r	Xo'jalik muomalalarining mazmuni	Schyotlarning bog'lanishi	
		Debet	Kredit
1	Aksiyadorlarga oddiy aksiyalar bo'yicha dividendlar hisoblandi	8710	6610
2	Aksiyadorlarga imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar hisoblandi*	8710	6620
3	Korxonada qoplanmagan zarar paydo bo'lganida imtiyozli aksiyalar bo'yicha kafolatlangan to'lov hisoblab qo'yildi*	8540	6620

**Izoh:** \*mualliflik taklifi

Mavzuga oid iqtisodiy adabiyotlar va tadqiqotlarning guvohlik berishicha, ko'pchilik monografik izlanishlar va maqolalarda buxgalteriya balansining xususiyatlarini yoritishga harakat qilingan bo'lsa-da, biroq moliyaviy hisobotning asosiy shakli xususiyatlarini o'zida aks ettirgan ta'rifini yaratishda sezilarli natijaga erishilmagan. Aksariyat iqtisodchi olimlar o'z mualliflik ta'riflarida ushbu hisobot odatda, mulkiy va moliyaviy ahvol haqidagi axborotni yoritishga xizmat qilishi to'g'risida to'xtalishgan.

Prof. K.B.Urazov ushbu masala yuzasidan o'z nuqtai nazarini quyidagi ta'rifda keltirib o'tgan: "...balans hisobotining asosiy mohiyati korxonalarining mablag'lari va ularning tashkil topish manbalarining ma'lum sanaga tengligi, ushbu sanadagi moliyaviy holati to'g'risidagi axborot berish hisoblanadi"<sup>43</sup>.

Bu borada professor H.N.Musayevning nuqtai nazari quyidagicha bayon etilgan: "Korxonada moliyaviy hisobotining eng muhim tarkibiy qismi – bu buxgalteriya balansi hisoblanadi.

<sup>43</sup> Urazov K.B. Buxgalteriya moliyaviy hisobi. O'quv qo'llanma. – Samarqand, 2013. -228 b. 35-b.

Buxgalteriya balansida korxonalarining mulkiy holati, aktivlari, ularning manbalari pulda ifodalangan bo'ladi"<sup>44</sup>.

Prof.B.A.Xasanov va boshqa olimlarning fikricha: "Moliyaviy hisobotning asosiy shakli bo'lib, xo'jalik yurituvchi sub'ektning ma'lum sanadagi mulkiy va moliyaviy ahvolini aks ettiruvchi ko'rsatkichlar tizimini ifodalaydi"<sup>45</sup>.

Yuqoridagi bahs-munozaralar va nuqtai nazarlar o'ziga xoslikka ega bo'lib, masalaga bir tomonlama yondashilganligini ko'rsatmoqda.

Ushbu takliflarni umumlashtirib, prof. S.N. Tashnazarov buxgalteriya balansiga xalqaro darajada moliyaviy holat to'g'ri-sidagi hisobot degan nuqtai nazardan yondashgan: "Olimlarning fikri asosida buxgalteriya balansi ma'lum sanada moliyaviy holatni aks ettiruvchi hamda aktivlarning majburiyatlar va xususiy kapitalga tengligini ko'rsatuvchi jadval ekanligi to'g'risida xulosa qilish mumkin. Buxgalteriya balansini tavsiflashda quyidagi mazmundagi savollarga javob bo'lishi kerak, deb o'ylaymiz: a) buxgalteriya balansi qaysi iqtisodiy tushunchaning tarkibiy qismi hisoblanadi; b) buxgalteriya balansi qaysi muddatga va qaysi vaqt momentida tuziladi; v) qanday tarkibdagi va mazmundagi axborotlarni tavsiflaydi; g) axborotlarni nazorat qilish va qarorlar qabul qilishdagi o'rni va ahamiyati; d) balansdagi axborotlar kimga mo'ljallanganligi, hisobotning taqdim qilinishi va muddati; ye) axborotlar asosida qabul qilinadigan qarorlar"<sup>46</sup>.

Buxgalteriya balansida e'tibor qaratiladigan yana bir jihat

---

<sup>44</sup> H.N. Musayev. Buxgalteriya balansining auditi. Ochiq ma'ruza materiallari. Samarqand 2017 y. 9-b.

<sup>45</sup> Buxgalteriya hisobi: Darslik / B.A.Xasanov, A.A.Xoshimov, A.B.Muxametov, A.A.Abduvohidov; - T.: «Iqtisodiyot dunyosi», 2021. 992 b.

<sup>46</sup> S.N. Tashnazarov. Moliyaviy hisobotning nazariy va metodologik asoslarini takomillashtirish (MHXS va ilg'or tajribalar asosida). Monografiya. T.: «Turon», 2017 y. - 170-bet.

unda axborotlarning standart qatorda keltirilganligidir. MHXS (IFRS) 1 "Moliyaviy hisobotni taqdim etish" nomli standart buxgalteriya balansi yoritishi muhim bo'lgan axborotlar qatorini o'zida qamrab olgan.

Buxgalteriya balansi aks ettirishi zarur hisoblangan axborotlar to'g'risida BHMS (IAS) 1 "Hisob siyosati va moliyaviy hisobot" nomli standartda ma'lum bir qoidalar ko'rsatib o'tilgan. Bu shundan dalolat beradiki, xo'jalik subyektlari moliyaviy hisobotlarida ushbu standartlarda belgilangan moddalar va elementlarni belgilashlari hamda ushbu tamoyillar asosida hisobot tuzishlar zarur.

«KPMG Audit» MCHJ auditorlik tashkiloti tomonidan «Navoiyazot» AJning «Moliyaviy holat to'g'risidagi konsolidatsiyalashgan hisoboti» (BS)ni vertikal balans-netto usulida tuzish jarayonida qo'llaniladigan transformatsiya shakli 5-jadvalda keltirilgan.

5-jadval

**«Moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot» (BS)ni xalqaro hisoblash tamoyili asosida vertikal balans-netto shaklida taqdim etishning «Ishchi transformatsiya jadvali» bo'yicha mualliflik taklifi<sup>47</sup>, ming so'm**

Axborot manbai	Schyotning nomi	BHMS	*ADJ01	ADJ02	ADJ04 va boshqalar	Jami ADJ	MHXS
**BS	Aktivlar	69 573 348	(1 069 229)	444 137	-	(415 441)	69 157 908
BS	Aylanmadan tashqari aktivlar	59 572 292	(1 069 229)	444 137	1 756 995	1 341 554	60 913 846
BS	Asosiy vositalar	59 572 292	(1 069 229)	444 137	-	(415 441)	59 156 851
BS	Asosiy vositalarga	-	-	-	1 756 995	1 756 995	1 756 995

<sup>47</sup> Tadqiqotlar asosida muallif hisob-kitobi.

## 5-jadvalning davomi

	berilgan avanslar						
	<b>Aylanma aktivlar</b>	<b>10 001 057</b>			<b>(1 756 995)</b>	<b>(1 756 995)</b>	<b>8 244 062</b>
	Zaxiralar	2 788 841			-	-	2 788 841
	Bo'naklar va boshqa debitorlik qarzlari	6 460 514			(1 756 995)	(1 756 995)	4 703 519
	Pul mablag'lari va ularning ekvivalentlari	751 702			-	-	751 702

Izoh: \*ADJ01... (adjustment) – buxgalteriya tuzatish (korrektirovka) yozuvlari

\*\*BS – Balance sheet (Moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot)

«KPMG Audit» MCHJ auditorlik tashkiloti tomonidan 2022-yil 25-aprelda tasdiqlangan auditorlik xulosasiga ilova qilingan “Navoiyazot” AJning 2020-yil uchun «Moliyaviy holat to'g'risidagi konsolidatsiyalashgan hisoboti»ni tuzish usullarini tadqiq etgan holda undagi moddalarni qiyosiy tahlil qilib chiqamiz (6-jadval).

6-jadval

**2020-yil 31-dekabr holatiga “Navoiyazot” AJning moliyaviy holat to'g'risidagi konsolidatsiyalashgan hisoboti<sup>48</sup>, mln.so'm**

	Note	2020-yil 31-dekabr	2019-yil 31-dekabr	2019-yil 1-yanvar
<b>Aktivlar</b>				
Mol-mulk, zavod va asbob-uskunalar	11	7 517 337	6 748 959	5 314 247
Nomoddiy aktivlar		81	77	56
Kapital hisobidagi investitsiyalar		781	691	728
Boshqa investitsiyalar		16 480	17 727	13 379
Kechiktirilgan soliq aktivlari	9	1 336 559	1 157 182	896 931
<b>Aylanmadan tashqari aktivlar</b>		<b>8 871 238</b>	<b>7 924 636</b>	<b>6 225 341</b>
Tovar-moddiy zaxiralar	12	357 004	444 747	195 742
Savdo va boshqa debitorlik qarzlari	13	97 473	157 611	197 199

<sup>48</sup> «Navoiyazot» AJning moliyaviy hisoboti asosida muallif hisob-kitobi. <https://www.navoiyazot.uz/oz/auditors>

## 6-jadvalning davomi

Boshqa investitsiyalar		88	244	157
Pul mablag'lari va ularning ekvivalentlari	14	849	5 159	2 607
Joriy aktivlar		455 414	607 761	395 705
<b>Jami aktivlar</b>		<b>9 326 652</b>	<b>8 532 397</b>	<b>6 621 046</b>
<b>Kapital</b>	<b>15</b>			
Ustav kapitali		61 743	61 320	61 320
Rezervlar		(28 569)	(29 886)	96
Jamg'arilgan zarar		(7 528 275)	(6 147 873)	(6 059 957)
<b>Jami kapital</b>		<b>(7 495 101)</b>	<b>(6 116 439)</b>	<b>(5 998 541)</b>
<b>Majburiyatlar</b>				
Kredit va qarzlari	17	12 006 394	12 871 885	11 731 229
Boshqa uzoq muddatli majburiyatlar		57 329	45 947	13 653
Kechiktirilgan soliq majburiyatlari	9	963	1 002	1 040
<b>Uzoq muddatli majburiyatlar</b>		<b>12 064 686</b>	<b>12 918 834</b>	<b>11 745 922</b>
Kredit va qarzlari	17	3 087 561	722 014	254 662
Savdo va boshqa kreditorlik qarzlari	18	1 460 544	998 666	604 776
To'lanadigan boshqa soliqlar		204 620	7 408	12 462
Joriy soliq majburiyatlari		4 342	1 914	1 765
<b>Joriy majburiyatlar</b>		<b>4 757 067</b>	<b>1 730 002</b>	<b>873 665</b>
<b>Jami majburiyatlar</b>		<b>16 821 753</b>	<b>14 648 836</b>	<b>12 619 587</b>
<b>Jami kapital va majburiyatlar</b>		<b>9 326 652</b>	<b>8 532 397</b>	<b>6 621 046</b>

Jadval ma'lumotlarining tahlili aksiyadorlik jamiyatida aktivlar va xususiy kapital o'rtasida nomutanosiblik mavjudligini ko'rsatmoqda. Xususan, 2020-yilning 31-dekabr holatiga mol-mulk, zavod va asbob-uskunalar moddasida 7 517 337 mln. so'mlik aktivlar aks ettirilgani holda, hisobotning passiv qismidagi Ustav kapitali moddasi 61 743 mln.so'm yoki 0,82%ni tashkil etgan. Demak, korxonaning aksiyadorlik jamiyati sifatida qo'shimcha aksiyalar chiqarishi va investitsiyalar jalb etish imkoniyati cheklab qo'yilgan. Shuningdek, hisobotning "Kapital" bo'limidagi "Jamg'arilgan zarar" moddasi 7 528 275 mln.so'mni tashkil etganligi uning moliyalashtirish o'z manbalari past ekanligidan dalolat beradi. Bunday holatni so'nggi 3 yillik tahlili natijasida ham kuzatishimiz mumkin.

Buxgalteriya balansi fransuz tilidan to'g'ridan-to'g'ri "balance", ya'ni tarozi ko'rinishida, lotin tilidan esa "bilanx" - tarozining ikki pallasini ko'rinishida tarjima qilinadi<sup>49</sup>. Ingliz tilida buxgalteriya balansi nomli hisobot «BS», ya'ni "balance sheet" deb ommalashgan. Balance bu tarozining ikki pallasini anglatadi, sheet bu doska yoki jadval ma'nosini bildiradi. AQSH, Buyuk Britaniya kabi rivojlangan mamlakatlar normativ-huquqiy hujjatlarida buxgalteriya balansi nomli hisobot shaklini "moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot" ko'rinishida nomlanganini e'tiborga olib, mamlakatimiz iqtisodiyotiga ushbu atamani qo'llashni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Shuni alohida ta'kidlash zarurki, jahonda «Moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot»(BS)ni tuzishning klassik modeli qo'llaniladi, biroq har bir mamlakat o'zi tanlagan hisob yuritish modeli xususiyatidan kelib chiqib, balansning har bir bo'limi va xo'jalik subyekti faoliyatida foydalanilgan schyotlar kesimida ishchi transformatsiya jadvallarini alohida-alohida qilib tuzadilar<sup>50</sup>.

Aktiv aylanma mablag' sifatida majburiy tartibda tasniflanishi lozim, agarda u quyidagi mezonlardan birontasini qanoatlantirsa:

(a) uni sotish ko'zda tutiladi yoki sotishga yoki tashkilotning operatsion siklining odatiy sharoitida iste'mol qilishga mo'ljallanadi;

(b) u asosan sotish maqsadiga qaratilgan bo'ladi;

(s) uni hisobot sanasidan keyin o'n ikki oy davomida realizatsiya qilish ko'zda tutiladi;

(d) u pul mablag'lari va ularning ekvivalentlaridan tashkil topadi (MHXS 7 "Pul mablag'larining harakati to'g'risidagi

---

<sup>49</sup> <https://www.google.com/search?q=бухгалтерский+баланс&rlz>

<sup>50</sup> Шуклов Л.В. Электронные таблицы как инструмент подготовки отчетности по МСФО. <https://www.audit-it.ru/articles/msfo/a24744/273006.html>

hisobot” standartida belgilangan), qachonki uni almashtirish yoki qaysidir majburiyatni hisobot sanasidan keyin eng kam holatda o’n ikki oy davomida uzish taqiqlangan holatlar bo’lmasa<sup>51</sup>.

## **2.2. Foyda yoki zarar va boshqa umumlashgan daromad to’g’risidagi hisobotni tuzish uslublarini takomillashtirish**

Ushbu paragrafda foyda va zararlar to’g’risidagi hisobotning tarkibi va tuzish uslublarini takomillashtirish maqsadida ilg’or xorijiy tajriba va respublikamiz korxonalari amaliyoti tadqiq etilgan. Ilmiy izlanishlar natijasida hisobot shakllarini tuzish bo’yicha takliflar va ularni to’ldirish yuzasidan uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

“Moliyaviy hisobotlarni taqdim etishning konseptual asosi” Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari Kengashi tomonidan 2010-yil sentabrda e’lon qilingan. U 2018-yil mart oyida qayta ko’rib chiqilgan va tavsiya etilgan. Moliyaviy hisobotlarni taqdim etishning konseptual asosidan ko’zlangan maqsad – investorlar va bozorning boshqa ishtirokchilariga iqtisodiy qarorlar qabul qilish imkonini berish uchun moliyaviy axborotni xalqaro darajada qiyoslanuvchanligi va uning sifatini oshirish hisobiga shaffoflikka erishishga ko’maklashishdan iborat<sup>52</sup>.

Moliyaviy hisobotning 7-son “Moliyaviy instrumentlar: ma’lumotlarni yoritib berish”<sup>53</sup> nomli xalqaro standartining 21-bandida moliyaviy hisobotlarni tayyorlashda foydalanilgan baholash asosining (yoki asoslarining) hamda ushbu hisobotlar

---

<sup>51</sup> [https://www.mf.uz/uz/?option=com\\_content&view=article&id=970](https://www.mf.uz/uz/?option=com_content&view=article&id=970)

<sup>52</sup> Conceptual Framework for Financial Reporting. (IFRS). [https://www.mf.uz/ru/?option=com\\_content&view=article&id=279](https://www.mf.uz/ru/?option=com_content&view=article&id=279)

<sup>53</sup> Moliyaviy hisobotning 7-son «Moliyaviy instrumentlar: ma’lumotlarni yoritib berish» nomli xalqaro standarti. [https://www.mf.uz/ru/?option=com\\_content&view=article&id=279](https://www.mf.uz/ru/?option=com_content&view=article&id=279)



tushunarli bo'lishi uchun qo'llanilgan hisob siyosatlarining yoritib berilishi talab etiladi.

O'zbekistonda moliyaviy hisobot tuzishni me'yoriy-huquqiy jihatdan tartibga solish O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni asosida ishlab chiqilgan va foydalanuvchilar uchun moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etish asosini tashkil etuvchi tushunchalarni belgilab beruvchi "Moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etish uchun konseptual asos" nomli Buxgalteriya hisobining milliy standartiga asosan amalga oshiriladi<sup>54</sup>.

Foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotning tarkibi va tuzish uslublarini takomillashtirish borasida vatanimiz va chet ellik olimlar o'z nuqtai nazarlarini bayon etishgan.

Prof. S.Tashnazarov foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotning maqsadini yoritishda unda qanday axborotlar shakllanishi, u foydalanuvchilarning axborotga bo'lgan ehtiyojiga muvofiqligi, xo'jalik subyektlari tomonidan qabul qilinayotgan qarorlar kabi masalalarga e'tibor qaratish lozimligini ta'kidlaydi<sup>55</sup>.

Prof. B.Xasanov va boshqa olimlar moliyaviy hisobot elementlarini tizimlashtirish va tuzish moliyaviy tahlil maqsadlariga moslashtirilgan bo'lishi, jumladan, foyda va rentabellik tahliliga e'tibor qaratish, ichki va tashqi omillarni tasniflash zarurligini ta'kidlaydilar<sup>56</sup>.

Foyda va zararlar to'g'risidagi hisobot (P&L hisoboti) ikki usuldan birida tayyorlanishi mumkin. Bular kassa usuli va

---

<sup>54</sup> O'zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy standarti. «Moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etish uchun konseptual asos». 1998. <https://lex.uz/docs/828557>. 30.11.2021

<sup>55</sup> Tashnazarov S.N. Moliyaviy hisobotning nazariy va metodologik asoslarini takomillashtirish (MHXS va ilg'or tajribalar asosida). Monografiya. T.: «Turon», 2017 y. - 170-bet

<sup>56</sup> Moliyaviy tahlil. Darslik. / B.A.Xasanov, M.Y.Raximov, Z.A.Muqumov, A.I.Aliqulov, A.B.Jumanova, N.Sh.Xajimuratov, R.B.Xasanova; - T.: - Iqtisodiyot, 2019. - 736 b.

hisoblash usuli. Kassa usuli. Bu usul faqat pul mablag'larining biznesga kirishi va chiqishi paytida qo'llaniladi. Bu juda oddiy usul bo'lib, faqat olingan yoki to'langan pullarni hisobga oladi. Biznesda pul mablag'i olinganda daromad sifatida va pul mablag'i har qanday hisob yoki majburiyatlarni to'lash uchun ishlatilganda majburiyat sifatida qayd etiladi. Bu usul odatda, kichikroq kompaniyalar, shuningdek, shaxsiy moliyasini boshqarishni xohlaydigan tadbirkorlar tomonidan qo'llaniladi.

Hisoblash usuli. Bu usul buxgalteriya hisobida daromadlar olingunga qadar qayd etishni nazarda tutadi. Bu shuni anglatadiki, hisoblash usulidan foydalanadigan kompaniya kelajakda olishni kutayotgan pullarni daromad sifatida hisobotda aks ettiradi. Misol uchun, o'z mijoziga mahsulot yoki xizmatni yetkazib beradigan kompaniya hali to'lovni olmagan bo'lsa ham, daromadni P&L hisobotida qayd etadi. Xuddi shunday, kompaniyada hech qanday xarajatlar bo'lmagan taqdirda ham majburiyatlar tan olinadi<sup>57</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tasdiqlagan va Adliya vazirligi ro'yxatga olgan amaldagi "Moliyaviy hisobot shakllari va ularni to'ldirish bo'yicha qoidalar"da moliyaviy hisobotni xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan (budjet tashkilotlari, sug'urta tashkilotlari, banklar va boshqa kredit tashkilotlari bundan mustasno), shuningdek, o'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki tezkor boshqaruvida mol-mulki bo'lgan va o'z majburiyatlari bo'yicha ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, shuningdek, mustaqil balans va hisob-kitob hisobiga ega bo'lgan soliq qonunchiligiga muvofiq soliq to'lovchi

---

<sup>57</sup> Jason Fernando, Julius Mansa. Profit and Loss Statement (P&L). <https://www.investopedia.com/terms/p/plstatement.asp>

hisoblanadigan alohida bo‘linmalarni taqdim etishi belgilab qo‘yilgan<sup>58</sup>.

O‘zbekiston Respublikasi kimyo sanoatining rivojlanish tendensiyalari va istiqbollari tahlil qilish maqsadida “O‘z kimyo-sanoat” aksiyadorlik jamiyatining moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotini tahlil qilib chiqamiz (7-jadval).

7-jadval

**“O‘z kimyo-sanoat” aksiyadorlik jamiyatini asosiy va asosiy bo‘lmagan faoliyati bo‘yicha moliyaviy natijalari tarkibining tahlili<sup>59</sup>, ming so‘m**

№	Ko‘rsatkichlar	2016	2017	2018	2019	2020	O‘zgarishi, 2020-yilda 2016-yilga nisbatan, +/-	
							Mutloq, +/-	Nisbiy, %
1.	Asosiy (operatsion) faoliyatning foydasi (zarari)	(395,8)	(11 131,0)	(17 483,6)	(23 102,6)	(54 947,0)	+54 551,2	139 marta
2.	Moliyaviy faoliyatning daromadlari	7 691,4	12 766,4	36 802,2	60 411,9	104 039,3	+96 347,9	13,5 marta
3.	Moliyaviy faoliyat bo‘yicha xarajatlar	(22,9)	(156,3)	(113,5)	(11 963,1)	(8 341,4)	+8 318,5	364 marta
4.	Daromad (foyda) solig‘ini to‘lagunga qadar foyda (zarar)	9 709,9	1 479,1	19 205,0	25 346,1	40 751,0	+31 041,1	4,2 marta
	Hisobot davrining sof foydasi (zarari)	3 709,9	1 479,1	19 205,0	25 346,1	40 751,0	+37 041,1	11 marta

<sup>58</sup> O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirining «Moliyaviy hisobot shakllari va ularni to‘ldirish bo‘yicha qoidalarni tasdiqlash to‘g‘risida»gi buyrug‘i. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2003-yil 24- yanvarda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 1209. <https://lex.uz/docs/821320#4197048>

<sup>59</sup> «O‘z kimyo-sanoat» AJ moliyaviy hisobot ma‘lumotlari asosida muallif ishlanmasi. <https://uzkimyo-sanoat.uz/uz/corporate/disclosure/financial-reports/annual-reports>

Jadval ma'lumotlari tahlili tarmoq korxonalarining 2016-2020-yillar o'rtasida asosiy (operatsion) faoliyatning foydasi (zarari) satrida daromadlar satri bo'sh turganini, xarajatlar qismi esa o'sib borganligini ko'rsatmoqda. Moliyaviy faoliyatning daromadlari tadqiq etilayotgan davrda 2016-yilda jami 7 691 454,6 ming so'm bo'lib, 2020-yilda ushbu ko'rsatkich 104 039 281,2 ming so'm yoki 96 347 826,6 ming so'm (13,5 marta)ga oshganligini ko'rishimiz mumkin. Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar tahlil qilinayotgan mos davrda 22 960,0 ming so'm va 8 341 450,9 ming so'mni tashkil qilib, 8 318 490,9 ming so'm (363 marta)ga oshgan. Daromad (foyda) solig'ini to'lagunga qadar foyda 2016-yilda 9 709 970,3 ming so'm va 2020-yilda 40 750 928,8 ming so'mni tashkil qilib, 31 040 958,5 ming so'm yoki 4,2 martaga o'sganligining guvohi bo'lamiz. Tahlillar hisobot davrining sof foydasi 2016-yilda 3 709 970,3 ming so'm va 2020-yilda 40 750 928,8 ming so'm ekanligini, umumiy o'sish tendensiyasi mutlaq miqdorda 37 040 958,5 ming so'm yoki 11 martaga oshganligini ko'rsatmoqda.

Foyda va zararlar to'g'risidagi hisobot moliyaviy hisobotning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Mamlakatimizda joriy qilingan amaldagi tartibda ushbu hisobot "moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot" deb ataladi. Bu hisobotda "Mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) realizatsiyasidan olingan sof daromad", "Sotilgan mahsulot (tovar, ish va xizmat)larning tannarxi", "Mahsulot (tovar, ish va xizmat)larni sotishning yalpi foydasi", "Davr (operatsion xarajatlar)", "Moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar", "Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar", "Asosiy faoliyatning foydasi (zarari)", "Asosiy bo'lmagan tushumlar", "Odatdagi faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan xarajatlar", "Favqulodda yuzaga kelgan xarajatlar", "Soliq to'lagunga qadar foyda", "Hisobot davridagi sof foydasi (zarari)" kabi

ko'rsatkichlar o'z aksini topishi maqsadga muvofiqdir. Biroq mazkur hisobotda yuqoridagi satrlarni tizimli va iqtisodiy asoslangan holda mantiqli joylashtirish talab etiladi.

O'zbekistonda moliyaviy hisobot tuzish va taqdim etishning xalqaro standartlariga o'tish muqarrar bo'lgan bir sharoitda uning tashkiliy, uslubiy va amaliy jihatdan ta'minotini yo'lga qo'yish dolzarb vazifa hisoblanadi. Shu o'rinda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini davlat tiliga tarjima qilish va rasmiy ravishda tasdiqlash jarayonlarini jadallashtirish zarur deb hisoblaymiz.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar amaliyotida sinovdan o'tgan va samarali qo'llanilib kelinayotgan Buxgalteriya hisobining milliy standartlarini xalqaro standartlarga transformatsiya va garmonizatsiya qilish, shuningdek, bu maqsadlar uchun transformatsiya jadvallari va hisob registrlarini unifikatsiya qilish maqsadga muvofiqdir.

8-jadval

**“GLOBAL KOMSCO DAEWOO” MCHJ korxonasi**ning asosiy faoliyati moliyaviy natijalari tahlili<sup>60</sup>, mln. so'm

Ko'rsatkichlar nomi	2019-yil		2020-yil		O'zgarishi, %
	Daromadlar (foyda)	Xarajatlar (zararlar)	Daromadlar (foyda)	Xarajatlar (zararlar)	
Mahsulot (tovar, ish va xizmat) larni sotishdan sof tushum	152984,9	x	208369,4	x	136,2
Sotilgan mahsulot (tovar, ish va xizmat) larning tannarxi	x	92421,8	x	140329,9	151,8
Mahsulot (tovar, ish va xizmat) larni sotishning yalpi foydasi (zarari)	60563,1	0	68039,5	0	112,3

<sup>60</sup> «GLOBAL KOMSCO DAEWOO» MCHJ moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

## 8-jadvalning davomi

Davr xarajatlari, jami shu jumladan:	x	16335,9	x	19632,6	120,2
Sotish xarajatlari	x	674,5	x	1509,1	223,7
Ma'muriy xarajatlar	x	3920,7	x	4336,1	110,6
Boshqa operatsion xarajatlar	x	11740,7	x	13787,3	117,4
Asosiy faoliyatning boshqa daromadlari	137,2	x	3977,5	x	28 marta
Asosiy faoliyatning foydasi (zarari)	44364,4	0	52384,4	0	118,1

Xalqaro amaliyotda xo'jalik yurituvchi subyektning faoliyati ikki qismga ajratiladi: asosiy (odatdagi) faoliyat va asosiy bo'lmagan (odatdagi bo'lmagan) faoliyat. Shunga mos ravishda foyda va zararlar to'g'risidagi hisobot asosiy va asosiy bo'lmagan faoliyat natijalarini o'zida aks ettiradi. Foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotni tuzishdan ko'zlangan asosiy maqsadlardan biri ham shundan iboratdir (8-jadval)<sup>61</sup>.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, tadqiqot obyektida mahsulot (tovar, ish va xizmat)larni sotishdan olingan sof tushum hisobot yilida o'tgan davrga nisbatan 136,2 foizga o'sgan, mahsulot tannarxi esa 151,8 foizni tashkil qilgan. Natijada mahsulot (tovar, ish va xizmat)larni sotishning yalpi foydasi (zarari) 112,3 foiz bo'lgan. Korxonaning jami davr xarajatlari o'tgan yili 16335,9 mln.so'mni tashkil etgan bo'lib, hisobot yilida 19632,6 mln.so'm bo'lgan yoki uning o'sishi 120,2 foiz ekanligini ko'ramiz. Asosiy faoliyatning boshqa daromadlari o'tgan yili 137,2 mln.so'm bo'lib, hisobot yilida 3977,5 mln.so'mni tashkil etgan yoki 28 martaga o'sgan. Asosiy faoliyatning foydasi o'tgan

<sup>61</sup> Tashnazarov S.N. Moliyaviy hisobotning nazariy va metodologik asoslarini takomillashtirish (MHXS va ilg'or tajribalar asosida). Monografiya. T.: «Turon», 2017 y. - 170-bet.

yili 44364,4 mln.so'm bo'lgani holda, hisobot yilida 52384,4 mln.so'mga yoki 118,1 foizga o'sganligini guvohi bo'lamiz.

9-jadval

**Moliyaviy faoliyat bo'yicha daromadlar va xarajatlar tahlili<sup>62</sup>, mln.so'm**

Ko'rsatkichlar nomi	2019-yil		2020-yil		O'zgarishi, %
	Daromadlar (foyda)	Xarajatlar (zararlar)	Daromadlar (foyda)	Xarajatlar (zararlar)	
Asosiy faoliyatning foydasi (zarari)	44364,4	0	52384,4	0	118,1
Moliyaviy faoliyatning daromadlari, jami shu jumladan:	8089,9	x	9032,6	x	111,6
Foizlar shaklidagi daromadlar	-	x	144,3	x	
Valyuta kursi farqidan daromadlar	8089,9	x	8888,3	x	109,9
Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar shu jumladan:	x	40375,7	x	30610,8	75,8
Foizlar shaklidagi xarajatlar		7603,3		4116,4	54,1
Valyuta kursi farqidan zararlar	x	32772,3	x	26494,3	80,8

Jadval tahlilidan moliyaviy faoliyatning daromadlari o'tgan yili 8089,9 mln.so'm bo'lib, hisobot yili yakunida 9032,6 mln.so'mga o'sgan yoki 111,6 foizni tashkil qilganligini ko'rishimiz mumkin. Bunga ta'sir qiluvchi asosiy omillardan biri foizlar shaklidagi daromadlar o'tgan yili mavjud bo'lmagan, hisobot yilida esa 144,3 mln.so'mga oshganligini subyektning moliya bozoridagi faoliyatini ijobiy natijasi deb baholash lozim. Shuningdek, foizlar shaklidagi xarajatlar 2019-yilda 7603,3 mln.so'mni tashkil qilib, 2020-yilda 4116,4 mln.so'mga yoki 54,1 foizga kamayganligi xarajatlarning samarali boshqarilayot-

<sup>62</sup> «GLOBAL KOMSCO DAEWOO» MCHJ moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

ganligidan dalolat beradi. Valyuta kursi farqidan zararlar 80,8 foizga kamayganligi ham ijobiy natija ekanligini ta'kidlashimiz lozim.

10-jadval

**“GLOBAL KOMSCO DAEWOO” MCHJ korxonasi soliq to'lagunga qadar foydasi va sof foydasining tahlili<sup>63</sup>, mln.so'm**

Ko'rsatkichlar nomi	2019-yil		2020-yil		O'zgarishi, %
	Daromadlar (foyda)	Xarajatlardan (zararlar)	Daromadlar (foyda)	Xarajatlardan (zararlar)	
Umumxo'jalik faoliyatining foydasi (zarari)	12078,6	0	30806,2	0	2,5 marta
Foyda solig'ini to'lagunga qadar foyda (zarar)	12078,6	0	30806,2	0	2,5 marta
Foyda solig'i	x	13,0	x	320,9	25 marta
Hisobot davrining sof foydasi (zarari)	12065,6	0	30485,3	0	2,5 marta

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, tadqiqot obyektida umumxo'jalik faoliyatining foydasi 2020-yilda 30806,2 mln. so'mni tashkil etgan. Foyda solig'i 320,9 mln. so'm bo'lib, hisobot davrining sof foydasi (zarari) 30485,3 mln. so'm ekanligini kuzatamiz. Bu raqamlarni 2019-yilga nisbatan tahlil qilganimizda, foyda solig'ini to'lagunga qadar foyda 2,5 martaga (12078,6 mln. so'mdan 30806,2 so'mga) oshganligining guvohi bo'lamiz. O'z navbatida, foyda solig'i 25 marta (13,0 mln. so'mdan 320,9 mln. so'mga) oshgan, hisobot davrining sof foydasi 2,5 martaga o'sgan.

«KPMG Audit» MCHJ auditorlik tashkilotining 2022-yil 25-aprelda tasdiqlagan auditorlik xulosasiga ilova qilingan “Navoiyazot” AJning 2020-yil uchun «Foyda yoki zarar va boshqa umumlashgan daromad to'g'risidagi konsolidatsiyalashgan

<sup>63</sup> «GLOBAL KOMSCO DAEWOO» MCHJ moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.



hisoboti»ni tuzish usullarini tadqiq etgan holda undagi moddalarni qiyosiy tahlil qilib chiqamiz (11-jadval).

11-jadval

**“Navoiyazot” AJning 2020-yil uchun foyda yoki zarar va boshqa umumlashgan daromad to'g'risidagi konsolidatsiyalashgan hisoboti<sup>64</sup>, mln.so'm**

Ko'rsatkichlar	Izoh	2020	2019
Tushum	5	2 160 355	1 478 004
Sotish tannarxi	6	(2 167 845)	(1 426 500)
<b>Yalpi foyda</b>		<b>(7 490)</b>	<b>51 504</b>
Boshqa daromadlar		29 499	23 545
Sotish xarajatlari		(31 875)	(20 626)
Ma'muriy xarajatlar	6	(72 027)	(66 151)
Boshqa xarajatlar	6	(206 851)	(134 543)
<b>Operatsion faoliyatdan zarar</b>		<b>(288 744)</b>	<b>(146 271)</b>
Moliyaviy daromad	7	1 893	2 389
Moliyaviy xarajatlar	7	(1 266 934)	(1 309 644)
<b>Sof moliyaviy xarajatlar</b>		<b>(1 265 041)</b>	<b>(1 307 255)</b>
<b>Soliq solingunga qadar zarar</b>		<b>(1 553 785)</b>	<b>(1 453 526)</b>
Daromad solig'i bo'yicha daromad	9	157 956	414 722
<b>Yillik xarajat</b>		<b>(1 395 829)</b>	<b>(1 038 804)</b>
<b>Boshqa umumiy daromad / (xarajat)</b>			
<b>Foyda yoki zararga qayta tasniflanmaydigan moddalar:</b>			
Boshqa to'liq daromad orqali adolatli qiymatdagi kapital investitsiyalar - adolatli qiymatning sof o'zgarishi		(809)	4 602
Pensiya majburiyatlarining o'zgarishi		2 005	(33 890)
Daromad solig'i		121	(694)
<b>Hisobot yilining boshqa umumiy daromadi / (zarari), daromad solig'ini hisobga olmaganda</b>		<b>1 317</b>	<b>(29 982)</b>
<b>Hisobot yilining umumiy zarari</b>		<b>(1 394 512)</b>	<b>(1 068 786)</b>

<sup>64</sup> «Navoiyazot» AJning moliyaviy hisoboti asosida muallif hisob-kitobi.  
<https://www.navoiyazot.uz/oz/auditors>

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, jamiyatning 2020-yildagi tushumi 2019-yilga nisbatan 682 351 mln.so'm (146,2%)ga oshgan. Hisobot yilida sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi uning sotish bahosidan yuqori -7 490 mln.so'm bo'lgan (2 160 355 - 2 167 845). Shuningdek, aksiyadorlik jamiyatida davr xarajatlarining salmog'i katta bo'lib, ulardan sotish xarajatlari 31 875 mln.so'm, ma'muriy xarajatlar 72 027 mln.so'm va boshqa xarajatlar 206 851 mln.so'm ekanligi boshqaruv xarajatlarini kamaytirish rezerzlarini qidirib topishni talab etadi. Korxonaning sof moliyaviy xarajatlari 2020-yilda 1 265 041 mln.so'm bo'lib, 2019-yilda 1 307 255 mln.so'mni yoki 96,8%ni tashkil qilgan.

Umumiy xulosa qilganimizda, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari bo'yicha tuzilgan hisobot tahlili shuni ko'rsatadiki, "Navoiyazot" AJning hisobot yilidagi umumiy moliyaviy natijasi zarar bilan yakunlangan bo'lib, hisobot yilida o'tgan yilga nisbatan 130,5%ga oshganligining guvohi bo'lamiz.

Moliyaviy hisobot elementlari va komponentlarini tan olish, ularga rasmiy tus berish hamda ularning faoliyat doirasini chegaralash maqsadida muntazam ravishda xo'jalik yurituvchi subyektlar, banklar, budjet va sug'urta tashkilotlarining moliyaviy hisobotlarini qiyoslanuvchan, ishonchli, tushunarli va oshkoralik tamoyili asosida ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinishiga erishish lozim.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini joriy etishda mutaxassis kadrlarni tayyorlash masalasi muhim ahamiyat kasb etishini nazarda tutib, tajribali amaliyotchilar va nazariyotchi olimlar ishtirokida jamoatchilik asosida uslubiy kengashlar tashkil etish, yagona uslubiy dasturga asoslangan darslik va o'quv qo'llanmalar yaratish lozim.

### **2.3. Xalqaro standartlar asosida pul oqimlari to'g'risidagi moliyaviy hisobot tuzish usullarini takomillashtirish**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev iqtisodiyot tarmoqlarida hisob-kitob tizimini takomillashtirish, debitorlik, kreditorlik va budjet oldidagi qarzdorliklarni qisqartirish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar tahliliga bag'ishlab o'tkazilgan yig'ilishda: "Uzoq yillardan beri iqtisodiyot tarmoqlarida pul oqimlari samarasiz boshqarilganligi va nomutanosib taqsimlangan oqibatida qarzdorlik holatlari ko'payib ketganligi"ni ta'kidladi<sup>65</sup>.

O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi va ochiqlik siyosati amaldagi moliyaviy hisobot shakllarining xususan, pul oqimlari to'g'risidagi hisobotning xorijiy va mahalliy investorlar uchun shaffof bo'lishi, xo'jalik subyektlarining moliyaviy holatini haqqoniy aks ettirishi zarurligi, axborotlarning ishonchligi va oqilona boshqaruv qarorlari qabul qilish uchun asos bo'lib xizmat qilishi kabi talab va qoidalar pirovard natijada xalqaro standartlar asosida pul oqimlari to'g'risidagi moliyaviy hisobot tuzishning nazariy asoslari, usullari va tashkiliy jihatlarini takomillashtirishni ustuvor vazifa qilib qo'yadi.

AQSHlik iqtisodchi Kris B.Merfi pul oqimlarini boshqarishning ahamiyati, zarurati, tarkibiy qismlari va tuzish usullari to'g'risida shunday fikr bildiradi: "Pul oqimi to'g'risidagi hisobot (CFS - Cash flow statement) kompaniyaning pul mablag'lari va ularning ekvivalentlarini kirimi va chiqimini

---

<sup>65</sup> Sh.M.Mirziyoyev. Har bir korxonaning barqarorligi aniq hisob-kitobga bog'liq, rahbarlar faoliyati shunga qarab baholanadi. 2018-yil 17-aprel. <http://xs.uz/uzkr/post/shavkat-mirziyoyev-har-bir-korxonaning-barqarorligi-aniq-hisob-kitobga-bog'liq-rahbarlar-faoliyati-shunga-qarab-baholanadi>

umumlashtiradi. CFS kompaniyaning pul oqimini samarali boshqarish, xususan, pul mablag'laridan qanchalik unumli foydalanayotganini ko'rsatadi.

Ushbu moliyaviy hisobot buxgalteriya balansi va daromadlar to'g'risidagi hisobotni to'ldiradi. CFSning asosiy tarkibiy qismlari uchta sohadagi pul mablag'laridir: operatsion faoliyat, investitsiya faoliyati va moliyaviy faoliyat. Pul oqimi to'g'risidagi hisobot ikkita usulda, ya'ni bevosita va bilvosita usulda tuziladi"<sup>66</sup>.

Iqtisodchi olim dots. Tulayev M.S. amaldagi "Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot" shaklidagi 25 ta satrni qisqartirish va ularni 20 taga tushirish natijasida xalqaro standartlarga moslashtirishni taklif qilgan<sup>67</sup>.

Mamlakatimiz buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot tuzish amaliyotida qo'llanilayotgan "Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot" shaklini xalqaro standartlarga transformatsiya qilish maqsadida avvalambor, uni 7-son buxgalteriya hisobining xalqaro standarti "Pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobot"ning tarkibiy qismlari, ularning tavsifi va elementlari bilan solishtirishdan boshlash zarur, deb o'ylaymiz (12-jadval).

---

<sup>66</sup> Chris b. Murphy. Understanding the Cash Flow Statement. April 04, 2022. <https://www.investopedia.com/investing/what-is-a-cash-flow-statement/>

<sup>67</sup> M.S.Tulayev. Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot shaklini xalqaro standartga muvofiqlashtirish. - T.: «Mustaqillik yillarida O'zbekiston moliya-bank tizimining rivojlanishi» mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani maqolalari to'plami. TDIU, 2016 yil 25 noyabr. b. 367

**7-son Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti bo'yicha "Pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobot"ning tarkibiy qismlari, ularning tavsifi va elementlari<sup>68</sup>**  
(Operatsion faoliyat bo'yicha)

Faoliyat turi	Tavsifi	Pul oqimlarining turlari bo'yicha elementlari
Operatsion faoliyat	tashkilotning asosiy daromad keltiruvchi faoliyati hamda investitsiya va moliyaviy faoliyatdan tashqari boshqa faoliyat turlari	(a) tovarlarni sotish va xizmatlarni ko'rsatishdan pul mablag'larining kelib tushishi; (b) royalti, xizmat haqlari, vositachilik haqlari va boshqa tushum ko'rinishidagi pul mablag'larining kelib tushishi; (v) yetkazib beruvchilarga tovarlar va xizmatlar uchun pul mablag'lari to'lovi; (g) xodimlarga va xodimlar nomidan pul mablag'lari to'lovi; (d) sug'urta tashkilotining mukofotlar va da'volar, annitetlar hamda sug'urta polisi bilan bog'liq boshqa to'lovlar bo'yicha pul mablag'lari kelib tushishi va pul mablag'lari to'lovi; (ye) moliyaviy yoki investitsiya faoliyatiga aniq tegishli bo'lmagan foyda solig'i bo'yicha pul mablag'lari to'lovi yoki ularning qaytarilishi; (yo) diling yoki savdo maqsadlarida tuzilgan shartnomalar bo'yicha pul mablag'lari kelib tushishi va pul mablag'lari to'lovi.

Fikrimizcha, taklif etilayotgan ushbu hisobot shakli xalqaro standartga to'liq mos keladi va korxonalarining moliyaviy holatini tahlil qilishda axborot manbai sifatida xizmat qiladi.

<sup>68</sup> 7-son Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti «Pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobot».

[https://www.mf.uz/media/file\\_uz/audit/2022/msfo/Uzb\\_GVT\\_BB2022](https://www.mf.uz/media/file_uz/audit/2022/msfo/Uzb_GVT_BB2022)

**7-son Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti bo'yicha "Pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobot"ning tarkibiy qismlari, ularning tavsifi va elementlari<sup>69</sup>**

(Investitsiya faoliyati bo'yicha)

Faoliyat turi	Tavsifi	Pul oqimlarining turlari bo'yicha elementlari
Investitsiya faoliyati	Uzoq muddatli aktivlarning va pul mablag'lari ekvivalentlariga kirmaydigan boshqa investitsiyalarning xarid qilinishi va hisobdan chiqarilishi	<p>(a) asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar va boshqa uzoq muddatli aktivlarni xarid qilish uchun amalga oshirilgan pul mablag'lari to'lovi. Ushbu to'lovlar kapitallashtiriladigan tajriba-konstruktorlik sarflari bo'yicha va tashkilotning o'zida yaratilgan asosiy vositalar bo'yicha to'lovlarni o'z ichiga oladi;</p> <p>(b) asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar va boshqa uzoq muddatli aktivlarni sotishdan pul mablag'lari kelib tushishi;</p> <p>(v) boshqa tashkilotlarning ulushli yoki qarz instrumentlarini va qo'shma korxonalaridagi ulushlarni xarid qilish uchun amalga oshirilgan pul mablag'lari to'lovi (diling va savdo uchun mo'ljallangan instrumentlar yoki pul mablag'lari ekvivalentlari bo'lib hisoblanadigan instrumentlar uchun qilingan to'lovlar bundan mustasno);</p> <p>(g) boshqa tashkilotlarning ulushli yoki qarz instrumentlarini va qo'shma korxonalaridagi ulushlarni sotishdan pul mablag'lari kelib tushishi (diling va savdo uchun mo'ljallangan instrumentlar yoki pul mablag'lari ekvivalentlari bo'lib hisoblanadigan instrumentlar bo'yicha pul mablag'larining kelib tushishi bundan mustasno);</p> <p>(d) boshqa tomonlarga berilgan avans pul mablag'lari va qarzlar (moliyaviy institutlar tomonidan berilgan avans pul mablag'lari va qarzlar bundan mustasno);</p> <p>(ye) boshqa tomonlarga berilgan avans pul mablag'lari va qarzlarning qaytarilishidan pul mablag'lari kelib tushishi (moliyaviy institutlarning avans pul mablag'lari va qarzlari bundan mustasno);</p> <p>(yo) fyuchers shartnomalari, forvard shartnomalari, opsiyon shartnomalari va svop shartnomalari bo'yicha pul mablag'lari to'lovi, ushbu shartnomalar diling yoki savdo uchun mo'ljallangan holatlar yoki to'lovlarni moliyaviy faoliyat sifatida tasniflanadigan holatlar bundan mustasno; va</p> <p>(j) fyuchers shartnomalari, forvard shartnomalari, opsiyon shartnomalari va svop shartnomalari bo'yicha pul mablag'lari kelib tushishi, ushbu shartnomalar diling yoki savdo uchun mo'ljallangan holatlar yoki pul mablag'lari kelib tushishi moliyaviy faoliyat sifatida tasniflanadigan holatlar bundan mustasno.</p>

<sup>69</sup> 7-son Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti «Pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobot». [https://www.mf.uz/media/file\\_uz/audit/2022/msfo/Uzb\\_GVT\\_BB2022\\_A\\_IAS07.pdf](https://www.mf.uz/media/file_uz/audit/2022/msfo/Uzb_GVT_BB2022_A_IAS07.pdf)

Iqtisodchi olim, prof. I.M. Alimardonov iqtisodiyotning pul mablag'lari bilan ta'minlanganlik darajasi nisbatan past bo'lganligi sababli yuzaga kelgan kichik biznes subyektlarining pul oqimini barqarorligini ta'minlash muammosini hal qilish maqsadida, davlat tomonidan kichik biznes subyektlarining debitorlik qarzlarning to'lanishi bo'yicha beriladigan kafolati muhim o'rin tutadi, deb ta'kidlaydi. Uning fikricha, bunday kafolatning berilishi tijorat banklarining, ularning debitor qarzlarni diskont stavkasi bo'yicha sotib olishdan manfaatdorligini oshiradi<sup>70</sup>.

Tadqiqot ishida "O'z kimyosanoat" AJ bo'yicha 2016–2021-yillarda investitsiyalarni o'zlashtirish ko'rsatkichlari tahlili va 2026-yilgacha prognoz ko'rsatkichlari keltirilgan.

14-jadval

**7-son Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti bo'yicha "Pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobot"ning tarkibiy qismlari, ularning tavsifi va elementlari<sup>71</sup>**  
(Moliyaviy faoliyat bo'yicha)

Faoliyat turi	Tavsifi	Pul oqimlarining turlari bo'yicha elementlari
Moliyaviy faoliyat	Tashkilot kiritgan kapitali va qarz mablag'larining miqdori va tarkibidagi o'zgarishlarga olib keladigan faoliyat	(a) aksiyalar yoki boshqa ulushli instrumentlarni muomalaga chiqarishdan pul mablag'lari kelib tushishi; (b) tashkilot aksiyalarini xarid qilish yoki muomaladan chiqarish uchun mulkdorlarga pul mablag'lari to'lovi; (v) qarz majburiyatlarini chiqarish, qarzlarni berish, veksellar, obligatsiyalar, garov va boshqa qisqa muddatli yoki uzoq muddatli qarz majburiyatlarini chiqarishdan pul mablag'lari kelib tushishi; (g) qarzlarni bo'yicha qaytarilgan pul mablag'lari to'lovi; va (d) ijarachi tomonidan ijara bo'yicha so'ndirilmagan majburiyatni kamaytirish uchun amalga oshirilgan pul mablag'lari to'lovi.

<sup>70</sup> I.M. Alimardonov. Kichik biznes subyektlari pul oqimining barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari. – T.: «Mustaqillik yillarida O'zbekiston moliya-bank tizimining rivojlanishi» mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani maqolalari to'plami. TDIU, 2016 yil 25 noyabr. 684 b.

<sup>71</sup> 7-son Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti «Pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobot». [https://www.mf.uz/media/file\\_uz/audit/2022/msfo/Uzb\\_GVT\\_BB2022\\_A\\_IA](https://www.mf.uz/media/file_uz/audit/2022/msfo/Uzb_GVT_BB2022_A_IA)

Pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobotning moliyaviy faoliyat bo'yicha tarkibiy qismlari, ularning tavsifi va elementlari bo'yicha turkumlash muhim ahamiyat kasb etadi (14-jadval). Moliyaviy faoliyatga xalqaro standartlar talablari bo'yicha tavsif berilsa, u tashkilot kiritgan kapitali va qarz mablag'larining miqdori va tarkibidagi o'zgarishlarga olib keladigan faoliyat, deb baholanadi.

Shuningdek, pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobot tuzishning nazariy, uslubiy va tashkiliy muammolari Kevin Bogle, Valeriye Boissou, L. Ashley Peters<sup>72</sup>, B.A. Xasanov va boshqalar<sup>73</sup>, Lykacevich I.YA.<sup>74</sup>larning ilmiy izlanishlarida atroflicha tadqiq etilgan.

Xalqaro tajribaning guvohlik berishicha, AQSHda umum-qabul qilingan milliy buxgalteriya hisobi tamoyillari GAAP (Generally Accepted Accounting Principles)ga muvofiq, pul oqimlari to'g'risidagi hisobot tuzishning boshlang'ich nuqtasi sof daromad hisoblanadi. MHXS(IFRS) standartlariga muvofiq esa, kompaniyalar operatsion pul oqimlari to'g'risida bilvosita usulda hisobot tuzish uchun turli xil boshlang'ich nuqtalardan foydalanishlari mumkin. Masalan, operatsion foyda yoki zarar, davom etayotgan faoliyatdan olingan foyda yoki zarar, soliq to'lagunga qadar foyda yoki zarar<sup>75</sup>.

Shuni ta'kidlash zarurki, tahlillarning ko'rsatishicha, MHXS standartlari foizlar, dividendlar va daromad solig'ini tasniflash

---

<sup>72</sup> Kevin Bogle, Valerie Boissou, Ashley L. Peters. Statement of cash flows: IFRS® Standards vs. US GAAP. <https://advisory.kpmg.us/articles/2021/statement-of-cash-flows.html> (Murojaat qilingan sana: 27.07.2022)

<sup>73</sup> B.A.Xasanov va boshq. Moliyaviy tahlil. Darslik. / - T.: «Iqtisodiyot», 2022. - 721 b.

<sup>74</sup> И.Я.Лукаевич Два метода формирования отчета о движении денежных средств. <http://www.elitarium.ru/otchet-o-dvizhenii-denezhnyh-sredstv-analiz-deyatelnost-rashody-pribyl/>

<sup>75</sup> Kevin Bogle, Valerie Boissou, Ashley L. Peters. Statement of cash flows: IFRS® Standards vs. US GAAP. <https://advisory.kpmg.us/articles/2021/statement-of-cash-flows.html> (Murojaat qilingan sana: 27.07.2022)



variantlarini taqdim etadi; AQSHning GAAP standartlarida bunday variant keltirilmagan.

Xalqaro amaliyotda 7-son Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti (IAS 7) "Pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobot"da foyda va zarar asosiy ko'rsatkich (boshlang'ich nuqta) sifatida belgilangan. Biroq mazkur standartda amaliy misol boshqa nuqtadan, ya'ni soliq to'lagunga qadar foyda yoki zarar ko'rsatkichidan boshlanadi. Fikrimizcha, pul oqimlari to'g'risida hisobot tuzishda foyda va zararlarni asos sifatida olish maqsadga muvofiq bo'ladi deb o'ylaymiz, chunki, misol tariqasida keltirilgan ko'rsatkich standart maqomiga ega emas va faqatgina namoyish xarakteriga ega hisoblanadi.

Pul oqimlari to'g'risida hisobot tuzishda boshlang'ich nuqta sifatida operatsion foyda yoki zarar olinganda MHXS standartlari va AQSHning GAAP standartlari bilan umumiy va xususiy jihatlarining farqlanishini qiyosiy tahlil qilamiz (15-jadval).

15-jadval

**MHXS va AQSHning GAAP standartlari bo'yicha operatsion foyda yoki zarar asosida pul oqimlari to'g'risida hisobot elementlarini qiyoslash<sup>76</sup>**

	MHXS (IFRS) standarti bo'yicha	AQSHning GAAP bo'yicha
To'langan foizlar	Operatsion yoki moliyalashtirish (odatda, undan moliya institutlari foydalanadi)	Operatsion (kapitalashtirilgan foizlarni hisobga olmaganda)
To'langan dividendlar	Operatsion yoki moliyalashtirish	Moliyalashtirish
Olingan foizlar va dividendlar	Operatsion yoki investitsiya (odatda, undan moliya institutlari foydalanadi)	Operatsion
To'langan soliqlar	Umuman operatsion faoliyat, agar soliqlarni investitsiya yoki moliyalashtirish faoliyati bilan birlashtirish imkoni bo'lmasa	Operatsion

<sup>76</sup> Kevin Bogle, Valerie Boissou, Ashley L. Peters. Statement of cash flows: IFRS® Standards vs. US GAAP. <https://advisory.kpmg.us/articles/2021/statement-of-cash-flows.html> (Murojihat qilingan sana: 27.07.2022)

Pul mablag'lari harakati bo'yicha hisobot tuzish muam-molarini tadqiq etgan olimlarning fikr-mulohazalarini tahlil qilib chiqamiz.

Prof. B.A. Xasanov va boshqa olimlarning ta'kidlashicha: "Bevosita usul – xo'jalik faoliyatidan pul mablag'lari harakatining ijobiy va salbiy farqlanishlarini aniqlashning kassa usulida hisob-kitob qilinishidir. Bilvosita usulda pul mablag'larini tahlil etishning axborot ta'minoti sifatida buxgalteriya balansi, metodologik asosi tahlilning balans usuli hisoblanadi. Mazkur usulda pul mablag'larining kirim qismida balans passivi mod-dalarining o'sishi va balans aktivi moddalarining kamayishi aks ettiriladi. Pul mablag'lari chiqimida esa balans aktiv moddala-rining ko'payishi va passiv moddalarining kamayishini xarakterlaydi"<sup>77</sup>.

Bevosita usul bilan pul oqimlari to'g'risidagi hisobot tuzish jarayonida operatsion faoliyatdan olingan pul oqimlarini aks ettiruvchi birinchi bo'lim tahlilchi uchun qiyinchilik tug'diradi.

16-jadval

**Pul oqimlari to'g'risidagi hisobotni bevosita usul bo'yicha tuzish maqsadida operatsion (asosiy) faoliyat elementlarini tasniflash<sup>78</sup>**

**(7-son BHXS asosida)**

No satr	Ko'rsatkichlar
1	+ Sotishdan olingan sof tushum
2	+ Debitorlik qarzining kamayishi; (—) ko'payishi
3	+ Olingan bo'naklar
4	= Mijozlardan olingan pul mablag'lari
5	(—) Sotilgan mahsulot va xizmatlarning tannarxi
6	+ Tovar-moddiy zaxiralarining ko'payishi; (—) kamayishi

<sup>77</sup> B.A.Xasanov va boshq. Moliyaviy tahlil. Darslik. / – T.: «Iqtisodiyot», 2022. – 721 b.

<sup>78</sup> И.Я.Лукаевич Два метода формирования отчета о движении денежных средств. <http://www.elitarium.ru/otchet-o-dvizhenii-denezhnyh-sredstv-analiz-dejatelnost-rashody-pribyl/>

## 16-jadvalning davomi

7	+ Kreditorlik qarzining kamayishi; (—) ko'payishi
8	+ Kelgusi davr xarajatlarining ko'payishi; (—) kamayishi
9	+ Davr xarajatlari
10	+ Boshqa majburiyatlarning kamayishi; (—) ko'payishi
11	= <b>Mol yuboruvchi va xodimlarga to'lovlar</b>
12	(—) Foizli xarajatlar
13	+ Hisoblangan foizlarning kamayishi; (—) ko'payishi
14	+ Kelgusidagi to'lovlar rezervining kamayishi; (—) ko'payishi
15	+ Sotishdan tashqari (Boshqa) daromadlar; (—) xarajatlar
16	= <b>Foizli va boshqa joriy xarajatlar va daromadlar</b>
17	(—) Soliqlar
18	+ Soliq to'lovlari bo'yicha qarzdorlikning / rezervlarning kamayishi; (—) ko'payishi
19	+ Soliq to'lovlari bo'yicha bo'naklarning ko'payishi; (—) kamayishi
20	= <b>To'langan soliqlar</b>
21	<b>Operatsion faoliyatdan olingan pul oqimlari</b> (satr. 4 — satr. 11 — satr. 16 — satr. 20)

Bevosita usulni qo'llashda yalpi pul tushumlari va to'lovlarning tarkibiy elementlari ochib beriladi. Bevosita usulning quyidagi afzalliklarini ta'kidlash lozim (16-jadval):

-pul mablag'lari kiriminin asosiy manbalari va chiqimining yo'nalishlarini ko'rsatib beradi;

-turli joriy majburiyatlar bo'yicha to'lovlar uchun mablag'larning yetarliligi to'g'risida tezkor xulosalar chiqarish imkonini beradi;

-xo'jalik subyektining kassa rejasi bilan bevosita bog'liqlik (naqd pul tushumlari va to'lovlar budjeti (rejasi) bilan pul oqimlari to'g'risidagi qiyoslanuvchanligi);

-hisobot davrida mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni sotish va pul tushumlari o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlaydi va h.k<sup>79</sup>.

<sup>79</sup> И.Я.Лукаевич Два метода формирования отчета о движении денежных средств. <http://www.elitarium.ru/otchet-o-dvizhenii-denezhnyh-sredstv-analiz-deyatelnost-rashody-pribyl/>

Ko'rib chiqilayotgan usulning kamchiligi shundaki, u olingan moliyaviy natija va kompaniya pul mablag'larining mutlaq miqdorining o'zgarishi o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlamaydi.

Xalqaro standartlar talablariga binoan xo'jalik subyektining pul oqimlari to'g'risidagi hisobotni operatsion faoliyat bo'yicha bevosita yoki bilvosita usullar yordamida tuzish tavsiya qilingan. Bunda bevosita usul yordamida pul oqimlarining yalpi kirimi va yalpi chiqimi bo'yicha hisobot tuzish tamoyillari va elementlari belgilab berilgan (17-jadval).

17-jadval

**Pul oqimlari to'g'risidagi hisobotni bilvosita usul bo'yicha tuzish uchun operatsion (asosiy) faoliyat elementlarini tasniflash<sup>80</sup>**  
**(7-son BHXS asosida)**

No satr	Ko'rsatkichlar
1	Sof foyda
2	+ Amortizatsiya
3	— Debitorlik qarzining ko'payishi; (+) kamayishi
4	— Tovar-moddiy zaxiralarining ko'payishi; (+) kamayishi
5	— Boshqa aylanma aktivlarning ko'payishi; (+) kamayishi
6	+ Kreditorlik qarzining ko'payishi; (—) kamayishi
7	+ To'lanadigan foizlarning ko'payishi; (—) kamayishi
8	+ Kelgusidagi to'lovlar rezervining ko'payishi; (—) kamayishi
9	+ Soliq to'lovlari bo'yicha qarzdorlikning ko'payishi; (—) kamayishi
10	= Operatsion faoliyatdan olingan pul oqimlari

Xalqaro amaliyotdagi tajriba va standartlar talablari bilan bir qatorda hozirgi paytda respublikamiz korxonalarida taqdim etilayotgan "Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot" 4-shaklini

<sup>80</sup> И.Я.Лукаевич Два метода формирования отчета о движении денежных средств. <http://www.elitarium.ru/otchet-o-dvizhenii-denezhnyh-sredstv-analiz-deyatelnost-rashody-pribyl/>

bo'limlari va elementlari kesimida tahlil qilish maqsadga muvofiqdir (18, 19, 20, 21, 22-jadvallar).

18-jadval

**“Farg‘onaazot” AJning operatsion faoliyati bo‘yicha pul oqimlarining tahlili<sup>81</sup>, mln.so‘m**

Ko‘rsatkichlar nomi	Satr kodi	2019		2020		2021	
		Kirim	CHiqim	Kirim	CHiqim	Kirim	CHiqim
<b>Operatsion faoliyat</b>							
Mahsulot (ish va xizmat)larni sotishdan kelib tushgan pul mablag‘lari	010	1 337 410,3		1 605 784,7		2 145 338,4	
Material, tovar, ish va xizmatlar uchun mol yetkazib beruvchilarga to‘langan pul mablag‘lari	020		700 649,5		899 118,9		941 883,3
Xodimlarga va ular nomidan to‘langan pul mablag‘lari	030		3 129,4		180 499,4		234 719,2
Operatsion faoliyatning boshqa pul tushumlar va to‘lovlari	040	8 945,4	206 856,2	4 339,6	33 918,9	17 193,8	94 283,6
<b>Jami operatsion faoliyatning sof pul kirimi / chiqimi (satr 010-020-030+/-040</b>	<b>050</b>	<b>435 720,6</b>		<b>496 587,1</b>		<b>891 646,1</b>	

Jadval tahlilining ko‘rsatishicha, “Farg‘onaazot” AJning operatsion faoliyati bo‘yicha pul oqimlari 2019, 2020 va 2021-

<sup>81</sup> «Farg‘onaazot» AJning 2019, 2020, 2021-yilgi moliyaviy hisobot ma‘lumotlari.  
<https://azot.uz/oz/menu/buhgalterskiy-balans-forma-1-forma-2>

yillarda jami operatsion faoliyatning sof pul kirimi mos ravishda 435 720,6 mln.so'm; 496 587,1 mln.so'm va 891 646,1 mln.so'mni tashkil etgan. 2021-yilda 2019-yilga nisbatan o'sish sur'ati 204,6 % bo'lgan. Mahsulot (ish va xizmat)larni sotishdan kelib tushgan pul mablag'lari kirimi bilan jami operatsion faoliyat chiqimlarini solishtirganda korxonada ijobiy to'lov qobiliyati mavjud ekanligini ko'ramiz.

19-jadval

**“Farg’onaazot” AJning investitsiya faoliyati bo’yicha pul oqimlarining tahlili<sup>82</sup>, ming so’m**

Ko'rsatkichlar nomi	Satr kodi	2019		2020		2021	
		Kirim	Chiqim	Kirim	Chiqim	Kirim	Chiqim
<b>Investitsiya faoliyati</b>							
Asosiy vositalarni sotib olish va sotish	060	834,9	172 376,9	3 125,0	7 042,9		77 675,6
Nomoddiy aktivlarni sotib olish va sotish	070		91,6		11,1		92,4
Uzoq va qisqa muddatli investitsiyalarni sotib olish va sotish	080				12 000,0		
Investitsion faoliyatning boshqa pul tushumlari va to'lovlari	090		1 000,0		13 000,0		16 022,7
<b>Jami investitsion faoliyatning sof pul kirimi/ chiqimi (sotr 060+/-070+/-080+/-090</b>	<b>100</b>		<b>172 633,5</b>		<b>28 929,0</b>		<b>93 790,8</b>

<sup>82</sup> «Farg’onaazot» AJning 2019, 2020, 2021-yilgi moliyaviy hisobot ma'lumotlari. <https://azot.uz/oz/menu/buhgalterskij-balans-forma-1-forma-2>

Taklifimizcha, 18-jadvalda Buxgalteriya hisobining milliy standartlari bo'yicha tuzilgan hisobotga xalqaro 7-son BHXSning operatsion faoliyat bo'yicha quyidagi elementlarini kiritishni zarur deb hisoblaymiz:

- sug'urta tashkilotining mukofotlar va da'volar, annuitetlar hamda sug'urta polisi bilan bog'liq boshqa to'lovlar bo'yicha pul mablag'lari kelib tushishi va pul mablag'lari to'lovi;

- moliyaviy yoki investitsiya faoliyatiga aniq tegishli bo'lmagan foyda solig'i bo'yicha pul mablag'lari to'lovi yoki ularning qaytarilishi;

- diling yoki savdo maqsadlarida tuzilgan shartnomalar bo'yicha pul mablag'lari kelib tushishi va pul mablag'lari to'lovi.

Moliyaviy faoliyat bo'yicha pul oqimlari tahlilini "Farg'onaazot" AJ misolida ko'rib chiqamiz (20-jadval).

20-jadval

**"Farg'onaazot" AJning moliyaviy faoliyati bo'yicha pul oqimlarining tahlili<sup>83</sup>, ming so'm**

Ko'rsatkichlar nomi	Satr kodi	2019		2020		2021	
		Kirim	Chiqim	Kirim	Chiqim	Kirim	Chiqim
<b>Moliyaviy faoliyat</b>							
Olingan va to'langan foizlar	110		329,9	116,3	5 140,5	1 912,1	
Olingan va to'langan dividendlar	120	265,2	7 082,7	268,0	16 113,5	8,0	162 088,8
Aksiyalar chiqarishdan yoki xususiy kapital bilan bog'liq bo'lgan boshqa instrumentlardan kelgan pul tushumlari	130	-	-	-	-	-	-
Xususiy aksiyalar sotib olingandagi pul to'lovlari	140	-	-	-	-	-	-

<sup>83</sup> «Farg'onaazot» AJning 2019, 2020, 2021-yilgi moliyaviy hisobot ma'lumotlari.  
<https://azot.uz/oz/menu/buhgalterskij-balans-forma-1-forma-2>

## 20-jadvalning davomi

Uzoq va qisqa muddatli kredit va qarzlarni bo'yicha pul tushumlari va to'lovlari	150	152,0	126 880,7	20 634,5	230 158,0	2 968,8	256 190,8
Uzoq muddatli ijara (moliyaviy lizing) bo'yicha pul tushumlari va to'lovlari	160	-	-	-	-	-	-
Moliyaviy faoliyatning boshqa pul tushumlari va to'lovlari	170	-	-	-	-	-	-
Jami moliyaviy faoliyatning sof pul kirimi / chiqimi (sitr 110+/-120 +130-140+/-150+/-160+/-170)	180		133 876,0		230 393,2		413 390,7

-royalti, xizmat haqlari, vositachilik haqlari va boshqa tushum ko'inishidagi pul mablag'larining kelib tushishi;

Jadval ma'lumotlarining ko'rsatishicha, jami moliyaviy faoliyatning sof pul chiqimi 2019, 2020, 2021-yillarda mos ravishda 133 876,0 mln.so'm; 230 393,2 mln.so'm va 413 390,7 mln.so'mni tashkil etgan. 2021-yilda 2019-yilga nisbatan pul oqimlari chiqimining o'sish darajasi 3 martadan ortiq bo'lgan. Aksiyadorlik jamiyati 2021-yilda olingan va to'langan foizlar bo'yicha 1 912,1 mln.so'm daromad olganligini ko'rishimiz mumkin. Hisobot yilida uzoq va qisqa muddatli kredit va qarzlarni bo'yicha pul tushumlari va to'lovlarning kirimi 2 968,8 mln.so'mni tashkil etgan. Biroq jami moliyaviy faoliyatning pul oqimlarining kirimi barqaror bo'lmaganligi sababli oxirgi uch yillikda sof pul chiqimlarining hajmi oshgan bo'lib, jamiyatning moliyaviy faoliyatida pul mablag'lariga ehtiyoj yuqori bo'lgan.



**“Farg’onaazot” AJning pul oqimlari tarkibida to’langan soliqlar salmog’ining tahlili<sup>84</sup>, mln.so’m**

Ko’rsatkichlar noml	Satr kodi	2019		2020		2021	
		Kirim	Chiqim	Kirim	Chiqim	Kirim	Chiqim
<b>Soliqqa tortish</b>							
To’langan daromad (foyda) solig’i	190		40 379,7		58 317,1		49 929,6
To’langan boshqa soliqlar	200		116 287,8		171 743,5		159 081,9
<b>Jami to’langan soliqlar (satr 190+200)</b>	<b>210</b>		<b>156 667,5</b>		<b>230 060,7</b>		<b>209 011,5</b>

Jadval tahlili natijasida “Farg’onaazot” AJning pul oqimlari tarkibida 2019, 2020, 2021-yillarda jami to’langan soliqlar mos ravishda 156 667,5 mln.so’m; 230 060,7 mln.so’m va 209 011,5 mln.so’m ekanligining guvohi bo’lamiz. 2021-yilda jami to’langan soliqlar tarkibida to’langan daromad (foyda) solig’ining salmog’i 23,9 %ni tashkil qilgan.

Bilvosita usulda foyda yoki zararga har qanday kechiktirilgan yoki hisoblangan o’tgan yoki kelgusi davrga tegishli operatsion faoliyatdan olingan pul mablag’larining kirimi va chiqimini, shuningdek, investitsiya hamda moliyaviy faoliyat bilan bog’liq pul oqimlarining daromad yoki xarajat moddalarini hisobga olgan holda hisobot tuziladi.

Hisoblash qulayligidan tashqari, operativ boshqaruvda bilvosita usuldan foydalanishning asosiy afzalligi shundaki, u moliyaviy natija va asosiy faoliyatga jalb qilingan aylanma mablag’larning o’zgarishi o’rtasidagi muvofiqlikni o’rnatish imkonini beradi.

<sup>84</sup> «Farg’onaazot» AJning 2019, 2020, 2021-yilgi moliyaviy hisobot ma’lumotlari.  
<https://azot.uz/oz/menu/buhgalterskiy-balans-forma-1-forma-2>

Keyingi bosqichda "Farg'onaazot" AJning faoliyat turlari bo'yicha pul mablag'lari bilan ta'minlanganlik holatining tahlilini umumiy holatda yakunlaymiz (22-jadval).

Jadval ma'lumotlarining guvohlik berishicha, so'nggi 3 yilda jamiyatda jami moliyaviy-xo'jalik faoliyatining sof pul kirimi 2020-2021-yillarda mos ravishda 7 204,2 mln.so'm va 175 453,1 mln.so'mni tashkil etgan. Biroq 2019-yilda jami pul mablag'lari chiqimi yuqori bo'lgan (27 456,5 mln.so'm).

Aksiyadorlik jamiyatining pul mablag'lari kirimi va chiqimini solishtirganimizda yil oxirida pul mablag'lari yetarli bo'lib, uning to'lov qobiliyati ijobiy, moliyaviy barqarorligi yuqori ekanligini ko'ramiz.

22-jadval

**"Farg'onaazot" AJning faoliyat turlari bo'yicha pul mablag'lari bilan ta'minlanganlik holatining tahlili<sup>85</sup>, mln.so'm**

Ko'rsatkichlar nomi	Satr kodi	2019		2020		2021	
		Kirim	Chiqim	Kirim	Chiqim	Kirim	Chiqim
Jami moliyaviy-xo'jalik faoliyatining sof pul kirimi / chiqimi (satr 050+/-100+/-180-210)	220		27 456,5	7 204,2		175 453,1	
Chet el valyutasidagi pul mablag'larini qayta baholashdan yuzaga kelgan kurs farqlari saldosi	221	3 175,2		2 931,9		375,6	
Yil boshidagi pul mablag'lari	230	28 105,5		3 824,2		13 960,4	
Yil oxiridagi pul mablag'lari	240	3 824,2		13 960,4		189 789,1	

<sup>85</sup> «Farg'onaazot» AJning 2019, 2020, 2021-yilgi moliyaviy hisobot ma'lumotlari. <https://azot.uz/oz/menu/buhgalterskij-balans-forma-1-forma-2>

Tadqiqotimiz davomida «KPMG Audit» MCHJ auditorlik tashkiloti tomonidan 2022-yil 25-aprelda tasdiqlagan auditorlik xulosasiga ilova qilingan “Navoiyazot” AJning 2020-yil uchun «Pul mablag'lari harakati to'g'risidagi konsolidatsiyalashgan hisoboti»ni tuzish usullarini amaliy misol tariqasida ko'rib chiqamiz (23-jadval).

Jadval ma'lumotlarini tahlil qilib, tadqiqot obyektining operatsion faoliyatda (foydalanilgan) sof pul oqimlari yetarli bo'lib, 2020-yilda 395 483 mln.so'mni tashkil etgan, bu ko'rsatkich 2019-yilda - 152 860 mln.so'm bo'lib, pul mablag'larining yetishmovchiligi kuzatilgan.

Investitsiya faoliyatida foydalanilgan sof pul mablag'lari bo'yicha 2020-yilda - 302 454 mln.so'mlik yetishmovchilik mavjud bo'lgan. 2019-yilning shu davrida bu ko'rsatkich - 875 745 mln.so'm ekanligiga guvoh bo'lamiz.

23-jadval

**“Navoiyazot” AJning 2020-yil uchun Pul mablag'lari harakati to'g'risidagi konsolidatsiyalashgan hisoboti<sup>86</sup>, mln.so'm**

	2020	2019
<b>Operatsion faoliyatdan olingan pul oqimlari</b>		
Yillik zarar	(1 395 829)	(1 038 804)
<i>Korrektirovkalar:</i>		
Mol-mulk, zavod va asbob-uskunalarning eskirishi	154 002	193 185
Tovar-moddiy zaxiralarning chiqib ketishidan foyda	(4 566)	(2 848)
Mol-mulk, zavod va asbob-uskunalarning chiqib ketishidan zarar	4 003	10 257
Hisoblangan jarimalar	152 693	103 118
Tovar-moddiy zaxiralar bo'yicha rezervlar	15 656	14 693
Qadsizlanishdan rezervning o'zgarishi va oldin hisobdan chiqarilgan moliyaviy aktivlar summasi	34 519	20 723
Pensiya majburiyatlariga xarajatlar	4 368	446
Sof moliyaviy xarajatlar	233 672	10 960
Valyuta kursi farqlari	1 060 293	1 123 643

<sup>86</sup> «Navoiyazot» AJning moliyaviy hisoboti asosida muallif hisob-kitobi.  
<https://www.navoiyazot.uz/oz/auditors>

## 23-jadvalning davomi

Daromad solig'idan foyda	(157 956)	(414 722)
Boshqalar	20 443	(17 289)
O'zgarishlar:		
Tovar-moddiy zaxiralar	76 654	(260 849)
Savdo va boshqa debitorlik qarzlari	25 619	18 865
Savdo va boshqa kreditorlik qarzlari	273 349	289 411
Boshqa soliq majburiyatlari	197 212	(5 053)
<b>Foyda solig'i va foizlarni to'langunga qadar operatsion faoliyatning pul oqimlari</b>	<b>694 132</b>	<b>45 736</b>
To'langan foyda solig'i	(21 708)	(14 156)
To'langan foizlar	(276 941)	(184 440)
<b>Operatsion faoliyatda (foydalanilgan) sof pul oqimlari</b>	<b>395 483</b>	<b>(152 860)</b>
<b>Investitsion faoliyatdan olingan pul oqimlari</b>		
Investitsiyalarni sotishdan olingan daromadlar	595	252
Mol-mulk, zavod va asbob-uskunalarni sotib olish	(303 049)	(875 910)
Boshqa investitsiyalarni sotib olish	-	(87)
<b>Investitsiya faoliyatida foydalanilgan sof pul mablag'lari</b>	<b>(302 454)</b>	<b>(875 745)</b>
<b>Moliyaviy faoliyatdan olingan pul oqimlari</b>		
Qarz olishdan olingan daromadlar	345 171	1 046 853
Aksiyadorlar bilan boshqa bitimlar	(5 000)	-
Qarzlarni qaytarish	(437 510)	(15 696)
<b>Moliyaviy faoliyatda (foydalanilgan) sof pul oqimlari</b>	<b>(97 339)</b>	<b>1 031 157</b>
<b>Pul mablag'lari va ularning ekvivalentlarining sof (kamayishi)/ o'sishi</b>	<b>(4 310)</b>	<b>2 552</b>
1-yanvar holatiga pul mablag'lari va ularning ekvivalentlari	5 159	2 607
31-dekabr holatiga pul mablag'lari va ularning ekvivalentlari	849	5 159

Aksiyadorlik jamiyati tomonidan moliyaviy faoliyatda foydalanilgan sof pul oqimlari 2020-yilda - 97 339 mln.so'm, 2019-yilda 1 031 157 mln.so'mga ta'minlanganligini ko'rishimiz mumkin.

Umumiy pul oqimlari ahvoliga baho beradigan bo'lsak, 31- dekabr holatiga pul mablag'lari va ularning ekvivalentlari bilan ta'minlanganlik darajasi 2019-yilda 5 159 mln.so'm, 2020-yilda esa 849 mln. so'mni tashkil etganligini ijobiy holat, deb baholash mumkin.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida milliy iqtisodiyotimizda qo'llanilayotgan "Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot" (4-shakl)ni 7-

son Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti bo'yicha "Pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobot" talablariga moslashtirish maqsadida quyidagi ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. O'zbekiston amaliyotida qo'llanilayotgan "Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot" (4-shakl)dagi "Soliqqa tortish" nomli bo'limni bekor qilish va uni xalqaro tamoyillarga ko'ra operatsion, investitsion va moliyaviy faoliyatlar o'rtasida taqsimlash maqsadga muvofiq.

2. Xalqaro standart talablari bo'yicha amaldagi pul oqimlari to'g'risidagi hisobot shaklini "Pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobot" shakliga moliyaviy hisobot tuzish tamoyillari, tarkibiy qismlari va elementlari bo'yicha qayta tasniflash lozim. Shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi tomonidan hisobotning yagona formati tasdiqlansa, iqtisodiyot subyektlari, manfaatdor vazirlik va idoralar tarmoq xususiyatlarini inobatga olib o'zlari uchun unifikatsiyalashgan va standartlashgan holda qiyoslanuvchan, bir xil qiymatga keltirilgan hisob registriga ega bo'lar edilar.

3. Respublikamiz iqtisodiyotida naqd pulsiz hisob-kitoblarning xalqaro hisoblash usuli va kassa usulining modifikatsiyalangan shakli, ya'ni 15% oldindan to'lov qilish tartibi amal qilmoqda. Shu munosabat bilan, pul mablag'lari harakati to'g'risida hisobot tuzishning xalqaro standartlari (7-son IFRS)da tavsiya etilgan bevosita usul yoki bilvosita usulni qo'llash jarayonida boshlang'ich nuqta sifatida operatsion foyda yoki zarar, davom etayotgan faoliyatdan olingan foyda yoki zarar, soliq to'lagunga qadar foyda yoki zararni olish tavsiya etilgan.

AQSHning milliy standarti US GAAP bo'yicha esa pul oqimlari to'g'risidagi hisobot tuzishning boshlang'ich nuqtasi sifatida sof daromad tan olinadi. Demak, mamlakatimiz

amaliyotida qo'llanilayotgan pul oqimlari to'g'risidagi hisobot shaklini yuqoridagi hisobot tuzish tamoyillariga transformatsiya qilish zarur, deb hisoblaymiz.

#### **2.4. Xususiy kapital to'g'risidagi hisobotni xalqaro standartlarga uyg'unlashtirish**

Xususiy kapital bilan uzoq muddatli aktivlarning mutanosibligi muhim ahamiyatga ega bo'lib, hozirgi paytda ustav kapitalining shakllantirilishi bu mutanosiblikni buzmoqda. Ustav kapitalining shakllanish jarayoni davri bilan hisobot davri oralig'idagi aktivlarning kirimi va chiqimi xalqaro standartlar talabiga mos kelmaydi. Shu sababli ustav kapitalini "Asosiy vositalar" schyoti (balans satri)ning o'zgarishi bilan bevosita bog'liq qilib korrespondentsiyalash zarur. Bo'lmasa, oqibatda xo'jalik subyekti mulki va uning manbalari bir-biriga mos kelmasligi sababli, sun'iy bankrotlik holati paydo bo'laveradi.

Fikrimizcha, amaliyotda qo'llanilayotgan "Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot"<sup>87</sup> 5-sonli shaklni zamonaviy talablarga moslashtirish zarur, chunki u qabul qilingan yigirma yil ichida jahon va mamlakatimiz iqtisodiyotida ko'plab o'zgarishlar sodir bo'ldi, hisob-tahlil jarayonlari raqamlashtirildi.

Tadqiqot ishida xususiy kapitalni moliyaviy hisobot elementi sifatida xalqaro standartlarga transformatsiya qilish maqsadida 8300-«Aksiyadorlik (pay) kapitali», 8400-«Emission (daromad) kapitali» schyotlarini kiritish zarurligi asoslangan va ularning o'zaro korrespondensiyasi, hisob registri taklif qilingan.

---

<sup>87</sup> O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2002-yil 27-dekabrda 140-son buyrug'iga 5-son ILOVA

**8300-«Aksiyadorlik (pay) kapitali» va 8400-«Emission (daromad) kapitali»ni hisobga oluvchi schyotlarning o'zaro bog'lanishi bo'yicha takliflar<sup>88</sup>**

T/r	Schyotning tavsifi va u bilan bog'liq xo'jalik muomalalarining mazmuni	Schyotlarning bog'lanishi	
		Debet	Kredit
<b>8300-«Aksiyadorlik (pay) kapitali»</b>			
1	8300 - "Ustav kapitali" sintetik schyotida tashkilot mulki tarkibida ta'sischilar hissalarining ulushi yoki nominal qiymatdagi aksiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar hisobga olib boriladi. Korxonada davlat ro'yxatidan o'tkazilgandan keyin ta'sis hujjatlarida ko'zda tutilgan summada ustav kapitali tasdiqlandi, xususan:		
	8310 - "Oddiy aksiyalar" subschyotida nominal qiymatdagi oddiy aksiyalar ko'rinishida chiqarilgan aksiyadorlik kapitali hisobga olindi.	4610	8310
	8320 - "Imtiyozli aksiyalar" subschyotida nominal qiymatdagi imtiyozli aksiyalar ko'rinishida chiqarilgan aksiyadorlik kapitali hisobga olindi.	4610	8320
<b>8400-«Emission (daromad) kapitali»</b>			
	8400 - «Emission (daromad) kapitali» sintetik schyotida qo'shimcha to'langan kapital, ya'ni emissiya hisobi yuritiladi. Xususan:		
	8410-«Emissiya daromadi» subschyotida qo'shimcha chiqarilgan va to'langan aksiyalar bo'yicha emissiya daromadining kelib tushishi hisobga olindi.	5010-5530	8410
	8420 - "Boshqa qo'shimcha to'langan kapital" subschyotida tashkilot tomonidan ta'sischilardan (aksiyadorlardan) beg'araz olingan aktivlar va Ustav kapitalining shakllanish jarayonida paydo bo'lgan ijobiy kurs farqi hisobga olindi.	Mol-mulkni hisobga oluvchi schyotlar	8420

Xalqaro standartlarda xususiy kapital o'zgarishi to'g'risidagi hisobotning asosiy qoidalariga e'tibor qaratamiz.

Tashkilot xususiy kapitalining o'zgarishi to'g'risidagi hisobotda yoki moliyaviy hisobotga berilayotgan izoh va tushuntirishlarda quyidagi axborotlarni majburiy tartibda taqdim qilishlari shart:

<sup>88</sup> Amaldagi 21-BHMS va Namunaviy schyotlar rejasi asosida muallif ishlanmasi.

unda to'rtta ustunda: oddiy aksiyalar va qo'shimcha to'langan kapital (aksiyalar soni, summasi), taqsimlanmagan foyda, jamg'arilgan boshqa jami daromad (zarar) va umumiy aksiyadorlik kapitalining summasi aks ettirilganligining guvohi bo'lamiz (26-jadval).

26-jadval

**"Apple.Inc" kompaniyasi aksiyadorlik kapitali to'g'risidagi konsolidatsiyalashgan hisoboti<sup>92</sup>, mln. AQSH doll.**

Ko'rsatkichlar	Oddiy aksiyalar va qo'shimcha to'langan kapital		Taqsimlanmagan foyda	Jamg'arilgan boshqa jami daromad (zarar)	Jami aksiyadorlik kapitali
	Aksiyalar, summasi	Soni			
2021-yil 1-yanvariga qoldiq	5 126 201	35 867	98 330	(150)	134 047
Hisob siyosatiga kiritilgan o'zgarishlar natijasida olingan samara	-	-	278	(278)	-
Sof daromad	-	-	59 531	-	59 531
Boshqa jami daromad / (zarar)	-	-	-	(3 026)	(3 026)
Dividendlar va dividendlarning ekvivalentlari	-	-	(13 735)	-	(13 735)
Oddiy aksiyalarni sotib olish	(405 549)	-	(73 056)	-	(73 056)
Aksiyalar asosida to'langan kompensatsiya	-	5 443	-	-	5 443
Chiqarilgan oddiy aksiyalar (xodimlarga daromad solig'i to'lashda hisobga olinadigan aksiyalarsiz)	34 334	(1 109)	(948)	-	(2 057)
2021-yil 31-dekabr qoldiq	4 754 986	40 201	70 400	(3 454)	107 147

<sup>92</sup> «Apple.Inc» kompaniyasi moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitobi.  
<https://www.double-entry-bookkeeping.com/capital/statement-of-changes-in-equity/>



Mamlakatimizdagi tuzilayotgan xususiy kapital to'g'risidagi hisobot yettita ustundan iborat bo'lib, ularning aksariyati xalqaro standartlar elementlariga mos emasligini ko'ramiz.

«KPMG Audit» MCHJ auditorlik tashkiloti tomonidan 2022-yil 25-aprelda tasdiqlangan auditorlik xulosasiga ilova qilingan «Navoiyazot» AJning 2020-yil uchun «Xususiy kapitaldagi o'zgarishlar to'g'risidagi konsolidatsiyalashgan hisoboti»ni tuzish usullarini tadqiq etgan holda undagi moddalarni qiyosiy tahlil qilib chiqamiz (27-jadval).

27-jadval

**«Navoiyazot» AJning 2020-yil uchun Xususiy kapitaldagi o'zgarishlar to'g'risidagi konsolidatsiyalashgan hisoboti<sup>93</sup>, mln.so'm**

	Kompaniyaning aksiyadorlariga tegishli			
	Ustav kapitali	Rezervlar	Taqsimlanmagan foyda	Jami
<b>2019-yil 1-yanvarga qoldiq</b>	<b>61 320</b>	<b>96</b>	<b>(6 059 957)</b>	<b>(5 998 541)</b>
<b>Umumiy jamg'arilgan zarar</b>				
Yillik zarar	-	-	(1 038 804)	(1 038 804)
<b>Boshqa jamg'arilgan daromad</b>				
Boshqa jamg'arilgan daromad orqali aksiyadorlik kapitaliga haqqoniy qiymatdagi investitsiyalar – haqqoniy qiymatning sof o'zgarishi	-	4 602	-	4 602
Pensiya majburiyatlarining o'zgarishi	-	(33 890)	-	(33 890)
Tegishli daromad solig'i	-	(694)	-	(694)
<b>Jami boshqa jamg'arilgan zarar</b>	<b>-</b>	<b>(29 982)</b>	<b>-</b>	<b>(29 982)</b>
<b>Yillik jami jamg'arilgan zarar</b>	<b>-</b>	<b>(29 982)</b>	<b>(1 038 804)</b>	<b>(1 068 786)</b>
<b>Jamiyat aksiyadorlari bilan bitimlar</b>				
Dividendlar	-	-	(1 361)	(1 361)
Jamiyat aksiyadorlari bilan boshqa bitimlar	-	-	952 249	952 249
<b>Jamiyat aksiyadorlari bilan jami bitimlar</b>	<b>-</b>	<b>-</b>	<b>950 888</b>	<b>950 888</b>
<b>2019-yil 31-dekabrda qoldiq</b>	<b>61 320</b>	<b>(29 886)</b>	<b>(6 147 873)</b>	<b>(6 116 439)</b>

<sup>93</sup> «Navoiyazot» AJning moliyaviy hisoboti asosida muallif hisob-kitobi.  
<https://www.navoiyazot.uz/oz/auditors>

<b>2020-yil 1-yanvarga qoldiq</b>	<b>61 320</b>	<b>(29 886)</b>	<b>(6 147 873)</b>	<b>(6 116 439)</b>
<b>Umumiy jamg'arilgan zarar</b>				
Yillik zarar	-	-	(1 395 829)	(1 395 829)
<b>Boshqa jamg'arilgan daromad</b>				
Boshqa jamg'arilgan daromad orqali aksiyadorlik kapitaliga haqqoniy qiymatdagi investitsiyalar – haqqoniy qiymatning sof o'zgarishi	-	(809)	-	(809)
Pensiya majburiyatlarining o'zgarishi	-	2 005	-	2 005
Tegishli daromad solig'i	-	121	-	121
<b>Jami boshqa jamg'arilgan zarar</b>	<b>-</b>	<b>1 317</b>	<b>-</b>	<b>1 317</b>
<b>Yillik jami jamg'arilgan zarar</b>	<b>-</b>	<b>1 317</b>	<b>(1 395 829)</b>	<b>(1 394 512)</b>
<b>Kompaniya egalari bilan bitimlar</b>				
Oddiy aksiyalar chiqarish	904	-	-	904
Kompaniya egalari bilan boshqa bitimlar	(481)	-	15 427	14 946
<b>Kompaniya egalari bilan jami bitimlar</b>	<b>423</b>	<b>-</b>	<b>15 427</b>	<b>15 850</b>
<b>2020-yil 31-dekabrda qoldiq</b>	<b>61 743</b>	<b>(28 569)</b>	<b>(7 528 275)</b>	<b>(7 495 101)</b>

Yuqoridagi jadvalning ustunlarini gorizontol holda tahlil qiladigan bo'lsak, bu hisobot xalqaro "KPMG" auditorlik kompaniyasi usuli bo'yicha tuzilgan va "Apple.Inc" kompaniyasining xususiy kapitaldagi o'zgarishlar to'g'risidagi hisobotiga mantiqan mos keladi.

Mazkur muammolarda ilmiy izlanishlar olib borgan A.Ermatov tomonidan xususiy kapital elementlarini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiqlashtirish, samarali tahlil qilish va iqtisodiy baholash yuzasidan xo'jalik jamiyatlari uchun mos bo'lgan guruhlash tizimi shakllantirilgan.

Xususiy kapital elementlarini muassislar, korxonalar ishlab topgan mablag'lar va kelgusida o'zlashtirilishi kutilayotgan mablag'lar guruhlari ajratgan holda yillar davomidagi o'sish ko'rsatkichlarini tahlil etish va axborotlarni taqdim etish

moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari maqsadlariga mos bo'ladi va tahlilning tushunarlilik darajasini oshiradi<sup>94</sup>.

"Xususiy kapitaldagi o'zgarishlar to'g'risidagi hisobot"ni tuzishning uslubiy asosi bo'lib quyidagi xalqaro standart(IAS, IFRS)lar hisoblanadi:

MHXS 3 Biznes birlashuvlari (IFRS 3 Business Combinations);

MHXS 7 Moliyaviy vositalar: YOritish (IFRS 7 Financial Instruments: Disclosure);

BHXS 21 Valyuta kurslaridagi o'zgarishlar ta'siri (IAS 21 The Effects of Changes in Foreign Exchange Rates);

BHXS 32 Moliyaviy vositalar: Taqdimot (IAS 32 Financial Instruments: Presentation);

BHXS 36 Aktivlar qiymatining qadrsizlanishi (IAS 36 Impairment of Assets);

BHXS 39 Moliyaviy vositalar: tan olish va baholash (IAS 39 Financial Instruments: Recognition and Measurement).

Xulosa qilganimizda, xalqaro amaliyotni tahlil qilish, mamlakatimizda xususiy kapital bo'yicha milliy standartlar (BHMS) va xalqaro standartlarga transformatsiya, konversiya yoki konsolidatsiya qilinayotgan hisobotlarni taqqoslab ko'rilganda, bu sohadagi turfa va xilma-xil usullarga duch kelamiz. Bu aksariyat hollarda korxonalarining o'z faoliyat natijalarini zarar bilan yakunlayotganligini, bunga buxgalteriya hisobi va hisoboti shakllari, registrlari hamda schyotlar rejasi o'rtasida nomutanosibliklar mavjudligi sabab bo'layotganligini e'tirof etish maqsadga muvofiq, deb o'ylaymiz.

---

<sup>94</sup> Ermatov A. Xususiy kapitalning buxgalteriya hisobi va auditini takomillashtirish muammolari. Iqt. fanl. fals. dokt. (Doctor of Philosophy) disser. avtoreferati. Farg'ona. 2020. b. 9, 15.

## **Ikkinchi bob bo'yicha xulosa**

Tadqiqot ishining ikkinchi bobi doirasida amalga oshirilgan izlanishlar natijasida quyidagi xulosalarga kelindi.

Mazkur bobda moliyaviy hisobotning asosiy shakllari va elementlarini takomillashtirish maqsadida amaldagi buxgalteriya balansi, moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot, pul oqimlari to'g'risidagi hisobot, xususiy kapital to'g'risidagi hisobot shakllarini xalqaro amaliyotdagi "Moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot", "Foyda yoki zarar va boshqa umumlashgan daromad to'g'risidagi hisobot", "Pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobot", "Xususiy kapitaldagi o'zgarishlar to'g'risidagi hisobot" va tushuntirishlar, izohlarga moslashtirish, uyg'unlashtirish bo'yicha ilmiy tavsiya va amaliy takliflar berilgan. Natijada quyidagi masalalar yuzasidan mualliflik yondashuvlari shakllantirilgan:

Moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotning mazmuni, tuzilishi va taqdim etilishi hamda uni takomillashtirish bo'yicha yangi schyotlar ochish, ularni korxonaning hisob siyosatiga kiritish taklif etilgan.

Foyda yoki zarar va boshqa umumlashgan daromad to'g'risidagi hisobotning mazmuni va tuzish uslublarini takomillashtirish maqsadida ularni xalqaro hisoblash tamoyili asosida tayyorlash hamda vertikal balans-brutto shaklida taqdim etishning «Ishchi transformatsiya jadvallari» ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan;

Xususiy kapital to'g'risidagi hisobotning xalqaro va milliy jihatlarini uyg'unlashtirish maqsadida 8300-«Aksiyadorlik (pay) kapitali», 8400-«Emission (daromad) kapitali» schyotlarini kiritish zarurligi asoslangan va ularning o'zaro korrespondensiyasi, hisob registri taklif qilingan.

Mazkur bobda xalqaro standartlar asosida pul oqimlari to'g'risidagi moliyaviy hisobot tuzish usullarini takomillashtirish masalalari tadqiq etilgan. Xususan, pul oqimlarini boshqarish muammolariga bag'ishlangan adabiyotlar sharhi amalga oshirilgan, xalqaro standartlarning talablari bayon etilgan. Aniq xo'jalik yurituvchi subyekt misolida tuzilgan pul oqimlari to'g'risidagi uch yillik davrdagi hisobot tahlil qilinib, uni buxgalteriya hisobining xalqaro standartlariga transformatsiya qilish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Xalqaro "Apple.Inc", "Amazon.com" va boshqa kompaniyalarning moliyaviy hisobotlari solishtirma tahlil qilinib, "Navoiyazot" AJ, "Farg'onaazot" AJ, "Global Komsco Daewoo" xorijiy korxonalarining milliy standartlar bo'yicha tuzilgan hisobotlarini "KPMG Audit" auditorlik tashkiloti tomonidan ijobiy xulosa berilgan holda, ularni xalqaro standartlarga transformatsiya qilish bo'yicha uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

### III BOB. MOLIYAVIY HISOBOTNI TAHLIL QILISHNI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

#### 3.1. Xo'jalik subyektining moliyaviy salohiyatiga sof aktivlar va moliyaviy leverij koeffitsiyentlari ta'sirining tahlili

Xalqaro amaliyotda xo'jalik subyektining moliyaviy salohiyatini baholashda sof aktivlar qiymatiga muhim ahamiyat qaratiladi.

Sof aktivlar deganda xo'jalik yurituvchi subyektning o'z mablag'lari bilan ta'minlanganligi, ya'ni uzoq muddatli va joriy aktivlarning qiymatidan jami majburiyatlarning qiymati ayirmasi tushuniladi.

Sof aktivlar qiymatini aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$\text{Aktivlar} - \text{Majburiyatlar} = \text{Sof aktivlar}$$

28-jadval

#### “GLOBAL KOMSCO DAEWOO” MCHJ xorijiy korxonasi sof aktivlarining shakllanishi tahlili<sup>95</sup>, ming so'm

Balans moddalari	Balans satri	2019	2020	Farqi, (+,-)
<b>Asosiy vositalar:</b>				
Qoldiq (balans) qiymati	012	54 404 779,45	65 920 341,36	+11 515 561,91
Kapital qo'yilmalar	100	3 789 273,52	7 731 397,38	+3 942 123,86
Tovar-moddiy zaxiralari, jami	140	56 111 981,88	47 102 816,0	-9 009 165,88
Kelgusi davr xarajatlari	190	4 355,27	36 908,28	+32 553,01
Debitorlar, jami	210	31 171 351,09	56 194 645,89	+25 023 294,8
Pul mablag'lari	320	31 096 248,53	66 896 496,34	+35 800 247,81

<sup>95</sup> «GLOBAL KOMSCO DAEWOO» MCHJ XKning moliyaviy hisoboti asosida muallif ishlanmasi.

## 28-jadvalning davomi

Jami aktivlar	JA	176 577 989,74	243 882 605,25	+67 304 615,51
Ustav kapitali	410	17 778 640	17 778 640	0
Uzoq muddatli majburiyatlar	490	218 673 880	230 492 240	+11 818 360
Joriy majburiyatlar	600	13 136 354,38	34 089 449,74	+20 953 095,36
Jami majburiyatlar	JM	231 810 234,38	264 581 689,74	+32 771 455,36
Sof aktivlar	JA-JM	-55 232 244,64	-20 699 084,49	-34 533 160,15

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, tadqiqot obyektida xo'jalik mablag'lari va ularning manbalarining harakati buxgalteriya balansi shaklida aks ettirilgan (28-jadval). Shuningdek, "GLOBAL KOMSCO DAEWOO" MCHJ xorijiy korxonasida 2020-yilda uchta ko'rsatkich bo'yicha o'sish kuzatilgan: asosiy vositalar qoldiq (balans) qiymati 11 515 561,91 ming so'm, kapital qo'yilmalar 3 942 123,86 ming so'm, debitorlik qarzlari 25 023 294,8 ming so'm. Shundan, debitorlik qarzlarning 180,3 foizga oshganligi shartnomaviy majburiyatlarning ijrosini uning turlari bo'yicha tahlil qilib, zaruriy chora-tadbirlar ishlab chiqishni talab qiladi.

Sof aktivlar va ular samaradorligi tahlili natijalarining ko'rsatishicha, jami aktivlarning qiymati joriy davrda 67 304 615,51 ming so'mga ko'paygan. Ustav kapitali yil davomida o'zgarishsiz qolgan, ya'ni davr boshi va oxirida 17 778 640 ming so'mni tashkil etgan.

Quyidagi 5 yillik jadval ma'lumotlari asosida tadqiqot obyektida sof aktivlar qiymati 2016-yilda -20 405 992,2 ming so'm bo'lganligi, 2020-yilda bu raqam -20 699 084,49 min so'mni tashkil qilganligini kuzatamiz. Sof aktivlar qiymati 2016-2020-yillar oralig'ida 2-5 martagacha kamayganligining guvohi bo'lamiz. Bu shundan dalolat beradiki, korxonada balans passivining birinchi bo'limidagi xususiy kapital qiymati yetarli

darajada shakllantirilmagan va moliyalashtirish manbalari jamlanmagan.

29-jadval

**“GLOBAL KOMSCO DAEWOO” mas’uliyati cheklangan jamiyat xorijiy korxonasining moliyaviy salohiyatiga sof aktivlarning ta’siri tahlili, mln.so’m**

N <sup>o</sup>	Ko’rsatkichlar	2016	2017	2018	2019	2020
1.	Sof aktivlar qiymati	-20 406,0	-118 589,1	-71 985,4	-55 232,2	-20 699,1
2.	Uzoq muddatli aktivlar	55 381,8	56 343,8	55 632,0	58 194,0	73 651,7
3.	Joriy aktivlar	34 957,6	54 967,0	102 124,0	118 384,0	170 230,8
4.	Uzoq muddatli majburiyatlar	94 553,1	206 412,2	195 979,4	218 673,9	230 492,2
5.	Joriy majburiyatlar	16 192,3	23 487,7	33 761,8	13 136,3	34 089,4
6.	Sof tushum	53 981,2	109 864,6	153 257,5	152 985,0	208 369,4
7.	Sof foyda	-4 437,6	-101 795,2	38 642,8	12 065,6	30 485,3
8.	Sof aktivlarning jami aktivlarda to’planish koeffitsiyenti (1-satr / 2-satr +3-satr)	-0,22	-1,06	-0,45	-0,31	-0,08
10.	Sof aktivlarning aylanuvchanligi koeffitsiyenti (6-satr / 1-satr)	-2,6	-0,9	-2,1	-2,8	-10,1
11.	Sof aktivlarning aylanish davri, kunda (1-satr / 6-satr * 360)	-136,1	-388,6	-169,1	-129,9	-35,7
12.	Sof aktivlar rentabelligi, % (7-satr / 1-satr)	21,7	85,8	-53,7	-21,8	-147,3

Sof aktivlar qiymatiga ta’sir etuvchi omillardan salmoqlisi uzoq muddatli majburiyatlar bo’lib, u 2016-yilda 94 553 104,80 ming so’mni tashkil etgan. 2020-yilga kelib ular 230 492 240,0 ming so’m bo’lgan yoki 2,5 baravarga oshganligini ko’ramiz. Sof aktivlarning jami aktivlarda to’planish koeffitsiyenti mezoni 0,5 bo’lishi maqbul deb topilgan bir paytda bu ko’rsatkich 2016-yilda -0,22 va 2020-yilda -0,08 koeffitsiyent bo’lganligi ayon bo’ldi. 2020-yilda sof aktivlarning aylanuvchanli koeffitsiyenti -10,1; sof



aktivlarning aylanish davri -35,7 kun va sof aktivlarning rentabelligi past ya'ni -147,3 foiz bo'lganligini ko'rishimiz mumkin.

Demak, mazkur korxonada sof aktivlar qiymatining manfiy ko'rsatkich bilan chiqishi asosan ikkita omilga bog'liq:

ustav kapitalining shakllanishi va o'sib borishining ta'minlanmaganligi;

joriy yilning taqsimlanmagan foydasini o'tgan yillarda valyuta kursidan ko'rilgan zararlar hisobidan o'sib boruvchi tartibda kamaytirilib borilayotganligi.

Ushbu kamchilikni bartaraf etish maqsadida tadqiqot ishida kimyo sanoati korxonalarining iqtisodiy va moliyaviy salohiyatiga mulk, aksiyadorlik kapitali, emission kapital va majburiyatlar omillari ta'sirining 2026-yilgacha bo'lgan prognozi ishlab chiqilgan.

Yuqoridagi hisob-kitoblar asosida "GLOBAL KOMSCO DAEWOO" mas'uliyati cheklangan jamiyati xorijiy korxonasining moliyaviy salohiyatiga sof aktivlarning ta'siri tahlili tadqiqotning 3.2. paragrafida ekonometrik modellashtirish yordamida 2025-yilgacha prognoz qilingan.

Xalqaro nazariyot va amaliyotda tan olingan va qo'llanilayotgan moliyaviy dastak (richag) ko'rsatkichlari xorijda "Leverij" nomi bilan keng tarqalgan. Xo'jalik yurituvchi subyektlar menejerlari tomonidan samaradorlikning muhim ko'rsatkichi sanalgan moliyaviy dastakni hisoblash va uning samarasini baholash uslubiyoti hali mamlakatimizda amal qilayotgan me'yoriy-huquqiy hujjatlarda o'z aksini topmagan. U "BIG 4" va xalqaro 17 talik auditorlik tarmog'iga kirgan tashkilotlar tomonidan moliyaviy hisobotni tahlil qilishda, asosan, yirik soliq to'lovchilar va banklar tomonidan amaliyotda qo'llanilmoqda, xolos.

Moliyaviy dastak - bu kompaniyaning kapitali tarkibida doimiy daromadli qimmatli qog'ozlar va imtiyozli aksiyalardan foydalanish darajasi. Moliyaviy dastak AQSH korporativ daromad solig'i to'g'risidagi qonunchiligida nazarda tutilgan foizlar solig'i bo'yicha imtiyoz tufayli muhim ahamiyat kasb etadi. Moliyaviy dastakdan foydalanish aktivlarni moliyalashtirish uchun ishlatilgan qarz kapitalidan ko'proq daromad olganda qiymatga ega<sup>96</sup>.

Moliyaviy richagni hisoblashda mazkur ko'rsatkichni baholash bir qancha moliyaviy koeffitsiyentlar orqali amalga oshiriladi. Hozirgi paytda moliyaviy dastak ko'rsatkichi xususiy kapital summasini majburiyatlarning jamiga bo'lish orqali aniqlanmoqda. Bu ko'rsatkichning muhim xususiyati shundaki, uni hisoblash barobarida xo'jalik subyektining moliyaviy barqarorligi va rentabelligiga baho berish imkoniyati tug'iladi.

Moliyaviy dastakning turlari, uni hisoblash algoritmi va samaradorligi tahlili bosqichlarini ko'rib o'tamiz.

Xo'jalik subyektining istiqboldagi moliyaviy barqarorligini tahlil etish va bashoratlashda xususiy kapital va majburiyatlarning o'zaro bog'liqligi nisbatidan kelib chiqiladi.

Moliyaviy dastak ko'rsatkichlarini tahlil etish tahlilchi va menejerlarga rentabellikni qo'shimcha o'stirish imkoniyatlarini aniqlashda, ichki va tashki omillar ta'sirida foydaning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarning risk darajalarini baholashga imkon beradi.

Moliyaviy dastaklardan foydalanish samaradorligi bo'yicha quyidagi turlarga bo'linadi: ijobiy (foyda summasi kreditlar, qarzlar yuzasidan foizlar to'lovidan ortgan hollarda); neytral

---

<sup>96</sup> Troy Adkins. Optimal use of financial leverage in a corporate capital structure. Corporate Finance & Accounting. Apr 30, 2021. <https://www.investopedia.com/articles/investing/111813/optimal-use-financial-leverage-corporate-capital-structure.asp>

turlari (foyda summasi kreditlar, qarz yuzasidan foiz to'lovlari summasigagina yetgan hollarda); salbiy (foyda summasi kreditlar, qarz yuzasidan foiz to'lovlari summasiga yetmagan hollarda).

Moliyaviy dastak koeffitsiyenti quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$M_D = M_J / X_K \quad (1)$$

Bu yerda:

$M_D$ -moliyaviy dastak;

$M_J$ -majburiyatlar;

$X_K$ -xususiy kapital<sup>97</sup>.

Bu formula yordamida xo'jalik subyektining moliyaviy risklarini ham aniqlash mumkin. Ushbu koeffitsiyentning mezoni 0.5-0.8 oralig'ida bo'lganida normal hisoblanadi.

Moliyaviy dastak samaradorligini baholashda moliyaviy dastak koeffitsiyenti va rentabelligini qiyoslash lozim.

Moliyaviy dastak samaradorligini quyidagi bog'lanishda ifoda etish mumkin:

$$MLs = (ROA - Fo's) \cdot (1 - Ss) \cdot QK / XK \quad (2)$$

Bu yerda:

$MLs$ -moliyaviy leverij samaradorligi;

$ROA$ - aktivlar rentabelligi;

$Fo's$ -o'rtacha foiz stavkasi;

$Ss$ -solliq stavkasi;

$M$ -majburiyatlar;

$XK$ -xususiy kapital<sup>98</sup>.

Moliyaviy dastak samaradorligi tahlili yillar kesimida "Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot (profit and loss

<sup>97</sup> Moliyaviy tahlil. Darslik. B.A.Xasanov, M.Y.Raximov va boshq. – T.: «Iqtisodiyot», 2019. – 736 b.

<sup>98</sup> Moliyaviy tahlil. Darslik. B.A.Xasanov, M.Y.Raximov va boshq. – T.: «Iqtisodiyot», 2019. – 736 b.

statement)”, ya’ni “Foyda va zararlar to’g’risidagi hisobot” (2-shakl) ma’lumotlari asosida hisoblanadi. Bunda aktivlar, sof foyda, aktivlar rentabelligi (ROA), xususiy kapital, majburiyatlar, foyda solig’i stavkasi, kredit, inflyatsiya darajasi, moliyaviy dastak samarasi hisob-kitob qilinadi.

30-jadval

**Xo’jalik yurituvchi subyektlarning kreditga layoqatliligini baholash maqsadida moliyaviy leverij koeffitsiyentini tavsiflash<sup>99</sup>**

Koeffitsiyentning nomi	Ko’rsatkichning tavsifi	Hisoblash algoritmi	Formulaning izohi
<b>Moliyaviy holat ko’rsatkichlari</b>			
Moliyaviy leveridj koeffitsiyentlari	Majburiyatlarning aktivlarga nisbati	Maj/A	Maj – Majburiyatlar A – Aktivlarning o’rtacha yillik qiymati
	Majburiyatlarning o’z kapitaliga nisbati	Maj/XK	XK – Xususiy kapital
	Majburiyatlarning aksiyadorlik kapitaliga nisbati	Maj/AK	AK – Aksiyadorlik kapitali
	Uzoq muddatli majburiyatlarning asosiy kapitalga nisbati	UMM/AK	UMM – Uzoq muddatli majburiyatlar AK – Aksiyadorlik kapitali
	Xususiy kapitalning aktivlarga nisbati	XK/A	XK – Xususiy kapital A – Aktivlarning o’rtacha yillik qiymati

Moliyaviy dastak samaradorligiga ta’sir etuvchi omillarni baholash maqsadida quyidagi omillarning o’zaro bog’lanishlaridan foydalanish tavsiya etiladi:

- investitsiyalangan kapital rentabelligi o’zgarishi;
- kredit va qarzlar bo’yicha foiz stavkasining o’zgarishi;

<sup>99</sup> Moliyaviy tahlil. Darslik. B.A.Xasanov, M.Y.Raximov va boshq. – T.: «Iqtisodiyot», 2019. – 736 b.

-soliq stavkasining o'zgarishi;

-xususiy kapital o'zgarishi<sup>100</sup>.

Agar inflyatsiya ta'siri kuchli bo'lgan holatlarda qarzlilar va ularning foizlari qayta indeksatsiya qilinmasa, moliyaviy dastak va xususiy kapital rentabelligi ortadi.

31-jadval

**«Maxam-Chirchiq» aksiyadorlik jamiyatining 2020-yilda moliyaviy leverij samaradorligi tahlili<sup>101</sup>, ming so'm**

Ko'rsatkichlar	Hisobot yili boshiga	Hisobot yili oxiriga	O'zgarishi, +, -	O'sish sur'ati, %
1. Aktivlar (A)	751 899 089	763 542 481	+11 643 392	2%
2. Sof foyda (SF)	90 308 579	187 640 956	+97 332 377	108%
3. Aktivlar rentabelligi (ROA), (2/1)	12,01%	24,58%	12,56%	105%
4. Xususiy kapital (XK)	424 174 271	528 050 356	+103 876 085	24%
5. Qarz kapitali (QK)	260 810 938	331 365 457	+70 554 519	27%
6. Foyda solig'i stavkasi, %	12%	12%	0%	0%
7. Kredit, qarz foizi, %	17%	17%	0%	0%
8. Inflyatsiya darajasi*, %	14,30%	15,20%	0,90%	6%
9. Moliyaviy leverij samarasi, % (3-satr - 7-satr)* (1 - 6-satr) * 5/4	-3%	4%	7%	

\*<https://cbu.uz/ru/monetary-policy/annual-inflation/indicators/>

<sup>100</sup> Moliyaviy tahlil. Darslik. B.A.Xasanov, M.Y.Raximov va boshq. - T.: «Iqtisodiyot», 2019. - 736 b.

<sup>101</sup> «Maxam-Chirchiq» aksiyadorlik jamiyati moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitobi.

Tadqiqot ishida moliyaviy leverij samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar turkumlangan, ularni hisoblash algoritmi tavsiya etilgan, xo'jalik subyektlarining kreditga layoqatliligini baholash maqsadida moliyaviy leverij koeffitsiyentining tavsifi ishlab chiqilgan va «Maxam-Chirchiq» aksiyadorlik jamiyati ma'lumotlari asosida tahliliy jarayonlar amalga oshirilgan.

32-jadval

**Sof aktivlarning o'zgarishiga ta'sir etuvchi tashqi omillarning o'zaro bog'liqligi tahlili<sup>102</sup>, ming so'm**

Ko'rsatkichlar	2016	2017	2018	2019	2020
Sof aktivlar qiymati (Y)	20 405 992,20	118 589 147,24	71 985 363,87	55 232 244,64	20 699 084,49
Sotishdan olingan sof tushum (Baho) (X1)	53 981 176,16	109 864 653,52	153 257 472,82	152 984 943,71	208 369 390,65
Kredit foizlari, % (X2)	2%	2%	2%	2%	2%
Soliq yuki, % (X3)	34%	18%	15%	3%	2,5%
*Infiyatsiya darajasi, % (X4)	9,7%	18,8%	14,3%	15,2%	11,1%

\*<https://cbu.uz/ru/monetary-policy/annual-inflation/indicators/>

Jadvalning ko'rsatishicha, sof aktivlar qiymati 2020-yilga nisbatan 2016-yilda 98,6 foiz, 2017-yilda 5,7 baravar, 2018-yilda 3,5 baravar va 2019-yilda 2,7 baravarga yuqori ekanligiga guvoh bo'lamiz. Bunga teskari ravishda sotishdan olingan sof tushum (baho)ning o'sib borish tendensiyasini kuzatamiz. 2020-yilda 2016-2019-yillarga nisbatan sotishdan olingan sof tushum mos ravishda 3,9; 1,9; 1,35 va 1,36 martaga o'sganligini ko'ramiz. Kredit foizlari tahlil qilinayotgan davr mobaynida o'zgarishsiz

<sup>102</sup> «GLOBAL KOMSCO DAEWOO» MChJ XKning moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitobi.

bo'lgan. So'nggi besh yil davomida soliq yuki pasayib borgan, ya'ni 2016-yilda 34% dan 2020-yilda 2,5%ga kamaygan. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra tahlil davrida inflyatsiya darajasi 2016-yilda 9,7%; 2017-yilda 18,8%; 2018-yilda 14,3%; 2019-yilda 15,2%; 2020-yilda 11,1%ni tashkil etgan. Yuqoridagi tahlillar asosida sof aktivlar qiymatiga ta'sir etuvchi tashqi omillarning o'zaro bog'liqligi tahlilini 3-rasmda ifodalaymiz. Rasmdan ko'rinib turibdiki, korxonada soliq yuki pasayib borgan. Bunga hukumatimiz tomonidan soliq bo'yicha berilgan imtiyozlar va 2020-yilda O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi (Yangi tahriri)ning qabul qilinishi natijasida berilgan yengilliklar ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

Navbatdagi vazifa sof aktivlarning samaradorligiga ta'sir etuvchi tashqi omillarni uzoq muddatli prognozlashdan iborat.

33-jadval

**Sof aktivlarning samaradorligiga ta'sir etuvchi tashqi omillarning 2025-yilgacha davrga prognozi<sup>103</sup>, ming so'm**


Ko'rsatkichlar	2021	2022	2023	2024	2025
Sof aktivlar qiymati (Y)	33 118 535,18	52 989 656,29	84 783 450,07	135 653 520,11	217 045 632,18
Sotishdan olingan sof tushum (Baho) (X1)	302 135 616,44	332 349 178,09	365 584 095,90	314 402 322,47	326 978 415,37
Kredit foizlari, % (X2)	2%	2%	2%	2%	2%
Soliq yuki, % (X3)	2,5%	2,5%	2,5%	2,5%	2,5%
*Inflyatsiya darajasi, % (X4)	10%	12,5%	8%	7%	6%

\*[https://cbu.uz/upload/medialibrary/830/4wv2athkpemniaoe13610fzio3d1nz42/Osnovne\\_napravleniya\\_2022.pdf](https://cbu.uz/upload/medialibrary/830/4wv2athkpemniaoe13610fzio3d1nz42/Osnovne_napravleniya_2022.pdf)

<sup>103</sup> «GLOBAL KOMSCO DAEWOO» MChJ XKning moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitobi.

Jadval tahlili korxonaning sof aktivlari samaradorligiga ta'sir etuvchi tashqi omillarning 2021-2025-yilgacha davrga prognozi asosida sof aktivlar qiymatini 2025-yilda 2021-yilga nisbatan 6,5 baravarga, sotishdan olingan sof tushumni 108,2 foizga oshirish imkoniyati mavjudligini ko'rsatmoqda.

Inflyatsiyaning kutilayotgan darajasi 2021-yilda 10%; 2022-yilda 12,5%; 2023-yilda 8%; 2024-yilda 7% va 2025-yilda 6% bo'lishi prognoz qilingan. Prognoz davrida kredit foizlari 2% va soliq yuki darajasi berilgan imtiyozlarni inobatga olgan holda 2,5% deb olingan.



**3-rasm. Sof aktivlarning samaradorligiga ta'sir etuvchi tashqi omillarning 2016-2020-yillardagi tahlili va 2021-2025-yilgacha davrga prognozi.**

Xulosa qilganimizda, xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy salohiyatini mustahkamlash maqsadida moliyaviy dastak yordamida uning xususiy kapitali bilan majburiyatlari nisbatini ta'minlash vositasida moliyalashtirish manbalarini ko'paytirishdan iborat qilib belgilangan.



### **3.2. Sellyuloza-qog'oz kombinatining moliyaviy ko'rsatkichlarini ekonometrik modellashtirish va prognozlash**

Bugungi kunda korxonalarining moliyaviy holatini yaxshilash va ularni bozor tamoyillari asosida rivojlantirish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Tadqiqot obyektlaridan biri hisoblangan "Global Komsco Daewoo" mas'uliyati cheklangan jamiyat xorijiy korxonasi ("Global Komsco Daewoo" MCHJ XK) mamlakatimizda 2015-yildan beri faoliyat olib bormoqda. Mazkur korxonaning moliyaviy salohiyatiga sof aktivlarning ta'sirini moliyaviy hisobot axborotlari asosida tahlil qilish va kelgusi davrlarga prognoz qilish masalasi bugungi kunda korxonada oldida turgan asosiy masalalardan biri hisoblanadi.

Shu munosabat bilan korxonada moliyaviy ko'rsatkichlarini tahlil qilish va baholash orqali qisqa hamda uzoq muddatli davrlarda ularning prognozlash uchun ko'p omilli ekonometrik modellarini tuzish muhim ahamiyatga ega. Ko'p omilli ekonometrik model natijaviy omilga bir qator omillar ta'sirini o'rganishga yordam beradi<sup>104 105</sup>.

Tadqiqot maqsadlaridan kelib chiqqan holda ko'p omilli ekonometrik modelga quyidagi omillar tanlab olindi: natijaviy omil sifatida korxonaning sof aktivlar qiymati, ming so'm ( $Y$ ), ta'sir etuvchi omillar esa – uzoq muddatli aktivlar, ming so'm ( $X_1$ ), joriy aktivlar, ming so'm ( $X_2$ ), uzoq muddatli majburiyatlar, ( $X_3$ ), joriy majburiyatlar, ( $X_4$ ) va sof tushum, ( $X_5$ ) bo'lib xizmat qiladi.

---

<sup>104</sup> Эконометрика. Учебник для вузов /под ред. чл.-корр. РАН И.И. Елисеевой. – М.: Финансы и статистика, 2003. – 344 с. 118 бет

<sup>105</sup> Ishnazarov A., Nurullayeva Sh., Muminova M., Ro'zmetova N. Ekonometrika asoslari. O'quv qo'llanma. –Toshkent: Iqtisodiyot, 2019, 258 b. 145 bet

“Global Komsco Daewoo” MCHJ XK sof aktivlari qiymatiga ta’sir etuvchi omillar bo’yicha o’tkazilgan tavsifiy statistika natijalari quyidagi 34-jadvalda keltirilgan.

34-jadval

**“Global Komsco Daewoo” MCHJ XK sof aktivlari qiymatiga ta’sir etuvchi omillar bo’yicha tavsifiy statistika**

	Y	X1	X2	X3	X4	X5
Mean	59249907	29301933	42383717	84130795	12351242	18727458
Median	67431134	28572175	38268360	1.00YE+08	13426799	19033460
Maximum	1.08YE+08	39069614	87845124	1.16YE+08	17365795	30574506
Minimum	14283215	21021453	10245369	30910910	5225783.	6021454.
Std. Dev.	31844463	4573853.	26511634	33825370	4644364.	9164083.
Skewness	-0.063151	0.429917	0.424602	-0.669532	-0.427789	-0.067834
Kurtosis	1.730387	3.382903	1.873080	1.665731	1.627382	1.530834
Jarque-Bera	0.813935	0.442964	0.995548	1.786682	1.308047	1.088428
Probability	0.665666	0.801330	0.607882	0.409286	0.519949	0.580298
Sum	7.11YE+08	3.52YE+08	5.09YE+08	1.01YE+09	1.48YE+08	2.25YE+08
Sum Sq. Dev.	1.12YE+16	2.30YE+14	7.73YE+15	1.26YE+16	2.37YE+14	9.24YE+14
Observations	12	12	12	12	12	12


Jadval ma’lumotlaridan har bir omilning o’rtacha qiymati (mean), medianasi (median), maksimal va minimal qiymatlari (maximum, minimum) qiymatlarini ko’rish mumkin. Bundan tashqari, har bir omilning standart chetlanishi (std. dev. (Standart Deviation) - standart chetlanish koeffitsiyenti har bir o’zgaruvchilarning o’rtacha qiymatdan qanchalik chetlanganligini ko’rsatadi) qiymatlari keltirilgan.

Skewness – asimmetriya koeffitsiyenti bo’lib, u nolga teng bo’lsa, normal taqsimot ekanligi hamda taqsimotning simmetrikligini bildiradi. Agar bu koeffitsiyent 0 dan ancha farq qilsa, u holda taqsimot asimmetrik hisoblanadi (ya’ni simmetrik emas).

Agar asimmetriya koeffitsiyenti 0 dan katta, ya’ni musbat bo’lsa, u holda o’rganilayotgan omil bo’yicha normal taqsimot

grafigi o'ng tomonga surilgan bo'ladi. 0 dan kichik, ya'ni manfiy bo'lsa, u o'rganilayotgan omil bo'yicha normal taqsimot grafigi chap tomonga surilgan bo'ladi. Barcha omillarning normal taqsimot funksiyalari grafiklari quyidagi 4-rasmda keltirilgan.


4-rasmdan shuni ko'rish mumkinki, deyarli barcha omillar normal taqsimot qonuniga bo'ysunar ekan. Y, X<sub>3</sub>, X<sub>4</sub> va X<sub>5</sub> omillarning asimmetriya koeffitsiyentlari manfiy qiymatga ega bo'lganligi sababli, ularning grafiklaridagi "chap dumi" "o'ng dumi" dan uzunroq bo'lib, taqsimot funksiyasi grafigi o'ng tomonga siljiganini ko'rish mumkin.



4-rasm. Omillarning normal taqsimot funksiyalari grafiklari.

Ushbu surilishlar asosan o'rganilayotgan omillarning dinamikasidagi o'zgarishlarni ko'rsatadi. Ayrim yillarda ba'zi omillar keskin ortishga ega bo'lgan bo'lsa, ayrimlarida o'zgarishlar sezilarli darajada bo'lmagan. Umuman olganda, o'rganilayotgan barcha omillar normal taqsimot qonuniga bo'ysunar ekan.

Bundan tashqari,  $X_1$  omilning eksness ko'rsatkichi qiymatlari 3,0 dan katta (3.382903). Bu esa ushbu ko'rsatkich funksiyasi grafigining normal taqsimot funksiyasi grafigidan ko'ra "uchqurroq" ekanligini ko'rsatmoqda (34-jadval).



5-rasm. Natijaviy omilni normal taqsimot qonuniga bo'ysunishini tekshirish.

Natijaviy omilning normal taqsimoti grafigi 5-rasmda keltirilgan.

Natijaviy omilni ( $Y$ ) normal taqsimot qonuniga bo'ysunishini tekshirish uchun Jak-Bera mezonidan foydalaniladi. Mazkur mezon statistik mezon bo'lib, kuzatuvlar xatolarini normal taqsimot momentlari bilan uchinchi moment (asimetriya) va to'rtinchi momentini (eksness) normal taqsimotga tekshiradi va  $S=0$  va  $K=3$ .

5-rasmdan shuni aniq ko'rish mumkinki, natijaviy omil normal taqsimotga bo'ysunar ekan. Bu hisoblangan parametrlar va mezonlar tomonidan tasdiqlanmoqda, ya'ni Jak-Bera hisoblangan koeffitsiyenti 6,46 ga teng va uning ehtimolligi (probability) 0,05 dan kichik (prob=0.003141).

"Global Komsco Daewoo" MCHJ XK sof aktivlari qiymatiga ta'sir etuvchi omillar bo'yicha tuziladigan ko'p omilli ekonometrik modelga omillarni tanlash uchun omillar o'rtasida korrelyatsion tahlil o'tkazish kerak. Buning uchun omillar o'rtasida xususiy va juft korrelyatsiya koeffitsiyentlari hisoblanadi<sup>106</sup>. Omillar o'rtasida xususiy va juft korrelyatsiya koeffitsiyentlari matritsasi quyidagi 35-jadvalda keltirilgan.

35-jadval

**Omillar o'rtasida xususiy va juft korrelyatsiya koeffitsiyentlari matritsasi**

Covariance Analysis: Ordinary

Date: 06/03/22 Time: 23:14

Sample: 2015S1 2020S2

Included observations: 12

Correlation


SSCP

Probability

Y	1.000000					
X1	0.651320	1.000000				
	2.714347	-----				
	0.0218	-----				
X2	0.957822	0.609274	1.000000			
	10.54029	1.181747	-----			
	0.0000	0.0798	-----			
X3	0.920097	0.463659	0.606553	1.000000		
	7.428294	1.654849	2.314464	-----		
	0.0000	0.1290	0.0615	-----		
X4	0.959490	0.523580	0.407112	0.534843	1.000000	
	10.76925	1.943370	0.815405	1.325998	-----	
	0.0000	0.0806	0.1451	0.0739	-----	
X5	0.970596	0.594138	0.557981	0.606835	0.074855	1.000000
	12.75070	2.335795	1.56166	1.803714	0.83408	-----
	0.0000	0.0416	0.0784	0.0841	0.1412	-----

<sup>106</sup> Mustafakulov Sh.I., Negmatov J.B., Murodullayev N.N., Jo'rayev B.R. Ekonometrika: o'quv qo'llanma. - Toshkent, 2017. - 155 b. 57 bet

Ushbu 35-jadvaldan ko'rish mumkinki, xususiy korrelyatsiya koeffitsiyentlari - bu natijaviy omil (Y) va unga ta'sir etuvchi omillar o'rtasidagi bog'lanishlar zichligini ko'rsatadi. Demak, xususiy korrelyatsiya koeffitsiyentlari natijaviy omil - korxonaning sof aktivlar qiymati (Y) va ta'sir etuvchi omillar o'rtasida turli xil bog'lanishlar mavjudligini ko'rsatmoqda.



6-rasm. "Global Komsco Daewoo" MCHJ XK sof aktivlari qiymatiga ta'sir etuvchi omillar bo'yicha bog'lanish shakllarining ko'rinishi.

Demak, korxonaning sof aktivlar qiymati (Y) va uzoq muddatli aktivlar ( $X_1$ ) o'rtasida bog'lanish zichligi 0,6513 ga teng. Bu esa mazkur omillar o'rtasida o'rtacha bog'lanish mavjudligini ko'rsatadi. Xuddi shuningdek, korxonaning sof aktivlar qiymati (Y) bilan joriy aktivlar ( $X_2$ ) o'rtasida o'rtacha kuchli aloqa mavjud ekan, ya'ni ular o'rtasidagi xususiy korrelyatsiya koeffitsiyentining qiymati 0,9578 ga teng ekan.

Korxonaning sof aktivlar qiymati (Y) bilan uzoq muddatli majburiyatlar ( $X_3$ ) o'rtasida o'rtacha kuchli aloqa mavjud ekan, ya'ni ular o'rtasidagi xususiy korrelyatsiya koeffitsiyentining qiymati 0,9200 ga teng ekan. Korxonaning sof aktivlar qiymati (Y) bilan joriy majburiyatlar ( $X_4$ ) o'rtasida kuchli aloqa mavjud ekan, ya'ni ular o'rtasidagi xususiy korrelyatsiya koeffitsiyentining qiymati 0,9594 teng ekan. Hamda korxonaning sof aktivlar qiymati (Y) bilan sof tushum ( $X_4$ ) o'rtasida kuchli aloqa mavjud ekan, ya'ni ular o'rtasidagi xususiy korrelyatsiya koeffitsiyentining qiymati 0,9905 ga teng ekan.

Demak, natijaviy omillar va unga ta'sir etuvchi omillar o'rtasida kuchli bog'lanishlarning mavjudligi ushbu omillarning ko'p omilli ekonometrik modelda qatnashishiga sabab bo'ladi.

Yuqorida omillar o'rtasida keltirilgan bog'lanishlardan tashqari 35-jadvalda juft korrelyatsiya koeffitsiyentlari ham mavjud bo'lib, ular ta'sir etuvchi omillar ( $X_i$  va  $X_j$ ) o'rtasida bog'lanish zichliklarini ko'rsatadi. Bu yerda eng muhim holat bo'lib, ta'sir etuvchi omillar bir-biri bilan zich bog'lanmasligi kerak. Ya'ni ta'sir etuvchi omillar o'rtasida multikollinearlik mavjud bo'lmasligi lozim.

Agar ikkita ta'sir etuvchi omil o'rtasida juft korrelyatsiya koeffitsiyenti qiymati 0,7 dan katta bo'lsa, multikollinearlik mavjud deyiladi. 35-jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, ta'sir etuvchi omillar o'rtasida bog'lanish zichliklari 0,7 dan katta

emas ekan. Korrelyatsion matritsadagi juft korrelyatsiya koeffitsiyentlari bo'yicha xulosa qiladigan bo'lsak, ta'sir etuvchi omillar o'rtasida multikollinearlik mavjud emas.

Shuningdek, 35-jadvalda korrelyatsiya koeffitsiyentlarining ishonchliligi va ehtimolligini aniqlash bo'yicha koeffitsiyentlar hisoblangan (hisoblangan korrelyatsiya koeffitsiyentlarining tagida joylashgan qatorlardagi qiymatlar). Har bir korrelyatsiya koeffitsiyentining pastki qismida uning Studentning *t*-mezoni hisoblangan qiymati va ehtimolligi keltirilgan.

Yuqorida aytilganlarni tekshirishda, ya'ni omillar o'rtasida bog'lanish zichliklari va shakllarini aniqlashda har bir omilning natijaviy ko'rsatkich (*Y*) bilan bog'liqligini aniqlash uchun ularning nuqtali grafiklarini ko'rib chiqamiz (6-rasm).

36-jadval

**"Global Komsco Daewoo" MCHJ XK sof aktivlari qiymati va unga ta'sir etuvchi omillar bo'yicha hisoblangan ko'p omilli ekonometrik model parametrlari**

Dependent Variable: Y  
 Method: Least Squares  
 Date: 06/03/22 Time: 23:15  
 Sample: 2015S1 2020S2  
 Included observations: 12

Variable	Coefficient	Std. Error	t-Statistic	Prob.
X1	0.341058	0.337451	3.010691	0.0412
X2	0.765884	0.274037	2.794818	0.0314
X3	0.351366	0.149000	2.358171	0.0264
X4	1.619561	1.883031	2.860082	0.0228
X5	-1.867450	1.492290	-3.251398	0.0174
C	-8010503.	6107756.	-1.311530	0.2376
R-squared	0.844731	Mean dependent var		11.26338
Adjusted R-squared	0.794146	S.D. dependent var		0.573909
S.E. of regression	0.408184	Akaike info criterion		1.177365
Sumsquaredresid	2.999051	Schwarz criterion		1.326582
Loglikelihood	-9.362330	Hannan-Quinn criter.		1.209749
F-statistic	107.6854	Durbin-Watson stat		1.911567
Prob(F-statistic)	0.000000			



6-rasmdagi grafiklarda vizual ko'rinishda ham shuni aytish mumkinki, natijaviy omil (Y) bilan barcha ta'sir etuvchi (X<sub>i</sub>) omillar o'rtasida to'g'ri bog'lanish mavjudligi aniqlandi. Demak, korxonaning sof aktivlar qiymati (Y) bo'yicha ko'p omilli ekonometrik modelga kiritiladigan omillar o'rtasida korrelyatsiya koeffitsiyentlari Styudentning *t*-mezoni hisoblangan qiymati va ehtimolligi bo'yicha qo'yiladigan talablarga to'la javob berar ekan.

Bu shundan dalolat beradiki, "Global Komsco Daewoo" MCHJ XK sof aktivlari qiymati (Y) bo'yicha ko'p omilli ekonometrik modelga barcha omillarni kiritamiz.

Umumiy holda ko'p omilli ekonometrik model quyidagi ko'rinishga ega<sup>107</sup>:

$$\ln y = \ln a_0 + a_1 \ln x_1 + a_2 \ln x_2 + \dots + a_n \ln x_n + \varepsilon, \quad (1)$$

bu yerda  $\ln y$  – natijaviy omilning logarifmlangan qiymatlari,  $\ln x_i$  – ta'sir etuvchi omillarning logarifmlangan qiymatlari,  $\varepsilon$  – tasodifiy xato.

Ko'p omilli ekonometrik modeldagi (1) noma'lum  $a_0, a_1, a_2, \dots, a_n$  parametrlarini aniqlashda "eng kichik kvadratlar usuli" qo'llaniladi.

"Global Komsco Daewoo" MCHJ XK sof aktivlari qiymati bo'yicha tuziladigan ko'p omilli ekonometrik modelning noma'lum parametrlarini hisoblashda YEViyews dasturidan foydalanamiz. Hisob-kitoblar bo'yicha natijalar quyidagi 36-jadvalda keltirilgan.

Yuqoridagi 36-jadval ma'lumotlaridan foydalanib, "Global Komsco Daewoo" MCHJ XK sof aktivlari qiymatiga ta'sir etuvchi omillar bo'yicha ko'p omilli ekonometrik modelni analitik ko'rinishda ifodalaymiz:

<sup>107</sup> Ishnazarov A., Nurullayeva Sh., Muminova M., Ro'zmetova N. Ekonometrika asoslari. O'quv qo'llanma. –Toshkent: Iqtisodiyot, 2019, 258 b. 89 bet

$$\hat{Y} = -8010503,1 + 0,3411X_1 + 0,7659X_2 + 0,3514X_3 + 1,6196X_4 - 1,8674X_5, \quad (2)$$

Hisoblangan ko'p omilli ekonometrik model shuni ko'rsatadiki, korxonada uzoq muddatli aktivlar ( $X_1$ ) o'rtacha bir ming so'mga ortsa, korxonaning sof aktivlari ( $Y$ ) o'rtacha 0,3411 ming so'mga ortar ekan. Korxonada joriy aktivlar qiymati o'rtacha 1 ming so'mga ortsa ( $X_2$ ), korxonaning sof aktivlari ( $Y$ ) o'rtacha 0,7659 ming so'mga ortar ekan. Korxonada uzoq muddatli majburiyatlar ( $X_3$ ) ming so'mga ortsa, korxonaning sof aktivlari ( $Y$ ) o'rtacha 0,3514 ming so'mga ortar ekan. Korxonada joriy majburiyatlar ( $X_4$ ) ming so'mga ortsa, korxonaning sof aktivlari ( $Y$ ) o'rtacha 1,6196 ming so'mga ortar ekan. Korxonada sof tushum ( $X_5$ ) ming so'mga ortsa, korxonaning sof aktivlari ( $Y$ ) o'rtacha -1,8674 ming so'mga kamayar ekan.

"Global Komsco Daewoo" MCHJ XK sof aktivlari qiymatiga ta'sir etuvchi omillar bo'yicha tuzilgan ko'p omilli ekonometrik model (2) sifatini tekshirish uchun determinatsiya koeffitsiyentini tekshiramiz. Determinatsiya koeffitsiyenti natijaviy omil necha foizga modelga kiritilgan omillardan tashkil topishini ko'rsatadi. Hisoblangan determinatsiya koeffitsiyenti ( $R^2$  - R-squared (36-jadval)) 0,8447 ga teng. Bu esa korxonaning sof aktivlari ( $Y$ ) 84,47 foizi (2) ko'p omilli ekonometrik modelga kiritilgan omillardan tashkil topishini ko'rsatmoqda. Qolgan 15,53 foizi (100,0-84,47) esa hisobga olinmagan omillar ta'siri ekanligini ko'rsatmoqda.

"Global Komsco Daewoo" MCHJ XK sof aktivlari qiymatiga ta'sir etuvchi omillar bo'yicha tuzilgan (2) ko'p omilli ekonometrik modeldagi omillarning standart xatoliklarining ham, kichik qiymatlarni qabul qilganligi ham modelning statistik ahamiyati yuqori ekanligidan dalolat beradi.

"Global Komsco Daewoo" MCHJ XK sof aktivlari qiymatiga ta'sir etuvchi omillar bo'yicha tuzilgan ko'p omilli ekonometrik

modelning (2) statistik ahamiyatligini yoki o'rganilayotgan jarayonga adekvatligini (mos kelishini) tekshirishda Fisherning  $F$ -mezoni qo'llaniladi. Fisherning hisoblangan  $F$ -mezoni qiymati uning jadvaldagi qiymati bilan taqqoslanadi. Agar  $F_{\text{hisob}} > F_{\text{jadval}}$  bo'lsa, u holda ko'p omilli ekonometrik model (2) statistik ahamiyatli deyiladi va undan natijaviy ko'rsatkich – "Global Komsco Daewoo" MCHJ XK sof aktivlari qiymatiga ta'sir etuvchi omillarni (Y) kelgusi davrlarga prognozlashda foydalanish mumkin bo'ladi.

Demak, "Global Komsco Daewoo" MCHJ XK sof aktivlari qiymatiga ta'sir etuvchi omillar bo'yicha tuzilgan (2) ko'p omilli ekonometrik modelning statistik ahamiyatligini tekshirish uchun  $F$ -mezonning jadval qiymatini topamiz. Buning uchun ozodlik darajalari  $k_1 = m$  va  $k_2 = n - m - 1$  hamda  $\alpha$  ahamiyatlik darajasi bo'yicha qiymatlarni hisoblaymiz. Ahamiyatlik darajasi  $\alpha = 0,05$  va ozodlik darajalari  $k_1 = 5$  va  $k_2 = 12 - 5 - 1 = 6$  dan kelib chiqib,  $F$ -mezonning jadval qiymati  $F_{\text{jadval}} = 4,39$  ga teng.  $F$ -mezonning hisoblangan qiymati  $F_{\text{hisob}} = 107,6854$  va jadval qiymati  $F_{\text{jadval}} = 3,55$  ga teng va  $F_{\text{hisob}} > F_{\text{jadval}}$  sharti bajarilganligi uchun (2) ko'p omilli ekonometrik modelni statistik ahamiyatli deyish mumkin hamda undan "Global Komsco Daewoo" MCHJ XK sof aktivlari qiymatiga ta'sir etuvchi omillarni (lnY) kelgusi davrlarga prognozlashda foydalanish mumkin.

"Global Komsco Daewoo" MCHJ XK sof aktivlari qiymatiga ta'sir etuvchi omillar bo'yicha tuzilgan ko'p omilli ekonometrik modelning (2) hisoblangan parametrlari ishonchliligini tekshirishda Studentning  $t$ -mezonidan foydalaniladi. Student  $t$ -mezonining hisoblangan ( $t_{\text{hisob}}$ ) va jadval ( $t_{\text{jadval}}$ ) qiymatlarini taqqoslab,  $N_0$  gipotezani qabul qilamiz yoki rad etamiz. Buning uchun  $t$ -mezonning jadval qiymatini tanlangan ishonchlilik

ehtimoli ( $\alpha$ ) va ozodlik darajasi (d.f. =  $n - m - 1$ ) shartlar asosida topamiz. Bu yerda  $n$  - kuzatuvlar soni,  $m$  - omillar soni.

Ishonchlik ehtimoli  $\alpha = 0,05$  va ozodlik darajasi d.f. =  $12 - 5 - 1 = 6$  bo'lganda,  $t$ -mezonning jadval qiymati  $t_{\text{jadval}} = 2,4460$  ga teng.

Ko'p omilli ekonometrik model tuzish bo'yicha olib borilgan hisob-kitoblardan shuni ko'rish mumkinki, ozod had va ko'p omilli ekonometrik modelga kiritilgan barcha omillar bo'yicha  $t$ -mezonning hisoblangan qiymatlari  $\alpha = 0,05$  aniqlikda jadval qiymatidan katta ekanligini ko'rish mumkin (37-jadval). Bu esa barcha omillarning ishonchli ekanligini bildiradi va mazkur omillarga ko'p omilli ekonometrik modelda ishtirok etishiga imkon beradi.

"Global Komsco Daewoo" MCHJ XK sof aktivlari qiymatiga ta'sir etuvchi omillar bo'yicha tuzilgan ko'p omilli ekonometrik modelda (2) natijaviy omil ( $\ln Y$ ) qoldiqlarida avtokorrelyatsiya mavjudligini tekshirish uchun Darbin-Uotson ( $DW$ ) mezonidan foydalanamiz<sup>108</sup>.

Hisoblangan  $DW$  qiymati jadvaldagi  $DW_L$  va  $DW_U$  bilan taqqoslanadi. Agar  $DW_{\text{hisob}} < DW_L$  dan kichik bo'lsa, natijaviy omil qoldiqlarida avtokorrelyatsiya mavjud deyiladi.  $DW_{\text{hisob}} > DW_U$  dan katta bo'lsa, natijaviy omil qoldiqlarida avtokorrelyatsiya mavjud emas deyiladi. Darbin-Uotson mezonining pastki chegarasi qiymati  $DW_L = 1,13$  ga teng va yuqori chegarasi qiymati  $DW_U = 1,54$  ga teng.  $DW_{\text{hisob}} = 1,9116$  ga teng. Demak,  $DW_{\text{hisob}} > DW_U$  bo'lgani uchun natijaviy omil ("Global Komsco Daewoo" MCHJ XK sof aktivlari qiymatiga ta'sir etuvchi omillar ( $Y$ ) qoldiqlarida avtokorrelyatsiya mavjud emas ekan.

---

<sup>108</sup> Ishnazarov A., Nurullayeva Sh., Muminova M., Ro'zmetova N. Ekonometrika asoslari. O'quv qo'llanma. -Toshkent: Iqtisodiyot, 2019, 258 b. 95 bet

Natijaviy omil qoldiqlarida avtokorrelyatsiyaning mavjud emasligi ham yuqorida keltirilgan (2) ko'p omilli ekonometrik modeldan prognozda foydalanish mumkinligini ko'rsatadi.

Bundan tashqari, "Global Komsco Daewoo" MCHJ XK sof aktivlari qiymatiga ta'sir etuvchi omillar (Y) va unga ta'sir etuvchi ikki omil bo'yicha har bir kuzatuvlar avtokorrelyatsion (AS) va qisman avtokorrelyatsion (RAS) tahlilga tekshirilganda ham multikolleniarlik aniqlanmadi (barcha kuzatuvlarda ehtimollik (prob) nolga teng ekanligini kuzatish mumkin) (7-rasm).

Date: 06/03/22 Time: 00:40

Sample: 2015S1 2020S2

Included observations: 12

Autocorrelation	Partial Correlation	AC	PAC	Q-Stat	Prob	
		1	0.735	0.735	8.2427	0.004
		2	0.456	-0.182	11.733	0.003
		3	0.271	0.019	13.101	0.004
		4	0.064	-0.215	13.187	0.010
		5	-0.109	-0.084	13.470	0.019
		6	-0.264	-0.192	15.425	0.017
		7	-0.353	-0.044	19.611	0.006
		8	-0.392	-0.112	26.079	0.001
		9	-0.366	0.016	33.578	0.000
		10	-0.345	-0.162	43.574	0.000
		11	-0.196	0.244	50.015	0.000


7-rasm. Natijaviy qator qoldiqlari darajalarini avtokorrelyatsiya va qisman avtokorrelyatsiyaga tekshirish.

(2) ko'p omilli ekonometrik modelning haqiqiy (Actual), hisoblangan (Fitted) qiymatlari va ular o'rtasidagi farqlar (Residual) quyidagi 8-rasmda keltirilgan.

8-rasmdan ko'rish mumkinki (2) ko'p omilli ekonometrik model bo'yicha "Global Komsco Daewoo" MCHJ XK sof aktivlari qiymatiga ta'sir etuvchi omillarning hisoblangan qiymatlar grafigi

uning haqiqiy qiymatlari grafigi bilan juda yaqin joylashgan, ular o'rtasidagi farqlar ham unchalik katta emas. Bu esa (2) ko'p omilli ekonometrik modeldan "Global Komsco Daewoo" MCHJ XK sof aktivlari qiymatiga ta'sir etuvchi omillarni kelgusi davrlarga prognozlashda foydalanish mumkinligini yana bir isboti hisoblanadi.

Hisoblangan (2) ko'p omilli ekonometrik modeldan kelgusi davrlarga natijaviy ko'rsatkichni prognozlashda MARE (Mean absolute percent yerror -foizlardagi o'rtacha absolyut xatolik) koeffitsiyenti hisoblanadi<sup>109</sup>.



**8-rasm. "Global Komsco Daewoo" MCHJ XK sof aktivlari qiymatiga ta'sir etuvchi omillarning haqiqiy (Actual), hisoblangan (Fitted) qiymatlari va ular o'rtasidagi farqlar (Residual) grafigi.**


Agar hisoblangan MARE koeffitsiyenti qiymati 15,0 foizdan kichik bo'lsa, modeldan natijaviy omilni prognozlashda foydalanish mumkin bo'ladi, aks holda foydalanib bo'lmaydi.

<sup>109</sup> Mustafakulov Sh.I., Ishnazarov A.I., Rasulev D.M. EVIEWS dasturi-jda ekonometrik modellarni yaratish bo'yicha amaliy qo'llanma. -T.: TDIU, 2018. - 46 b. 28 bet

O'zbekiston Respublikasida yo'nalishlardagi avtobuslarda tashilgan yo'lovchilar soni bo'yicha MARE koeffitsiyentining qiymati 2,7556 foizni tashkil etmoqda (9-rasm).

Bu esa 15,0 foizdan kichik (MAPE=6,0158), ya'ni u 6,0158 foizni tashkil etmoqda. Shuning uchun ham (2) ko'p omilli ekonometrik modeldan "Global Komsco Daewoo" MCHJ XK sof aktivlari qiymatiga ta'sir etuvchi omillarni prognozlashda foydalanish mumkin.

Ushbu holatlardan foydalanib (2) ko'p omilli ekonometrik model yordamida "Global Komsco Daewoo" MCHJ XK sof aktivlari qiymatiga ta'sir etuvchi omillarning kelgusi davrlarga prognoz hisoblarini amalga oshiramiz.



9-rasm. Hisoblangan modeldan prognozda foydalanish ko'rsatkichlari.

Buning uchun, avvalo, har bir ta'sir etuvchi omil bo'yicha trend model tuzamiz. Trend model – bu ta'sir etuvchi omilning vaqtga bog'liq funksiyasidir hamda u umumiy holda quyidagi ko'rinishga ega:

$$\ln X_t = \beta_0 + \beta_1 \cdot t + \varepsilon \quad (3)$$

Korxonadagi uzoq muddatli aktivlar ( $X_t$ ) bo'yicha trend model quyidagi ko'rinishga ega:

$$\hat{X}_1 = 23789337,67 + 878091,578 \cdot t \quad (4)$$

$$R^2 = 0,9963, F_{\text{hisob}} = 17,90, t_{\text{hisob}} = 4,3379$$

Korxonaning joriy aktivlari ( $X_2$ ) bo'yicha trend model quyidagi ko'rinishga ega:

$$\hat{X}_2 = -3515377,571 + 7061399,224 \cdot t \quad (5)$$

$$R^2 = 0,9222, F_{\text{hisob}} = 118,6287, t_{\text{hisob}} = 10,8917$$

Korxonaning uzoq muddatli majburiyatlari ( $X_3$ ) bo'yicha trend model quyidagi ko'rinishga ega:

$$\hat{X}_3 = 29467702,24 + 8409706,6 \cdot t \quad (6)$$

$$R^2 = 0,8035, F_{\text{hisob}} = 40,9069, t_{\text{hisob}} = 6,3958$$

37-jadval

**"Global Komsco Daewoo" MCHJ XK sof aktivlari qiymatiga ta'sir etuvchi omillarning prognoz hisob-kitoblari qiymatlari\***

Yillar	Sof aktivlar qiymati, ming so'm (Y)	Uzoq muddatli aktivlar, ming so'm ( $X_1$ )	Joriy aktivlar, ming so'm ( $X_2$ )	Uzoq muddatli majburiyatlar, ( $X_3$ )	Joriy majburiyatlar, ( $X_4$ )	Sof tushum, ( $X_5$ )
2015.1	14283214,7	21021452,7	10245368,6	32547802,4	5321452,1	6021454,2
2015.2	18258063,6	31398411,5	17695908,5	30910910,1	5225782,7	6526442,1
2016.1	27165478,3	28654723,3	18524872,2	46875214,9	7425147,4	9512458,6
2016.2	26815697,9	26727070,4	16432728,7	47677889,9	8767134,5	10893533,6
2017.1	49524170,7	27854173,9	28322141,5	100215431,5	12032145,2	15232145,2
2017.2	60340482,8	28489627,5	26644803,7	106196747,9	11455569,3	16626769,5
2018.1	74521784,3	25321798,9	48214578,2	99874521,5	14821452,9	22545213,7
2018.2	78735688,5	30310145,2	53909403,9	96104903,5	15940412,1	21440150,2
2019.1	75263571,8	30984521,7	60254122,7	105452147,6	16923145,5	28042124,9
2019.2	77721371,9	27209531,3	58129814,1	113221732,4	16213208,9	27190119,7
2020.1	100548793,5	34582124,5	87845123,7	114328817,8	16723654,3	30124578,6
2020.2	107820567,2	39069614,2	82385742,8	116163422,2	17365795,4	30574505,9
2021.1	98327464,4	34814528,8	88282809,0	138793893,0	20382058,0	35011452,0
2021.2	104557438,0	35662620,4	95344208,0	147203600,0	21617568,0	37516682,0
2022.1*	110787411,5	36510712,0	102405607,0	155613307,0	22853078,0	40021912,0
2022.2*	117017385,1	37358803,6	109467006,0	164023014,0	24088588,0	42527142,0
2023.1*	123247358,6	38206895,2	116528405,0	172432721,0	25324098,0	45032372,0
2023.2*	129477332,2	39054986,8	123589804,0	180842428,0	26559608,0	47537602,0
2024.1*	135707305,7	39903078,4	130651203,0	189252135,0	27795118,0	50042832,0
2024.2*	141937279,3	40751170,0	137712602,0	197661842,0	29030628,0	52548062,0
2025.1*	148167252,8	41599261,6	144774001,0	206071549,0	30266138,0	55053292,0
2025.2*	154397226,4	42447353,2	151835400,0	214481256,0	31501648,0	57558522,0

Izoh: yillardagi \* belgisi prognoz davri



Korxonaning joriy majburiyatlari ( $X_4$ ) bo'yicha trend model quyidagi ko'rinishga ega:

$$\hat{X}_4 = 4320428,271 + 1235509,76 \cdot t \quad (7)$$

$$R^2 = 0,9199, F_{\text{hisob}} = 114,9845, t_{\text{hisob}} = 10,7231$$

Korxonaning sof tushumi ( $X_5$ ) bo'yicha trend model quyidagi ko'rinishga ega:

$$\hat{X}_5 = 2443461,639 + 2505230,212 \cdot t \quad (8)$$

$$R^2 = 0,9715, F_{\text{hisob}} = 341,3688, t_{\text{hisob}} = 18,4762$$


Ta'sir etuvchi omillar va vaqt omili o'rtasida tuzilgan trend modellar tahlili shuni ko'rsatadiki, (4) – (8) trend modellardagi barcha hisoblangan koeffitsiyentlarning statistik ahamiyatligi, parametrlarining ishonchliligi aniqlandi. Demak, (4) – (8) trend modellarini hisoblaymiz va ularning hisoblangan qiymatlarini (2) ko'p omilli ekonometrik modelga qo'yib, avvalo, ta'sir etuvchi omillarning prognoz qiymatlarini, keyin esa natijaviy omilning prognoz hisob-kitoblarini amalga oshiramiz. Natijada "Global Komsco Daewoo" MCHJ XK sof aktivlari qiymatiga ta'sir etuvchi omillarning (2) ko'p omilli ekonometrik modelga kiritilgan o'zgaruvchilarining prognoz davridagi qiymatlariga ega bo'lamiz (37-jadval) (10-15-rasmlar).

Jadval ma'lumotlari asosida tadqiqot obyektining sof aktivlari qiymatiga ta'sir etuvchi omillarning 2015-yilning ikkita yarmi bo'yicha to 2021-yilning ikkita yarmigacha panel ma'lumotlari ekonometrik modellashtirilgan. Shuningdek, omillar ta'siri 2025-yilgacha prognoz hisob-kitoblari qiymatlari aniqlangan.


Sof aktivlari qiymati ( $Y$ ) 2015-yilning ikkinchi yarmida 18 258 063,6 ming so'm bo'lgan, 2021-yilning ikkinchi yarmida 104 557 438,0 ming so'm (o'sish 5,7 baravar)ni tashkil etgan.

2025-yilning ikkinchi yarmida esa 154 397 226,4 ming so‘m (2021-yilga nisbatan o‘shish 147,7 %) bo‘lishi kutilmoqda.


Xorijiy korxonaning sof aktivlari qiymatiga sof tushumning ta‘sirini tahlil qiladigan bo‘lsak, bu ko‘rsatkich 2015-yilning ikkinchi yarmida 6 526 442,1 ming so‘m bo‘lib, 2021-yilning ikkinchi yarmida esa 37 516 682,0 ming so‘m (5,7 marta)ni tashkil etgan. 2025-yilning ikkinchi yarmida 57 558 522,0 ming so‘m (2021-yilning ikkinchi yarmiga nisbatan 153,4%) ga o‘shish prognoz qilinmoqda. Demak, bazis ko‘rsatkichi va ta‘sir etuvchi omil ko‘rsatkichi o‘rtasidagi bog‘liqlik va mutanosiblik hisobot davrida va kutilayotgan prognoz davrida ham saqlanib qolgan.




10-rasm. “Global Komsco Daewoo” MCHJ XKning uzoq muddatli aktivlarining 2015-2021-yillardagi yarim yillik ma‘lumotlari va 2022-2025-yillarning yarim yilliklari bo‘yicha prognoz ko‘rsatkichlari, ming so‘m (X1).




**11-rasm. "Global Komsco Daewoo" MCHJ XKning joriy aktivlarining 2015-2021-yillardagi yarim yillik ma'lumotlari va 2022-2025-yillarning yarim yilliklari bo'yicha prognoz ko'rsatkichlari, ming so'm (X2).**




**12-rasm. "Global Komsco Daewoo" MCHJ XKning uzoq muddatli majburiyatlarining 2015-2021-yillardagi yarim yillik ma'lumotlari va 2022-2025-yillarning yarim yilliklari bo'yicha prognoz ko'rsatkichlari, ming so'm (X3).**



**13-rasm. "Global Komsco Daewoo" MCHJ XKning joriy majburiyatlarining 2015-2021-yillardagi yarim yillik ma'lumotlari va 2022-2025-yillarning yarim yilliklari bo'yicha prognoz ko'rsatkichlari, ming so'm (X4).**



**14-rasm. "Global Komsco Daewoo" MCHJ XKning joriy majburiyatlarining 2015-2021-yillardagi yarim yillik ma'lumotlari va 2022-2025-yillarning yarim yilliklari bo'yicha prognoz ko'rsatkichlari, ming so'm (X5).**



**15-rasm. "Global Komsco Daewoo" MCHJ XKning sof aktivlari qiymatining 2015-2021-yillardagi yarim yillik ma'lumotlari va 2022-2025-yillarning yarim yilliklari bo'yicha prognoz ko'rsatkichlari, ming so'm (Y).**

Yuqorida sof aktivlar qiymatiga ta'sir etuvchi omillarning hisobot va prognoz hisob-kitoblari qiymatlari hisoblangan jadval va unga ilova qilingan rasmlardan shunday xulosaga kelish mumkinki, tadqiqot obyekti hisoblangan "Global Komsco Daewoo" MCHJ xorijiy korxonasi moliyaviy holatini istiqbolda ijobiy va barqaror, deb baholash mumkin.

### **Uchinchi bob bo'yicha xulosa**

Tadqiqot ishining uchinchi bobi bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida quyidagi xulosalarga kelindi.

Moliyaviy hisobotni tahlil qilishni xalqaro standartlar asosida takomillashtirish maqsadga muvofiqligi ilmiy va amaliy jihatdan asoslangan.

Ushbu bobda moliyaviy hisobot ko'rsatkichlari tizimi tasniflangan va ularni korxonaning barqaror rivojlanishiga ta'siri tahlil qilingan. Xalqaro amaliyotda xo'jalik subyekting

moliyaviy salohiyatini baholashda sof aktivlar qiymatiga muhim ahamiyat qaratiladi. Xo'jalik subyektining moliyaviy salohiyatiga sof aktivlar va moliyaviy leverij koeffitsiyentlari ta'sirining tahlili amalga oshirilgan.

Sof aktivlar qiymatiga ta'sir etuvchi omillardan salmoqlisi uzoq muddatli majburiyatlar bo'lib, u 2016-yilda 94 553 104,80 ming so'mni tashkil etgan. 2020-yilga kelib ular 230 492 240,0 ming so'm bo'lgan yoki 2,5 baravarga oshganligini ko'ramiz. Sof aktivlarning jami aktivlarda to'planish koeffitsiyenti mezonni 0,5 bo'lishi maqbul deb topilgan bir paytda bu ko'rsatkich 2016-yilda -0,22 va 2020-yilda -0,08 koeffitsiyent bo'lganligi ayon bo'ldi. 2020-yilda sof aktivlarning aylanuvchanligi koeffitsiyenti -10,1; sof aktivlarning aylanish davri -35,7 kun va sof aktivlarning rentabelligi past, ya'ni -147,3 foiz bo'lganligini ko'rishimiz mumkin.

Ta'sir etuvchi omillar va vaqt omili o'rtasida tuzilgan trend modellar tahlili shuni ko'rsatadiki, trend modellardagi barcha hisoblangan koeffitsiyentlarning statistik ahamiyatligi, parametrlarining ishonchliligi aniqlangan. Ilmiy ishda sellyuloza-qog'oz kombinatining moliyaviy ko'rsatkichlarini ekonometrik modellashtirish va prognozlash orqali uning iqtisodiy va moliyaviy salohiyatiga ta'sir etuvchi omillarni 2025-yilgacha davrga bo'lgan prognozi ishlab chiqilgan.

## XULOSA

Monografiyada amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalar shakllantirildi:

1. Tadqiqot ishida jahon iqtisodiyotining globallashuvi va mamlakatimizning unga integratsiyalashuvi moliyaviy hisobotning milliy tizimini xalqaro standartlarga transformatsiya qilishning zaruratini keltirib chiqarganligi, bu boradagi xorijiy tajriba investorlar, mulkdorlar, davlat idoralari va moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilar uchun ishonchli va tezkor axborot bilan ta'minlashni talab qilishi atroflicha tahlil qilingan.

2. Xo'jalik yurituvchi subyektlarda moliyaviy hisobot tuzish va uni tahlil qilishning nazariy-uslubiy asoslari sohasida chuqur ilmiy-tadqiqotlar olib borish natijasida buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini umumiy va xususiy jihatlari, tamoyillari va qoidalari aniqlashtirilgan, xo'jalik subyektlarining texnologik xususiyatlari va hisob siyosatini inobatga olib, ularning qo'llanish doirasini chegaralash lozimligi asoslangan.

3. Moliyaviy hisobotlarni taqdim etishning konseptual asosidagi "qabul qilish", "uyg'unlashtirish" va "transformatsiya qilish" atamalari, shuningdek, MHXSdagi "iqtisodiy resurs", "sof aktivlar", "balans-brutto" atamalariga mualliflik ta'rifi keltirilgan.

4. Foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotni xalqaro hisoblash tamoyili asosida tayyorlash va vertikal balans-brutto shaklida taqdim etish bo'yicha amaliy tavsiyalar berilgan.

5. Tadqiqot ishida "Moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot"ning mohiyati ochib berilgan, uni taqdim qilishni takomillashtirish maqsadida yangi subschyotlarni kiritish, ularni yuritish bo'yicha hisob registrlari hamda korxonaning hisob siyosatiga kiritish taklif etilgan.

6. Ilmiy ishda moliyaviy hisobot tuzilgan sanadan keyingi hodisalar ta'sirida buxgalteriya hisobida sodir bo'ladigan muamolarni aks ettirish maqsadida maxsus subschyotlarni ochish va ularning aloqasini qayd etishga mo'ljallangan «Kontirovka varaqasi» taklif etilgan. Fikrimizcha, 6610-"Oddiy aksiyalar bo'yicha to'lanadigan dividendlar", 6620-"Imtiyozli aksiyalar bo'yicha to'lanadigan dividendlar" schyotlarini ochish 8310-"Oddiy aksiyalar", 8320-"Imtiyozli aksiyalar" hamda 8610-"Sotib olingan xususiy aksiyalar – oddiy", 8620-"Sotib olingan xususiy aksiyalar – imtiyozli" schyotlarning aloqalarini muvofiq-lashtirish va o'zaro mantiqiy bog'liqligini ta'minlashga xizmat qiladi.

7. Xalqaro amaliyotda buxgalterlarning 86% mehnat sarfi tahliliy jarayonlarga sarflanishini ko'rishimiz mumkin. Bu o'z navbatida, moliyaviy hisobot tahlilining uslubiy va tashkiliy jihatlarini takomillashtirishni taqozo etadi. Shu maqsadda xo'jalik subyektlari faoliyatini samarali boshqarish uchun retrospektiv, joriy va istiqbolli tahlilni amalga oshirish maqsadga muvofiqligi ilmiy jihatdan asoslangan, uning bosqichlari ishlab chiqilgan.

8. Tadqiqot ishida davlat ulushi bo'lgan xo'jalik jamiyatlari va davlat korxonalarining MHXS asosida buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotni tayyorlashga o'tish jarayonida amaldagi BHMSni mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun davlat ichki standartlari ko'rinishida saqlab qolish va uning xos raqamlari hamda nomlarini xalqaro standartlarga moslashtirish maqsadga muvofiqligi asoslangan.

9. Ilmiy ishda xo'jalik subyektining sof aktivlari qiymatiga ta'sir etuvchi omillardan jami aktivlar, majburiyatlar, sof tushum, sof foyda kabilarning ta'sirini aniqlash mezonlari va tahlil qilish usuli ishlab chiqilgan.

10. Xo'jalik subyektlarining asosiy va asosiy bo'lmagan



faoliyati bo'yicha moliyaviy natijalari tarkibi tasniflangan, ularni xalqaro standartlarga transformatsiya qilish bosqichlari ishlab chiqilgan.

11. Monografiyada kimyo sanoati korxonalarining sof aktivlari qiymatiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash me'zonlari va tahlil qilish usuli ishlab chiqilgan. Moliyaviy salohiyatni baholash maqsadida sof aktivlar qiymatiga ta'sir etuvchi uzoq muddatli va joriy aktivlar, majburiyatlar hamda sotishdan olingan sof tushum kabi omillar ta'sirining 2025-yilgacha bo'lgan prognozi ishlab chiqilgan.

12. Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar, investitsiya ko'chmas mulki, uzoq muddatli biologik aktivlar, debitorlik qarzi, pul mablag'lari va ularning ekvivalentlari kabi moliyaviy hisobot elementlarining qadrsizlanishi bo'yicha rezerv tashkil qilish maqsadga muvofiqligi asoslangan.

13. Davlat ulushi bo'lgan xo'jalik jamiyatlari va davlat korxonalarining MHXS asosida buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotni tayyorlashga o'tish jarayonida amaldagi BHMSni mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun davlat ichki standartlari ko'rinishida saqlab qolish va uning xos raqamlari hamda nomlarini xalqaro standartlarga uyg'untlashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

14. Xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy hisobot axborotlari asosida moliyaviy salohiyat tahlilining xalqaro usullariga o'tish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Yuqoridagi keltirilgan xulosa va takliflar moliyaviy hisobot tuzish va tahlil qilishning xalqaro standartlariga muvofiqlashtirishga, shuningdek, uning nazariy, uslubiy va tashkiliy asoslarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

### I. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar

1. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi (yangi tahriri). Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 31.12.2019 y., 02/19/SK/4256-son;11.03.2020y.,03/20/607/0279-son. [www.lex.uz/docs/4674902](http://www.lex.uz/docs/4674902)
2. O'zbekiston Respublikasining 1996-yil 30-avgustdagi O'RQ-279-I-son "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni (Yangi tahrir: 2016-yil 13-aprel O'RQ-404-son). [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/5841063>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-fevraldagi PQ-4992-son «Kimyo sanoati korxonalarini yanada isloh qilish va moliyaviy sog'lomlashtirish, yuqori qo'shilgan qiymatli kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori. <https://lex.uz/uz/docs/5288160>
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-son "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori. <https://lex.uz/docs/4746047>

7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 24-avgustdagi 507-son "Moliyaviy hisobotning halqaro standartlari va unga tushuntirishlar matnini tan olish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori. <https://lex.uz/docs/4966554>

8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 14-dekabrda 1013-son «Davlat ishtirokidagi korxonalarni moliyaviy sog'lomlashtirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» qarorining «Davlat ishtirokidagi korxonalarining moliyaviy-iqtisodiy holati tahlilini o'tkazish reglamenti» nomli 2-ilovasi. [www.lex.uz/docs/4106617](http://www.lex.uz/docs/4106617)

9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5-fevraldagi 54-son "Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida"gi Nizomni tasdiqlash bo'yicha qarori. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. 2020-yil 29-dekabr. <https://president.uz/uz/lists/viyew/4057>

11. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. 2020-yil 24-yanvar. [www.president.uz/uz/lists/viyew/3324](http://www.president.uz/uz/lists/viyew/3324).

12. Mirziyoyev SH.M. Har bir korxonaning barqarorligi aniq hisob-kitobga bog'liq, rahbarlar faoliyati shunga qarab baholanadi. 2018-yil 17-aprel. <http://xs.uz/uzkr/post/shavkat-mirziyoyev-har-bir-korkhonaning-barqaror-ligi-aniq-hisob-kitobga-bogliq-rahbarlar-faoliyati-shunga-qarab-baholanadi>

13. Mirziyoyev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak., 2017-yil 14-yanvar. -Toshkent: "O'zbekiston", 2017, -44 b.

14. O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobi Milliy standarti (14-son BHMS) «Xususiy kapital to'g'risida hisobot»ni tasdiqlash to'g'risida»gi buyruqqa o'zgartirishlar kiritish haqida. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2017-yil 16-iyunda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 1335-1. <https://lex.uz/docs/3237533>

15. O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobi Milliy standarti (21-son BHMS) "Xo'jalik yurituvchi subyektlar Moliyaviy-xo'jalik faoliyatining buxgalteriya hisobi schyotlari rejasi va uni qo'llash bo'yicha yo'riqnoma. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 23.10.2002-yil 1181-raqam bilan ro'yxatga olingan. O'zbekiston Respublikasi moliya vazirligi tomonidan 09.09.2002-yilda 103-raqam bilan tasdiqlangan. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

16. O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobi Milliy standarti "Moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etish uchun konseptual asos" O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 1998-yil 14-avgustda 475-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan. <https://lex.uz/docs/828557>

17. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining "Moliyaviy hisobot shakllari va ularni to'ldirish bo'yicha qoidalarni tasdiqlash to'g'risida" buyrug'i. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2003-yil 24-yanvarda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 1209. <https://lex.uz/docs/821320#4197048>

18. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2002-yil 27-dekabrda 140-son buyrug'iga 5-son ILOVA "Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot 5-sonli shakl". <https://lex.uz/docs/821320#4197048>

## **II. Monografiya, ilmiy maqola, patent, ilmiy to'plamlar**

19. Alimardonov I.M. Kichik biznes subyektlari pul oqimining barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari. – T.:

“Mustaqillik yillarida O‘zbekiston moliya-bank tizimining rivojlanishi” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani maqolalari to‘plami. TDIU, 2016-yil 25-noyabr. 684 b.

20. Axmadxonov I. Soliq maslahatchilari palatasi. Bir kunda MHXS. Taqdimot materiallari. T.:12.02.2021

21. Getman V.G. O konseptualnoy osnove mejdunarodnix standartov finansovoy otchetnosti //Mejdunarodniy buxgalterskiy uchets, 2007, № 12

22. Djumanov S.A. Moliyaviy hisobot axborotlarini xalqaro standartlar asosida kompilyatsiya qilish. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. T.: 2019, -58 b.

23. Djumanov S.A. Compilation of information on financial statements of small industrial zones of Uzbekistan based on international financial reporting standards. //International Journal of Economics, Commerce and Management. Issue 11, November 2018 y.

24. Djumanov S.A. Kichik sanoat zonalarida moliyaviy hisobot axborotlarini xalqaro standartlar asosida kompilyatsiya qilish. //“Xalqaro moliya va hisob” ilmiy elektron jurnali. № 1, fevral, 2018 y.

25. Djumanov S.A. Moliyaviy hisobot axborotlarini xalqaro standartlar asosida kompilyatsiya qilishning nazariy jihatlari. //“Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 2, mart, 2018 y.

26. Djumanov S.A. Buxgalteriya hisobi tizimini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tkazish yo‘llari. //Moliya ilmiy jurnal. 1-son 2016 y.

27. Djumanov S.A., Kurbanayev J.E. Ishlab chiqarish samaradorligini baholashda boshqaruv hisobining ahamiyati //“Biznes-Ekspert” 1-son 2015 y.

28. Jason Fernando, Julius Mansa. Profit and Loss Statement (P&L). <https://www.investopedia.com/terms/p/plstatement.asp>

29. Ibragimova I.R. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini aksiyadorlik jamiyatlari amaliyotiga joriy etishni takomillashtirish. Iqt. fan. fals. dokt. (PhD) disser. avtoref. -T.: TDIU. 2022. – 58 b.

30. Chris b. Murphy. Understanding the Cash Flow Statement. April 04, 2022. <https://www.investopedia.com/investing/what-is-a-cash-flow-statement/>

31. Kevin Bogle, Valeriye Boissou, Ashley L. Peters. Statement of cash flows: IFRS® Standards vs. US GAAP. <https://advisory.kpmg.us/articles/2021/statement-of-cash-flows.html> (Murojaat qilingan sana: 27.07.2022)

32. Qo'ziyev I.N. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida auditorlik hisobotini tuzish va umumlashtirish metodologiyasini takomillashtirish. Iqt. fanl. dokt. diss.avtoreferati. Toshkent-2017. -70 b

33. Lykacevich I.YA. Dva metoda formirovaniya otcheta o dvijenii deneznix sredstv. <http://www.yelitarium.ru/otchet-o-dvizhenii-deneznyh-sredstv-analiz-deyatelnost-rashody-pribyl/>

34. Lucía Fernández, Total revenue of the chemical industry worldwide from 2005 to 2020 (in billion U.S. dollars). Apr 27, 2022. <https://www.statista.com/statistics/302081/revenue-of-global-chemical-industry/>

35. Marpatov M. Buxgalteriya balansi – moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot. //Bozor, pul va kredit. –2016. –№3. –56-64-b.

36. Musayev H.N. Buxgalteriya balansining auditi. Ochiq ma'ruza materiallari. Samarqand 2017 y.

37. Nasretdinov S.S. Konsolidatsiyalashtirilgan moliyaviy hisobot tuzishning nazariy va uslubiy masalalari. Nom. diss. -T.: O'zRBank-moliya akademiyasi, 2004 y. 22 b.

38. Rizaev N.K. Intellektual mulk obyektlari hisobi va tahlilini tashkil etish metodologiyasi. Iqt. fanl. dokt. (DSc) diss.avtoreferati, T.: 2019,

39. Tashnazarov S.N. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida moliyaviy hisobotning nazariy va metodologik asoslarini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. T.: 2019 y. -74 b.

40. Tashnazarov S.N. Moliyaviy hisobotning nazariy va metodologik asoslarini takomillashtirish. Monografiya. - Publisher SIA OmniScriptum Publishing. GlobeEdit Publishing house. 2018. 280 p. ISBN-13:978-613-8-24050-1

41. Tashnazarov S.N. Moliyaviy hisobot: atamalar tavsifi va talqini. Monografiya. -Samarqand. "Matbaa nashriyoti": 2018 y. - 168 b.

42. Tashnazarov S.N. Moliyaviy hisobotning nazariy va metodologik asoslarini takomillashtirish (MHXS va ilg'or tajribalar asosida). Monografiya. T.: "Turon", 2017 y. -170 b.

43. Tashnazarov S.N. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida moliyaviy hisobot: muammo va yechimlar. Monografiya. -T.: «Navro'z» nashriyoti, 2016 y.-296 b.

44. Tashnazarov S.N. Moliyaviy hisobotning MHXS bo'yicha transformatsiyasi zaruriyati, mohiyati va bosqichlari. //Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalari elektron ilmiy jurnali. - Toshkent, 2017. - №3. B. 1-16. (08.00.00; №10)

45. Troy Adkins. Optimal use of financial leverage in a corporate capital structure. Corporate Finance & Accounting. Apr 30, 2021.

46. <https://www.investopedia.com/articles/investing/111813/optimal-use-financial-leverage-corporate-capital-structure.asp>

47. Tulayev M.S. Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot shaklini xalqaro standartga muvofiqlashtirish. – T.: “Mustaqillik yillarida O'zbekiston moliya-bank tizimining rivojlanishi” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani maqolalari to'plami. TDIU, 2016-yil 25-noyabr. b. 367

48. Urazov K.B. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida buxgalteriya hisobining konseptual masalalari. Monografiya. - T.: Fan, 2005. -236 b.

49. Xakimov B., Xolmirzayev U. Pul mablag'lari hisobi va tahlilini xalqaro tajribalar asosida takomillashtirish. “Xalqaro moliya va hisob” ilmiy elektron jurnali. № 1, fevral, 2020-yil., [www.interfinance.uz/yen/](http://www.interfinance.uz/yen/)

50. Khasanov B.A., Mukumov Z.A., Alikulov A.I., Djumanova A.B., Yeshboyev U.T., Hasanova R.B. Calculation of the invested capital profitability in the financial condition analysis process. International Journal of Advanced Science and Technology, Vol. 28, No. 14, (2019), pp. 42-48. [www.scopus.com](http://www.scopus.com)

51. SHeremet A.D. Globalizatsiya nujdaetsya v yedinom yazike. <https://bosfera.ru/bo/globalizatsiya-nuzhdaetsya-v-yedinom-yazyke?amp>

52. Shuligina O.YU. Metodi podgotovki finansovoy otchetnosti v formate MSFO. Mejdunarodniy buxgalterskiy uchet. 24(174) - 2011. s.16-19.

53. YEndri YE., Sumarno A., Saragi H. Analysis of Financial Performance: YEvidence from Food and Beverage Companies in Indonesia. International Journal of Advanced Science and Technology, Vol. 29, No. 5, (2020), pp. 4199 - 4208. [www.scopus.com](http://www.scopus.com)



54. Moliyaviy hisobotlarni taqdim etishning konseptual asosi. [https://www.mf.uz/ru/?option=com\\_content&view=article&id=279](https://www.mf.uz/ru/?option=com_content&view=article&id=279)

55. 1-son Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti "Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish". [https://www.mf.uz/ru/?option=com\\_content&view=article&id=279](https://www.mf.uz/ru/?option=com_content&view=article&id=279)

56. 7-son Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti "Pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobot". [https://www.mf.uz/media/file\\_uz/audit/2022/sfo/Uzb\\_GVT\\_BB2022\\_A\\_IAS07.pdf](https://www.mf.uz/media/file_uz/audit/2022/sfo/Uzb_GVT_BB2022_A_IAS07.pdf)

57. 7-son Moliyaviy hisobotning xalqaro standarti "Moliyaviy instrumentlar: ma'lumotlarni yoritib berish". [https://www.mf.uz/ru/?option=com\\_content&view=article&id=279](https://www.mf.uz/ru/?option=com_content&view=article&id=279)

58. 36-son Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti "Aktivlarning qadrsizlanishi". [https://www.mf.uz/uz/?option=com\\_content&view=article&id=970](https://www.mf.uz/uz/?option=com_content&view=article&id=970)

59. Respublikamizda 1115 korxonalar va tashkilotlar davlat ulushlari to'liq sotiladi (Infografika). 2020-yil 13-mart. [www.xs.uz/uzkr/post/respublikamiz-da-1115-korxonalar-va-tashkilotlar-davlat-ulushlari-toliq-sotiladi-infografika](http://www.xs.uz/uzkr/post/respublikamiz-da-1115-korxonalar-va-tashkilotlar-davlat-ulushlari-toliq-sotiladi-infografika)

60. Compilation of Financial Information// <https://www.grantthornton.com>.

61. Conceptual Framework for Financial Reporting. (IFRS). [https://www.mf.uz/ru/?option=com\\_content&view=article&id=279](https://www.mf.uz/ru/?option=com_content&view=article&id=279)

62. Mejdunarodniye standarti finansovoy otchetnosti. [Minfin.ru/ru/performance/accounting/mej\\_standard\\_fo/docs\09.02.2016](http://Minfin.ru/ru/performance/accounting/mej_standard_fo/docs\09.02.2016).

63. "Apple.Inc" kompaniyasi moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosida. <https://www.double-ventry-bookkeeping.com/capital/statement-of-changes-in-equity/>

64. "Navoiyazot" AJning moliyaviy hisoboti ma'lumotlari.  
<https://www.navoiyazot.uz/oz/auditors>

65. "Farg'onazot" AJning 2019, 2020, 2021-yilgi moliyaviy hisoboti ma'lumotlari. <https://azot.uz/oz/menu/buhgalterskij-balans-forma-1-forma-2>

66. "O'zkimyosanoat" AJ moliyaviy hisoboti ma'lumotlari.  
<https://uzkimyosanoat.uz/uz/corporate/disclosure/financial-reports/annual-reports>

### **III. Foydalanilgan boshqa adabiyotlar**

67. Ainsworth, Penne. Introduction to Accounting: An integrated Approach /Penne Ainsworth, Dan Deines, R. David Plumlee, Cathy Xanthaky Larson. Irwin, Printed in USA, 2005. 425 r.

68. Akramov YE.A. Korxonalarning moliyaviy holati tahlili. O'quv qo'llanma. – T., 2007. b.97

69. Alexander D., Britton A., Jorissen A. International Financial Reporting and Analysis, 4- YEdition. 2009. 39-59-p

70. Robert Newton Anthony. Accounting principles. D.B.A. - 7th yedition, Irwin, 2006. 686 p.

71. Yeliseyeva I.I. Ekonometrika. Uchebnik dlya vuzov – M.: Finansi i statistika, 2003. – 344 s. 118 bet

72. Roger H. Hermanson. Accounting: a business perspective. 6th yed., Irwin, Printed in the USA, 2004. 926 p.

73. Ishnazarov A., Nurullayeva SH., Muminova M., Ro'zmetova N. Ekonometrika asoslari. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2019, 258 b.

74. Kermit D. Larson. Financial Accounting. 6th yed. Irwin, 2005. 686 p.

75. Robert Libby. Financial accounting. Irwin, Printed in USA, 1996. 848 p.

76. Mustafakulov SH.I., Ishnazarov A.I., Rasulev D.M. YEVIyews dasturida ekonometrik modellarni yaratish bo'yicha amaliy qo'llanma. –T.: TDIU, 2018. – 46 b.
77. Mustafakulov SH.I., Negmatov J.B., Murodullayev N.N., Jo'raev B.R. Ekonometrika: O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2017. - 155 b.
78. Nidlz B. i dr. Printsipi buxgalterskogo ucheta /B. Nidlz, X. Anderson, D. Kolduell. – M.: Finansi i statistika, 2003. – 496s.
79. Paliy V.F. Mejdunarodniye standarti finansoviy otchetnosti. –M.: INFRA-M., 2003 - 456s.
80. Pardayev A.X., Pardayeva Z.A. Boshqaruv hisobi. – Toshkent, 2014. – 318 b.
81. Pardaev M.K., Abdukarimov I.T., Isroilov J.I., Isroilov B.I. Korxonalarda moliyaviy hisobotlar tahlili. O'quv qo'llanma. –T.: Soliq Akademiyasi, 2009 - 76 b.
82. Pardaev M.Q., Isroilov J.I., Isroilov B.I. Iqtisodiy tahlil. O'quv qo'llanma. – T, 2017. b. 279
83. Raximov M.Yu. Iqtisodiyot subyektlari moliyaviy holatining tahlili. O'quv qo'llanma. -T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2013. 392 b.
84. Sagdillaeva 3., Yuldasheva U., Alimov B. Finansoviy analiz. – T.: «Fan va texnologiya», 2019, 444 str.
85. Sokolov YA.V. Ocherki po istorii buxgalterskogo ucheta. – M.: Finansi i statistika, 1991. – 400 s.
86. David J. Spiceland. Intermediate accounting. 7 th yed. 2013
87. Tulaxodjaeva M.M., Tuxsanov X.A. Finansoviy uchet. Uch. pos. – T.: APBDU, 2001
88. Urazov K.B. Buxgalteriya moliyaviy hisobi. O'quv qo'llanma. – Samarqand. SamISI, 2013. -228 b.

89. Xasanov B.A. va boshq. Moliyaviy tahlil. (Qayta nashr) Darslik. / - T.: "Iqtisodiyot", 2022. – 721 b.

90. Xasanov B.A., Xoshimov A.A., Muxametov A.B., Abduvohidov A.A. Buxgalteriya hisobi. Darslik. - T.: "Iqtisodiyot dunyosi", 2021. 992 b.

91. Xasanov B.A., Raximov M.Yu., Muqumov Z.A., Aliqulov A.I., Jumanova A.B., Xajimuratov N.Sh., Xasanova R.B. Moliyaviy tahlil. Darslik. – T.: Iqtisodiyot, 2019. – 736 b.

## ILOVALAR

1-ilova

**Xalqaro standartlar asosida tuzilgan Namunaviy schyotlar rejasining qismlar va bo'limlar bo'yicha turkumlanishi**

<b>Schetlar shifri</b>	<b>MHXS bo'yicha moliyaviy hisobot tayyorlaydigan xo'jalik subyektlari uchun taklif etilayotgan buxgalteriya hisobining namunaviy schyotlar rejasi<sup>110</sup></b>
<b>I QISM.</b>	<b>AKTIVLAR</b>
<b>1-bo'lim.</b>	<b>Uzoq muddatli aktivlar</b>
1000	Asosiy vositalar
1100	Nomoddiy aktivlar
1200	Investitsiya ko'chmas mulki
1300	Uzoq muddatli investitsiyalar
1400	Uzoq muddatli debitorlik qarzi
1500	Uzoq muddatli moliyaviy aktivlar
1600	Uzoq muddatli biologik aktivlar
1700	Geologik qidiruv va baholanadigan aktivlar
1800	Kechiktirilgan soliq aktivlari
1900	Boshqa uzoq muddatli aktivlar
<b>2-bo'lim.</b>	<b>Qisqa muddatli aktivlar</b>
2000	Zaxiralar
2100	Qisqa muddatli debitorlik qarzi
2200	Qisqa muddatli moliyaviy aktivlar
2300	Berilgan qisqa muddatli bo'naklar
2400	Joriy soliqlar va yig'imlar bo'yicha aktivlar
2500	Pul mablag'lari va ularning ekvivalentlari
2600	Qisqa muddatli biologik aktivlar va qishloq xo'jaligi mahsuloti
2700	Sotish uchun mo'ljallangan uzoq muddatli aktivlar
2800	Boshqa qisqa muddatli aktivlar
<b>II QISM.</b>	<b>MAJBURIYATLAR</b>
<b>3-bo'lim.</b>	<b>Qisqa muddatli majburiyatlar</b>
3000	Qisqa muddatli kreditorlik qarzi
3100	Qisqa muddatli moliyaviy majburiyatlar
3200	Shartnomalar bo'yicha qisqa muddatli majburiyatlar
3300	Qisqa muddatli baholangan majburiyatlar
3400	Joriy soliqlar va yig'imlar bo'yicha majburiyatlar
3500	Boshqa qisqa muddatli majburiyatlar
<b>4-bo'lim.</b>	<b>Uzoq muddatli majburiyatlar</b>

<sup>110</sup> Muallif ishlanmasi.

[https://www.mf.uz/media/file\\_uz/buh-uchet/formaFO/uzb\\_plan.pdf](https://www.mf.uz/media/file_uz/buh-uchet/formaFO/uzb_plan.pdf)

4000	Uzoq muddatli kreditorlik qarzi
4100	Uzoq muddatli moliyaviy majburiyatlar
4200	Shartnomalar bo'yicha uzoq muddatli majburiyatlar
4300	Uzoq muddatli baholangan majburiyatlar
4400	Kechiktirilgan soliq majburiyatlari
4500	Boshqa uzoq muddatli majburiyatlar
<b>III QISM.</b>	<b>XUSUSIY KAPITAL</b>
<b>5.1-bo'lim.</b>	<b>Xususiy kapital</b>
5000	Ustav kapitali
5100	To'lanmagan kapital
5200	Sotib olingan o'z ulushli instrumentlari
5300	Qo'shimcha to'langan kapital
5400	Rezervlar
5500	Taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar)
5600	Xususiy kapitalning boshqa komponentlari
<b>5.2-bo'lim.</b>	<b>Nazorat kuchiga ega bo'lmagan ulushlar</b>
5700	Nazorat kuchiga ega bo'lmagan ulushlar
<b>IV QISM.</b>	<b>MOLIYAVIY NATIJALARNING SHAKLLANISHI</b>
<b>6-bo'lim.</b>	<b>Daromadlar</b>
6000	Tushum
6100	Boshqa daromadlar
6200	Boshqa operatsiyalar bo'yicha foyda
6300	Moliyaviy faoliyatdan daromad
6400	Tugatilgan faoliyat bilan bog'liq foyda
6500	Ulushli qatnashish usuli bo'yicha hisobga olinadigan tashkilotlarning foydasidagi ulush
<b>7-bo'lim.</b>	<b>Xarajatlar</b>
7000	Tannarx
7100	Operatsion faoliyat bo'yicha xarajatlar
7200	Boshqa operatsiyalar bo'yicha zararlar
7300	Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar
7400	Tugatilgan faoliyat bilan bog'liq zarar
7500	Ulushli qatnashish usuli bo'yicha hisobga olinadigan tashkilotlarning zararidagi ulush
7600	Foyda solig'i bo'yicha xarajatlar
<b>8-bo'lim.</b>	<b>Yakuniy moliyaviy natija</b>
8000	Davr uchun foyda yoki zarar
8100	Foyda solig'i chegirilgan boshqa umumlashgan daromad
8200	Davr uchun umumlashgan daromad
<b>V QISM.</b>	<b>BALANS DAN TASHQARI SCHYOTLAR</b>
<b>9-bo'lim.</b>	<b>Balansdan tashqari schyotlar</b>

**“Apple.Inc” kompaniyasi aksiyadorlik kapitali to‘g‘risidagi konsolidatsiyalashgan hisoboti <sup>111</sup>**

(million doll.da, bundan ming doll.da ko‘rsatilgan aksiyalar miqdori hamda bitta aksiyaga to‘g‘ri keladigan summa mustasno)

	Oddiy aksiyalar va qo‘shimcha to‘langan kapital		Taqsimlanmagan foyda	Jamg‘arilgan boshqa jami daromad (zarar)	Umumiy aksiyadorlik kapitali
	Aksiyalar, summasi	Soni			
<b>2018-yil 1-oktabrga qoldiq</b>	5 578 753	27 416	92 284	(345)	119 355
Sof daromad	-	-	45 687	-	45 687
Boshqa jami daromad / (zarar)	-	-	-	979	979
Dividendlar va dividendlarning ekvivalentlari, har bir aksiya yoki RSU uchun 2,18 dollar miqdorida e‘lon qilingan	-	-	(12 188)		(12 188)
Oddiy aksiyalarni sotib olish	(279 609)	-	(29 000)	-	(29 000)
Aksiyalar asosida to‘langan kompensatsiya	-	4 262	-	-	4 262
Chiqarilgan oddiy aksiyalar, xodimlardan daromad solig‘i to‘lashda hisobga olinadigan aksiyalarni hisobga olmaganda	37 022	(806)	(419)	-	(1 225)
Aksiyadorlik kapitali bilan mukofotlanganlardan olingan soliq summasi, shu jumladan, transfert bahoni tuzatishdan	-	379	-	-	379


<sup>111</sup> <https://www.double-entry-bookkeeping.com/capital/statement-of-changes-in-equity/>

olingan foyda bilan birga					
<b>2019-yil 1-oktabrga qoldiq</b>	<b>5 336 166</b>	<b>31 251</b>	<b>96 364</b>	<b>634</b>	<b>128 249</b>
Sof daromad	-	-	48 351	-	48 351
Boshqa jami daromad / (zarar)	-	-	-	(784)	(784)
Dividendlar va dividendlarning ekvivalentlari, har bir aksiya yoki RSU uchun 2,40 dollar miqdorida e'lon qilingan	-	-	(12 803)	-	(12 803)
Oddiy aksiyalarni sotib olish	(246 496)	-	(33 001)	-	(33 001)
Aksiyalar asosida to'langan kompensatsiya	-	4 909	-	-	4 909
Chiqarilgan oddiy aksiyalar, xodimlardan daromad solig'i to'lashda hisobga olinadigan aksiyalarni hisobga olmaganda	36 531	(913)	(581)	-	(1 494)
Aksiyadorlik kapitali bilan mukofotlanganlardan olingan soliq summasi, shu jumladan, transfert bahoni tuzatishdan olingan foyda bilan birga	-	620	-	-	620
<b>2020-yil 1-oktabrga qoldiq</b>	<b>5 126 201</b>	<b>35 867</b>	<b>98 330</b>	<b>(150)</b>	<b>134 047</b>
Hisob siyosatiga kiritilgan o'zgarishlar natijasida olingan samara	-	-	278	(278)	-
Sof daromad	-	-	59 531	-	59 531
Boshqa jami daromad / (zarar)	-	-	-	(3 026)	(3 026)




Dividendlar va dividendlarning ekvivalentlari, har bir aksiya yoki RSU uchun 2,72 dollar miqdorida e'lon qilingan	-	-	(13 735)	-	(13 735)
Oddiy aksiyalarni sotib olish	(405 549)	-	(73 056)	-	(73 056)
Aksiyalar asosida to'langan kompensatsiya	-	5 443	-	-	5 443
Chiqarilgan oddiy aksiyalar, xodimlardan daromad solig'i to'lashda hisobga olinadigan aksiyalarni hisobga olmaganida	34 334	(1 109)	(948)	-	(2 057)
<b>2021-yil 1-oktabrga qoldiq</b>	<b>4 754 986</b>	<b>40 201</b>	<b>70 400</b>	<b>(3 454)</b>	<b>107 147</b>

**“O‘zkimyosanoat” AJning 2016–2021-yillarda investitsiyalarni o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari tahlili**



	Yillar				
	2016	2017	2018	2019	2020
<b>Jami investitsiyalar hajmi, mln.so'm</b>	<b>328,6</b>	<b>311,4</b>	<b>467,0</b>	<b>602,8</b>	<b>388,9</b>
<b>To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar</b>	<b>0,0</b>	<b>0,1</b>	<b>0,5</b>	<b>45,5</b>	<b>47,5</b>

**“O‘zkimyo sanoat” AJning 2021–2026-yillarda investitsiyalarni  
o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari prognozi**



	Yillar					
	2021	2022	2023	2024	2025	2026
Jami investitsiyalar hajmi, mln.so'm	281,4	393,8	1980,9	2355,6	1451,5	1135,6
To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar	239,1	332,8	1546,5	1818,2	1159,9	873,2

## MUNDARIJA:

<b>KIRISH</b> .....	3
<b>I BOB. XO'JALIK YURITUVCHI SUB'YEKTLARDA MOLIYAVIY HISOBOT TUZISH VA UNI TAHLIL QILISHNING NAZARIY-USLUBIY HAMDA TASHKILIY ASOSLARI</b>	9
1.1. O'zbekistonda moliyaviy hisobotning milliy ti- zimini xalqaro standartlarga transformatsiya qilishning zarurati, xorijiy tajribasi va istiqbollari.	9
1.2. Moliyaviy hisobotlarni taqdim etishning konse- ptual asosi, yangilangan standart(IAS, IFRS)larning ta'rifi va tavsifi.....	30
1.3. Moliyaviy hisobot tahlilining hozirgi holati va uni rivojlantirish yo'nalishlari.....	39
Birinchi bob bo'yicha xulosa .....	48
<b>II BOB. MOLIYAVIY HISOBOTNING ASOSIY SHAKLLARI VA ELEMENTLARINI TAKOMILLASHTIRISH</b>	50
2.1. Moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotni tuzish va taqdim etish usullarini takomillashtirish.....	50
2.2. Foyda yoki zarar va boshqa umumlashgan daromad to'g'risidagi hisobotni tuzish uslublarini takomillashtirish.....	62
2.3. Xalqaro standartlar asosida pul oqimlari to'g'risidagi moliyaviy hisobot tuzish usullarini takomillashtirish.....	73
2.4. Xususiy kapital to'g'risidagi hisobotni xalqaro standartlarga uyg'unlashtirish.....	92
Ikkinchi bob bo'yicha xulosa .....	100

<b>III</b>	<b>MOLIYAVIY HISOBOTNI TAHLIL QILISHNI</b>	
<b>BOB.</b>	<b>XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA</b>	
	<b>TAKOMILLASHTIRISH</b>	<b>102</b>
3.1.	Xo'jalik subyektining moliyaviy salohiyatiga sof aktivlar va moliyaviy leverij koeffitsiyentlari ta'sirini tahlili.....	102
3.2.	Sellyuloza-qog'oz kombinatining moliyaviy ko'rsatkichlarini ekonometrik modellashtirish va prognozlash.....	113
	Uchinchi bob bo'yicha xulosa .....	133
	<b>XULOSA.....</b>	<b>135</b>
	<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....</b>	<b>138</b>
	<b>ILOVALAR.....</b>	<b>149</b>



**AKRAMOV ABDULLA BAHODIR O'G'LI**

**XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA MOLIYAVIY  
HISOBOT TUZISH: HISOB VA TAHLIL USULLARINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**Toshkent – «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi» – 2023**

<b>Muharrir:</b>	<b>Yu. Isoqova</b>
<b>Texnik muharrir:</b>	<b>M.Tursunov</b>
<b>Musavvir:</b>	<b>Sh.Zoxidova</b>
<b>Musahhiha:</b>	<b>S. Muratova</b>
<b>Kompyuterda sahifalovchi:</b>	<b>M.Zoyirova</b>

**E-mail: nashr2019@inbox.ru. Tel.: +99899920-90-35**

**№ 3226-275f-3128-7d30-5c28-4094-7907, 10.08.2020.**

**Bosishga ruxsat etildi 10.10.2023.**

**Bichimi 70x100 <sup>1</sup>/<sub>16</sub>. «Timez Uz» garniturasini.**

**Ofset bosma usulida bosildi.**

**Shartli bosma tabog'i: 10,5. Nashriyot bosma tabog'i 10,0.**

**Tiraji: 300. Buyurtma № 144-19.**